O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI

NAVOIY VILOYATI PEDAGOGLARNI YANGI METODIKALARGA O‘RGATISH MILLIY MARKAZI

“ALISHER NAVOIY MEROSINING ILMIY, MA’NAVIY AHAMIYATI” MAVZUSIDAGI

RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

T O‘ P L A M I

Navoiy-2023

Alisher Navoiy merosining ilmiy, ma’naviy ahamiyati. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya *materiallari. – Navoiy: Navoiy viloyati PYaMO‘MM nashri, 2023. 145 b.*

Navoiy viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazida tashkil etilgan “Alisher Navoiy merosining ilmiy, ma’naviy ahamiyati” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plamida uzluksiz ta’lim tizimida tadqiqot olib borayotgan mutaxassis-olimlar, mustaqil izlanuvchilar ilmiy-nazariy izlanishlarining amaliy tadbiqlari keltirilgan. Raqamli texnologiyalar asosida o‘qitish metodikasini takomillashtirish borasidagi tajribali maktab o‘qituvchilarining taklif va tavsiyalari, umumta’lim fanlarini o‘qitishda raqamli texnologiyalardan foydalanish hamda ta’lim, fan, xalqaro aloqalar va boshqaruv faoliyatining ustuvor yo‘nalishlarini rivojlantirish hamda “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili” Davlat dasturida belgilangan vazifalar doirasida bajarilayotgan izlanishlarga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqot natijalari yoritilgan.

Konferentsiya materiallaridan oliy ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari, umumta’lim maktablari o‘qituvchilari, magistrantlar va iqtidorli talabalar hamda shu sohada ilmiy ish olib borayotgan tadqiqotchilar foydalanishlari mumkin.

TAHRIR HAY’ATI

Ro‘ziqulov F.R.	- psixologiya fanlari nomzodi, dotsent
Pulotov A.M.	- pedagogika fanlari nomzodi. dotsent
Usmonova R.M.	- kafedra mudiri, dotsent
G‘ulomova N.S.	- filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori
Azizova S.T.	- katta o‘qituvchi
Suvonova M.X.	- katta o‘qituvchi
Boboqulov J.Q.	- UKTTE bo‘limi boshlig‘i

Texnik muharrir: Jalilov D.J.

KIRISH SO‘ZI

Assalomu alaykum! Aziz mehmonlar, anjuman ishtirokchilari **“Alisher Navoiy merosining ilmiy, ma’naviy ahamiyati”** mavzusidagi bugungi ilmiy-amaliy anjumanida, (videokonferentsiyada) Siz muhtaram mehmonlar, ilm-ma‘rifat ahli bilan muloqotda bo‘lishni o‘ta mamnuniyat bilan qabul qilaman.

Har qaysi millatning ma’naviyatini uning urf-odatlari, an’analari, hayotiy qadriyatlaridan ayri holda tasavvur etib bo‘lmaydi. Ma’naviy meros eng muhim omillardan biri bo‘lib xizmat qiladi. Har bir xalq adabiyotini eng yuksak cho‘qqilarga yuksaltiradigan daho ijodkorlar bo‘ladi. Ularning ijodiyoti qancha vaqt, zamon o‘tmasin, hech qachon eskirmaydi va millatni ruhlantiradigan g‘oyaviy-badiiy qimmatini yo‘qotmaydi. Alisher Navoiy xuddi shunday buyuk ijodkorlardan hisoblanadi.

Mutafakkir shoir ijodiyotini o‘rganish bevosita millat tarixi, madaniyati, badiiy zavqi, ruhoniyati va urf-odatlarini chuqurroq bilishga keng yo‘l ochadi. Navoiy asarlarida ijtimoiy adolat, tenglik va shaxs erki masalasi alohida yuksak mahorat bilan ochib berilgan. Adolat g‘oyasi faqatgina shohlarga nisbatan emas, balki butun jamiyatning ma’naviy va siyosiy holatlariga nisbatan ham ifodalanadi. Navoiy ijtimoiy tenglikni targ‘ib etar ekan, yer yuzidagi xalqlar o‘rtasidagi do‘stlikni mustahkamlash masalasiga katta ahamiyat beradi, urushga qarshi turib, shaxs erki daxlsizligini uqtiradi. Navoiy asarlarida davrning xilma-xil muammolarini yechish yo‘llari rangbarang va benihoyat boy obrazlar orqali badiiy ifodalangan bo‘lib, ularda shoirning odam haqidagi ideali, ma’naviy-axloqiy konsepsiyasi o‘z aksini topadi. Alisher Navoiy o‘z asarlarida inson yaralmishlar ichra eng aziz xilqat ekanligi, unga yaratgan tomonidan benazir aql-u hush, nutq va farosat, bilim, tajriba, qalb-u his baxsh etilganligini, u o‘zining tafakkur va nutq qobiliyati bilan boshqa mavjudotlardan yuqori turishi va bu ayni vaqtda unga mukarramlig-u sharaf bag‘ishlashini, yer yuzini obod qilish va uni boshqarib turishi uchun unga kuch-qudrat hadya etilganligini ta’kidlaydi va har bir inson ilm

va hunar egallashni shior qilib, umrini besamar o‘tkazmasligi kerakligini ta'kidlaydi.

Shu bilan birga asarlaridagi obrazlar tavsifida insonni yanada yuksak pog‘onaga ko‘taradigan go‘zal axloqiy fazilatlar: qalbiy oliyjanoblik, saxovat va do‘stlik, vatanparvarlik va mehnatsevarlik kabi axloqiy sifatlarni oily darajada tasvirlab, har bir inson o‘zi va o‘zgalar hayotida yaxshilik bilan iz qoldirishiga da'vat etadi:

Bu gulshan ichra yo‘qtur baqo guliga sabot,
Ajab saodat erur, yaxshilik bila chiqsa ot.

Buyuk mutafakkirning ijodini qanchalik chuqur va puxta bilsak, ma'rifat, ezgulik, komillik sirlarini kengroq anglab boraveramiz. Yoshlarimiz mutafakkir hayoti va ijodini o‘rgangani sayin komillik sirlarini o‘shancha kengroq egallaydi. Navoiyning sehrli so‘zlarini qalbiga o‘rnatgan odam, odamiylik sharafi va kuch-quvvatini idrok etadi. Navoiy saboqlariga amal qilgan kishi xalqning dard-u tashvishlarini yengillatishga bel bog‘laydi, ilm-ma'rifatni-nodonlik va jaholatga qarshi qurol o‘rnida ishlatadi. Navoiyni anglash, uning siymosiga intilishning g‘oyat muhimligni bilish-adolat, diyonatning kuchiga ishonish demak. Ko‘ngliga shunday ishonch g‘olib bo‘lgan odamlar soni jamiyatimizda qancha ko‘paysa, insonlarning bilib-bilmay qilgan xato va muammolari kamayib boradi. Navoiying ibratli faoliyati bugun istiqlol farzandlari uchun har tomonlama ibrat maktabi vazifasini o‘taydi.

Alisher Navoiyning ma'naviy merosi milliy ma'naviyatimizning yuksalishida, jamiyatimizda ezgu insoniy fazilatlarni kamol topishida teran ahamiyatga ega. Mutafakkir faoliyatiga xos ilm-u ma'rifatga intilib yashash ishqi asarlarning mazmun-mohiyatini tashkil etadi. Ayniqsa, uning “Mahbub ul-qulub” asari falsafiy fikrlarga boy, inson va jamiyat, ular o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlik, komil inson baxt saodati, adolatli jamiyat, ta'lim-tarbiya, ta'lim-tarbiyada ota-onaning mas'uliyati, sabrlilik, diyonatlilik, birodarlik kabi qator masalalarni

qamrab olgani bilan qimmatlidir. Ushbu asarda shaxs, barkamol inson yetakchi o‘rinda turadi va yana bir karra ilm ahli ulug‘lanadi.

Ilmdan chetda qolgan xalq o‘rtasida qaysar, johildir,
O‘rganishga qattiq tirishgan jahonning zo‘r olimidir.

“Mahbub ul-qulub” da shu kabi serma’no va ibratli fikrlarni juda ko‘p uchratamiz. Ilm olib, undan hayoti davomida unumli foydalana olmagan, ezgu amallar qilishga shoshmagan insonlarni, go‘yo urug‘ ekib, undan hosil olmagan dehqonga o‘xshatadi. Alisher yuqoridagi bayti bilan barcha fanlarni o‘rganishni targ‘ib etadi. Uning fikricha, bilimlarni tinmay o‘rganish zarur, bunda har qanday qiyinchilikni yengib o‘tish muhimligini, qunt bilan ishlash, tirishqoqlik bilan harakat qilish, izchillik bilan kurashish, uni oxirigacha yetkazish, chidam va sabot bilan o‘rganishni ta’kidlaydi.

Ulug‘ mutafakkirning ulkan ijodini dengizga qiyoslash mumkin. Unda dur-u javohirlar behisob, biz undan bir qatrasinigina bayon etoldik xolos. Hazrat Navoiyning bebeho merosidan xalqimizni, ayniqa yoshlarimizni qanchalik ko‘p baxramand eta olsak, milliy ma’naviyatimizni yuksaltirishda, jamiyatimizda ezgu insoniy fazilatlarni kamol topishida shunchalik ma’naviy qurolga ega

F.R. Ro‘ziqulov
Navoiy viloyati XTXQTMOHM direktori

ИДЕИ ГУМАНИЗМА, МИРА И ПРОСВЕТИТЕЛЬСТВА В ТВОРЧЕСТВЕ АЛИШЕРА НАВОИ

Усманова Р.М. *– заведующая кафедрой Методики преподавания языков НЦОНМП Навоийской области, доцент*

В освоении богатого культурного и научного наследия народов Востока важное место занимает изучение естественнонаучной и философской мысли раннего Средневековья. Научные, философские, художественные труды и исследования мыслителей, ученых и поэтов эпохи вошли в золотую сокровищницу мировой цивилизации.

Узбекский народ внес достойный вклад в сокровищницу мировой науки, культуры, искусства и литературы. Великие открытия его лучших сынов до сих пор привлекают внимание и заслуживают признание во всем мире. Один из них, оставивший нам в наследство бесценную духовную кладезь, – великий мыслитель, ученый, государственный деятель и поэт Алишер Навои.

Творчество гениального Алишера Навои сегодня стало уже достоянием всего прогрессивного человечества. В своих стихах воспевал такие качества, как скромность, доброта, любовь к Родине, к людям. Все эти ценности являются ценностями во всем мире.

Большое значение Алишер Навои придавал тому, что человек владеет разумом, он говорил, что это великий дар, данный свыше, и с разумом не сравнятся никакие алмазы и рубины. Всем известно, что один из городов Узбекистана был назван в честь великого поэта, государственного деятеля и мыслителя Алишера Навои.

Великий узбекский поэт Алишер Навои – гуманист, мыслитель, основатель узбекской классической литературы и узбекского литературного языка, ученый, художник, музыкант, государственный деятель, оставивший потомкам богатое литературное наследие. Его имя является символом прогресса своей эпохи для народов всего мира. Навои писал стихи, поэмы,

прозаические произведения, научные трактаты, всесторонне раскрывающие духовную жизнь Средней Азии XV в. Он писал на языках тюрки и фарси.

Благородные идеи, воспетые Алишером Навои, и сегодня находят свое яркое отражение. Новое поколение независимого Узбекистана на его произведениях учится духовности и нравственности, ибо обогащение духовного мира людей, как подчеркивал Президент, зиждется «на двух огромных силах: общечеловеческих и национальных ценностях, точнее говоря, в их постоянной гармонизации».

Литературное наследие Алишера Навои вошло в мировую сокровищницу человеческой мысли как своеобразный и неповторимый поэтический мир. Мир Навои – это синтез общечеловеческих идей, думы и чаяния гения о счастливой жизни всех людей, наперекор всем предрассудкам. Именно поэтому произведения Навои созвучны всем эпохам.

Воспевая любовь к жизни, достоинства человека-творца, дружбу между людьми, свободу и мир, поэт горячо призывал:

Поймите, люди всей земли:
Вражда – плохое дело,
Живите в дружбе меж собой –
Нет лучшего удела.

Гениальная, высокохудожественная поэзия Навои воспевает идеи гуманизма, мира и просветительства. Его непревзойдённый талант поднял литературу тюрко-язычных народов до мировых вершин. Поэтому он поставлен в один ряд с гигантами мирового словесного искусства – Гомером и Данте, Рудаки и Фирдоуси, Низами и Саади, Шекспиром и Бальзаком. Выдающийся азербайджанский поэт Физули, высоко оценивая поэтический мир Навои назвал его царем царей среди поэтов:

«И у тюрков, и у персов
были гении свои,
Но они, увы, не знали

громкой славы Навои.
Навои с волшебным словом
и пером, меча острей,
На просторах Хорасана
признан был царем царей».

И хотя произведениям великого Алишера, этого мудрого творца с энциклопедическим умом и мышлением, уже более пяти веков, они твердо занимают достойное место в сокровищнице мировой литературы, до сих пор волнуют умы и сердца наших современников.

Его выдающийся талант получил в Узбекистане должную высокую оценку в годы независимости.

В нашей республике уже стало доброй традицией ежегодно отмечать день рождения гениального узбекского поэта Алишера Навои. Вот и в эти дни его бессмертные стихи вновь звучат по всей стране в учебных заведениях, библиотеках, музеях, у памятников поэту… И на память приходят слова, сказанные о Навои главой нашего государства: «Хазрат Навои – величайшая личность, и его произведения, жемчужины его мыслей, живут в веках, и от того, насколько глубоко наш народ, и особенно молодежь, приобщится к этому великому наследию, настолько действенное средство получим мы для работы по развитию духовности, воспитанию лучших человеческих качеств и неповторимый поэтический мир. Поэтому произведения Навои созвучны всем эпохам».

Литература

1. Кельдиев Т. Т. Литература. — Т., 2010.
2. Салаев К. Б. Литературная хорезмиана в исторической прозе Узбекистана. — Т., 1993.

3. Салаев, К. Б. О значении творчества А. Навои в мировой литературе / К. Б. 4. Салаев. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2021. — № 6 (348). — С. 453-454.

NAVOIY G‘AZALLARINI TAHLIL QILISHDA IZOHLI LUG‘ATLARDAN FOYDALANISH

G‘ulomova Nargiza Sa'dullayevna,
Navoiy viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazi, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya: Maqolada Alisher Navoiy lirikasini o‘qish uchun maxsus lug‘atlar zarurligi, eski o‘zbek tili hozirgi o‘zbek adabiy tilidan grammatik qurilishi jihatidan va izohli lug‘atlar tarkibi jihatidan farqlanishi hamda lug‘atlarning o‘ziga xos xususiyatlari haqida ma'lumotlar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: lug‘at, tavtologik usul, izohtalab so‘z, g‘azal, qomus.

Alisher Navoiy “Muhokamat ul-lug‘otayn” asarida turk tilining jomiiyati muncha daloil bila sobit bo‘ldi, kerak erdikim, bu xalq orasidin paydo bo‘lg‘on tab' ahli salohiyat va tab'larin o‘z tillari turg‘och, o‘zga til bila zohir qilmasa erdi va ishga buyurmasalar erdi. Va agar ikkalasi til bila aytur qobiliyatlari bo‘lsa, o‘z tillari bila ko‘prak aytsalar erdi, va yana bir til bila ozroq aytsalar erdi. Va agar mubolag‘a qilsalar, ikkalasi til bila teng aytsalar erdi, deya turkiy tilni puxta va mukammal o‘rganishga chorlaydi. Navoiyning ilmiy izlanishlari natijasida turkiy adabiy tilning grammatik, fonetik, leksik jihatlari puxtalashdi. Adabiy tilning leksik va stilistik imkoniyatlari kengaydi. Buning uchun u turkiy tilning so‘z boyligi, omonim, sinonimlari, so‘z yasash va uslubiy imkoniyatlari cheksiz va bunday zahiralar fors tilida yaratilgan klassik asarlardan qolishmaydigan badiiy asarlar yuzaga keltirishga qodir ekanini isbotlab berdi. Navoiy va uning asarlariga bo‘lgan havas, o‘qish va o‘rganishga bo‘lgan intilish uzoq tarixga ega. Bu tarix buyuk shoir va olimning hayotligidanoq boshlandi va shu kunlargacha davom etib kelyapti. Navoiy asarlarini o‘rgansihga bo‘lgan qiziqish shu qadar qizg‘in va ommaviy tus oldiki, Navoiy hayotligidayoq asarlarini o‘rganishni osonlashtirish, mazmunini to‘la anglashga ehtiyoj ortib bordi. XV asrdayoq Husayn Bayqaroning farmoniga muvofiq tuzilgan Badoye'-al lug‘at”ni Alisher Navoiy asarlariga tuzilgan birinchi qomus deyishimiz mumkin. Tole Hiraviy ushbu lug‘atni tuzishda

o‘rta asr qomuschiligining eng yaxshi an'analaridan foydalangan. Har bir so‘z haqida uch xil ma'lumot qoldirilgan: 1) so‘zning tovush tuzilishi; 2) uning ma'nosi; 3) grammatik xususiyati. Grammatik izohdan sung etimologik izoh o‘rin oladi, bir oz muddatdan so‘ng "Abushqa", "Sangloh" singari lug‘atlar tuzdilar. Navoiyning asarlari XVI – XIX asrlarda fors, turk, tatar, gruzin, ozarbayjon, italyan, nemis, fransuz, golland, hamda rus tillariga tarjima qilinib, ko‘p marta chop etildi. Alisher Navoiy lirikasini o‘qish uchun maxsus lug‘atlar juda zarur, sababi eski o‘zbek tili hozirgi o‘zbek adabiy tilidan grammatik qurilishi jihatidan va lug‘at tarkibi jihatidan ancha farq qiladi. Bugungi kunga kelib, mutafakkir asarlarida qo‘llagan so‘z va so‘z birikmalarining bir qismi iste'moldan chiqdi yoki ba'zi so‘zlar hozirgi o‘zbek tilida butunlay boshqa ma'noda qo‘llanilmoqda. Tabiiyki, bunday so‘zlarni tushunish uchun izohli lug‘atlarga murojaat qilamiz.

Ma'lumki, yurtimizda Alisher Navoiy ijodiy merosini ilmiy mezonlar asosida tadqiq etishga o‘tgan asrning 20-30-yillaridan boshlab kirishilgan. Mutafakkir asarini ilmiy tadqiq etish bo‘yicha boshlangan ilmiy izlanishlarning muvaffaqiyatli amalga oshirishi uchun XV asr so‘z imkoniyarlarini bilish juda muhim hisoblangan. Shu sababli sobiq Sho‘rolar Ittifoqi miqyosida Navoiy tavalludining 500 yilligini keng nishonlash haqida ilmiy sessiyaning qarorlari qabul qilinishi munosabati bilan, Navoiy asarlari yuzasidan 4 jildli izohli lug‘at tuzish haqidagi qarorni ham qabul qiladi. P.Shamsiyev va S. Ibrohimov tomonidan 1972-yilda "Navoiy asarlari lug‘ati" Alisher Navoiy asarlarining 15 jildligiga ilova tarzida, E.Fozilov tahriri ostida 1983-1985-yillarda e'lon qilingan "Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati" ilmiy izlanishlarning samarali natija berishida ulkan manba bo‘lib xizmat qildi. Ushbu izohli lug‘atlar faqat tilshunos olimlar uchun manba bo‘lmasdan, balki Sharq tarixi, ilmi, ma'naviy-madaniy hayotiga qiziquvchilar uchun ham foydali ma'lumotlar yig‘majildi sifatida ahamiyatlidir. Ushbu lug‘atlarning bugungi kundagi qimmati ham shu jihati bilan yuksakdir. Mazkur izohli lug‘atlar Navoiy asarlarining yetakchi g‘oyasini tushunishda muhim

ahamiyatga ega bo‘lihsi bilan birga, XV asr madaniy, ijtimoiy-siyosiy hayotidan ham beqiyos ma'lumotlarni beruvchi xazinadir.

Shu sababli Navoiyning nasriy va nazmiy asarlarida qo‘llagan betakror so‘z boyligining ma'no-mazmunini o‘qib-o‘rganish, tushunish uchun hamisha Navoiy asarlari tilini o‘rganish maqsadida yozilgan maxsus izohli lug‘atlarga murojaat qilamiz. Izohli lug‘atlarning boshqa turdagi lug‘atlardan alohida farqli jihatlari mavjud, ya'ni lug‘at maqolasining asosiy vazifasi so‘zning ma'nosini yoki ma'nolarini sharhlash, tarkibida shu so‘z mavjud bo‘lgan qo‘shma so‘z, frazeologik, turg‘un birikmalarni izohlash va so‘zning har bir ma'nosiga tasdiqlovchi illyustrativ material keltirishdan iborat.

Izohli lug‘atlarda izohtalab so‘zlarning ma'nosini 3 xil usulda berilishini kuzatamiz:

1. Tusuntirish usuli – asosiy so‘zning ma'nosini tushuntirish usulida izohtalab so‘z haqida qo‘shimcha ma'lumot va tushuntirishlar beriladi:

Minqosh – shamni yoritish uchun uchini olib turiladigan yarim oy shaklidagi asbob, qisqich.
Riyozat – nafs xohosh qilgan narsalardan tortinib o‘zini qiynash, qiynalish, mashaqqatlanish.
Tavochi – podshohning buyruq va topshiriqlarini tegishli yerlarga yetkazuvchi hamda amalga oshiruvchi amaldor, ad'yudant.
Sarxat – yangi xusnixat mashq qiluvchi kishi uchun ko‘rsatma qilib, muallim tomonidan yozib berilgan xat namunasi.
Zakot – musulmonlardan ularning umumiy boyligining qirqdan biri miqdorida har yili olinadigan diniyb soliq.

2. Tavtologik usul – izohtalab so‘zning bugungi iste'moldagi ma'nosi, o‘sha so‘zning o‘xshashlari, ma'nodoshlarini keltirish orqali izohlanadi:

Avom – umum, omma, olamon, xalq, oddiy kishilar.
Berkimak – mahkamlamoq, berkilmoq, to‘silmoq, ilinmoq.
Layl – tun, kecha, kech, oqshom.
La'ma – yolqin, sho‘la, porloqlik, ravshanlik, yiltillash.
Payvast – tutash, ketma-ket, doimo, hamisha.

3. Aralash usul – izohtalab so‘zga berilgan izohdan so‘ng qo‘shimcha tushuntirish va so‘z ma’nosini yanada oydinlashtiruvchi qo‘shimcha ma’lumotlar ham berish:

Tarji’ – qaytarish, takrorlash: tarji’ band – she’rda bandning takrorlanishi (bunda shoir vazni bir, qofiyasi turlicha bo‘lgan bir nechta band she’rning har bandi orasida ma’lum bir baytni takrorlab turadi. Takrorlangan band har bir band oxiridagi bayt bilan bog‘lanib borishi shartdir).
Da’b – odat, qiliq, xislat (bu so‘z ko‘pincha dab’u pasha, dab’u fan, dab’u xisol, dab’u xo‘, dab’u shior kabi biror so‘zga qo‘shilib, odat, fe’l-atvor, ravish, qiliq, xislat kabi ma’nolar anglatadi).
Masih, Masiho – Iso payg‘ambarning laqabi (rivoyatlarga ko‘ra Iso payg‘ambar har qanday kasalni davolay olish va hatto o‘likni tiriltirish kuchiga ega bo‘lgan).
Muhrona – Muhr haqi (Qozi va boshqa mansab egalarining turli hujjatlarga muhr bosib, tasdiqlaganlari uchun ularga to‘lanadihan pul).

Ma’lumki, Alisher Navoiy tilining so‘z boyligi 20 mingdan ortiq hisoblanadi. Shu boisdan, Navoiy asarlari tilini o‘rganishga mo‘ljallab nashr etilgan izohli lug‘atlardan foydalanib, mutafakkir asarlaridagi barcha so‘zliklarini, ularning ma’no nozikliklarini to‘la-to‘kis anglash juda murakkab ilmiy jarayon hisoblanadi. Izohli lug‘atlarda so‘zlarning ma’nolari adib davridagi qo‘llanilish doirasini aniqlashda qo‘lyozma manbalar, lug‘atlar muhim ahamiyat kasb etadi. Tole Imoniy Hiraviyning “Badoe’ ul-lug‘at” (“Ajoyib lug‘at”) nomli nodir qo‘lyozma asari XV asrning oxirida yozilgan bo‘lib, unda Navoiy nazmining javohirlaridan mingga yaqini sharhlab berilgan. “Badoe’ ul-lug‘at” lug‘at lug‘atchilik taraqqiyotiga sezilarli ta’sir ko‘rsatgan. Ushbu lug‘atda Alisher Navoiy asarlarida foydalangan mingga yaqin so‘z va iboralar o‘zbekcha-forzcha tartibda izohlangan. Mazkur kitobning hajmi 180 sahifadan iborat bo‘lib, 1-10-sahifalarida lug‘atchilik tarixi va izohli lug‘atlarning ahamiyati haqida ma’lumotlarning berilganligi bilan lug‘atchilik taraqqiyotida o‘rni beqiyos hisoblanadi.

Navoiy tilining o‘ziga xos uslubi, so‘z va iboralarni qo‘llash imkoniyatlarini namoyish etishda, o‘zlashtirishda, tahlil qilingan baytning ma’no va mazmun-

mohiyatini anglay olishda mutafakkir g‘azallari mualliflik korpusini yaratish nihoyatda dolzarb hisoblanadi va katta ahamiyat kasb etadi. “Xazoyin ul-maoniy” kulliyoti g‘azallarining semantik teglari bazasi esa izohli lug‘at asosida tushunarsiz leksemalar (so‘z va so‘z birikmasi) asl ma’nolarini, ularning grammatik, leksik xususiyati (ma’nodosh, shakldosh, o‘zakdosh) barcha g‘azallar uchun umumiy chastotani o‘z ichiga qamrab oladi. Shakldoshlik holatida raqamli indekslar shaklida qo‘shiladi, so‘zlarga izoh beriladi. Nafaqat ma’nodosh, shakldosh, o‘zakdosh, balki eskirgan so‘zlar ham izohlanadi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Alisher Navoiy Muhokamat ul-lug‘otayn. – Toshkent: Fan, 1989. – B. 11.

2. Shamsiyev P., Ibrohimov S. Alisher Navoiy asarlari lug‘ati. – Toshkent: G‘afur G‘ulom, 1972. – B. 8.

3. Ahmedov B. Navoiy zamondoshlari xotirasida. – Toshkent: Adabiyot va san’at, 1985. – B. 3.

4. Ahmedov B. Navoiy zamondoshlari xotirasida. – Toshkent: Adabiyot va san’at, 1985. – B. 3.

5. Aisher. Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati. / Fozilov E. tahriri ostida. 1 jild – Toshkent: Fan, 1983-1985. – B. 8.

Ўзбек шеваларида миллий кийим ва таом номларини ифодаловчи этнографизмларнинг ареали

Суванова Мавжуда
Навоий вилоят педагогларни янги методикаларга
ўргатиш миллий маркази

Ҳар бир халқнинг моддий маданияти унинг яшаш жойи, уйи ва уй жиҳозлари, кийим-кечаги ва безаклари, таомлари ва рўзғор буюмлари билан белгиланади. Асосан табиий-географик шароит ва иқлим таъсирида миллий руҳият ва характерни ифодаловчи моддий маданият намуналари узоқ тарихий давр давомида шаклланиб ўзига хос хусусиятларга эга бўлади.

Узоқ тарихий давр давомида ўзбек халқининг ўз турмуш тарзи бўлган. Ҳар бир озиқ-овқат турлари билан, кийим-кечаги ва уй-рўзғор буюмлари, ўзаро мулоқотдаги хусусиятлари (саломлашиш усуллари ва меҳмон кутиш), бола тарбияси, урф-одат ва маросимлари каби жуда кўп миллий-маданий хусусиятлари билан шева вакилларининг нутқида ҳудудий жиҳатдан ўхшаш ва фарқлар ҳам мавжуд бўлган. Маълумки, халқнинг турмуш тарзи билан боғлиқ бўлган сўз ва терминлар шеваларда турли хил шаклда лисоний ифода этилиши мумкин. Бундай сўз ва терминлар қайси ўзбек шевасига тааллуқли бўлишидан қатъий назар, ўзбек адабий тили улардан озиқланмоғи керак ва шарт.[1] Бундай сўзлар турли соҳаларга оид лексик бирликлардан иборатдир.Б у соҳалар диалектолог ва терминолог олимлар томонидан ўрганилган.[2]

Шева вакилларининг узоқ ўтмишдан бери фойдаланиб келинган аньанавий кийимлари моддий маданиятнинг бир қисмини ташкил этиб, ўзбек халқининг миллий хусусиятлари, урф-одатлари ҳамда эстетик дидини намоён этган. Ўзбек халқининг аньанавий кийимлари бошқа миллат кийимларидан ўзига хос томонлари билан ажралиб туради. Бошқа халқ кийимлари сингари ўзбек халқ аньанавий кийимлари узоқ тарихий жараёнлар давомида, ижтимоий-иқтисодий ривожланиш ҳамда урф-одат, маросим, аньаналар таъсирида даврлар ўтиши давомида ўзига хос хусусиятда шаклланиб, ривожланиб келган.

Халқнинг анъанавий кийимлари ва тақинчоқлари ўзбек маиший моддий-маънавий маданиятининг ажралмас қисми бўлиб, ўзида миллий хусусиятларни жипслаштирган. Шева вакиллари ҳунармандчилигининг бир хусусияти унинг кўп соҳаси бевосита уй-рўзғор хўжалиги билан боғлиқлиги бўлган. Уларнинг анъанавий хўжалиги халқнинг кўп минг йиллик тарихий тажрибаси асосида шаклланган бўлиб, ўзига хос анъанага эга эканлиги аниқланди.

[1] Шоабдураҳмонов Ш.Ўзбек адабий тили ва ўзбек халқ шевалари. - Тошкент.319-бет.
[2] Иброҳимов С.Фарғона шеваларининг касб-ҳунар лексикаси:Фил.фанлари д-ри ...дис.- Тошкент,1960.-471 бет. ;Асамутдинова М.Ўзбектилида кийим-кечак номлари.Тошкент:Фан.1981.-115б.;Носиров Ш.Шевалар лексикасининг соҳалар бўйича группалари//Ўзбек шевалари лексикаси.Тошкент,1991.120-182-бетлар.

Бошга кийиладиган ва ўраладиган матолар номи: Сам.Бух.Н.в.ш. – **кәләпуш; топпи//тақыйа//тахыйа;** Сурх. **кәләпөш // кәләбәш** – дўппи. Қиёс., ф.-тож. калла + пўшидан яъни бош ёпиш; **қурахшәппош** – оқ матога ҳар хил рангдаги материал (қуроқ)лардан тикилган, ёш болалар киядиган дўппи. Бу сўз ўзбек шеваларида аввалроқ кенг истеъмолда бўлган. Қиёс: Туркий тилларда ҳам бу сўзнинг турли хил вариантлари учрайди. ққ. **топпы**; қоз. **қулақшин**; қирғ. **топ, тақия**; уйғ. **доппа** ир. тюбетейка; қашқ. **тɔқьйәгир**; ф.-тож.. **тоқи** – дўппи; ўзб. ад. дўппи .

Ўзбек аёлларининг бугунги кунда бош кийимларидан бири рўмол кенг истеъмолда дейиш ўринли бўлади. Бух.Сам.Нав.в. – рўмол; Сурх**.ромал** – рўмол (<форс-тож. рўй – юз, мол – мато). Қиёс., ДЛТда **бүрүнчүк** – пешонабоғ, хотинлар рўмоли (1, 467); озар. **бөш йайлиғи**; қоз. **жаулык** – айелдер басина салатин орамал, шалі; қўмиқ тилида **явлукь**; тува тилида **бошявлык**; қирғ. **жоолук**; шали жаолук, дақи жооллуқ; уйғ. **йағлиқ**; Алишер Навоий асарларида ҳам **бурунчук//бурунчак** рўмол маъносида келади. *Сочида шабнам **бурунчак** э кўнгил, эрмас ажаб, сунбул узра гар тушар шабнам таажжуб қилмагил* (Хазойинул маоний, 209).

пешɔнабәнд – дўппининг устидан боғланадиган кичик ҳажмдаги рўмол тури. Анд., Нам. **дурра//дуррача, сәлләчә** ; Тошк. **дәкәнә**, пешәнәбоғ; Шовот **манләйчә**; Сам.Нав.в. **пешɔнәбәнд;** Сурх. **пешɔнабәнд// пешɔнәмәт// нɔзъ- пешәнә**.

Келинларнинг юзига тутиб қўйиладиган оқ дока ёки тўр ўзбек шеваларида турли номлар билан айтилади. Тошк. **чачвэн**, Бух. **чимбэнт**, Қашқ. **чәшбон //чәшвән// чәчбән**, Нам. **чуммат, тутуқ.** Фарғ. **чиммат**, қипчоқ лахжасида **чиммат, чачвон сўзлари чашмбанддан мураккаб комбинатор фонетик ўзгариш** натижасида юзага келган[3]. Сурх.**чиммәт**

[3]Данияров Х. Опыт изучения жекающих диалектов в сравнение с узбекским литературным языком. Ташкент, 1975. Малов С. Е. Уйгурские наречие Синьзяна. М., 1961.

Қиёс., ф.-тож**. рубанд** (руйи банд), қирғ. **чубет**, **чимбот**; туркм. **чачван**; ққ. **чиш вант**.

Яктак – кийимларнинг устидан кийиладиган эркакларнинг астарсиз енгил кийими. Фарғ. Тошк. **авра тўн//яхтак тўн**; Анд. **елвагай** – яктакнинг егнини киймай, елкага ташлаб юришга айтилади; Хор. **йелак//елвэгэй**; Сурх. **джеләк//йеләк //йәктәк;** тож. **яктак**; уйғ. **йахтак** (Ур, 784); Қиёс., **таш**,**таш тон** – (ташқаридан кийиладиган тўн, устки тўн (ДЛТ, I, 166); Навоий ва Бобур асарларида ***яланг тўн, ялак*** тарзида учрайди: *Икки юзга ҳам деклаю тўн бериб,* ***яланг тўн*** *аларга яна ўн бериб* (Садди Искандарий); *Кўчимхоннинг элчиси Амин Мирзога камар ханжар ва зарбафт* ***ялак*** *ва етмиш минг танга инъом бўлди* (Бобурнома, 128); қоз. ва ққ. **елак**; тат. **желан**; турк. **желак**; туркм. **елбегей дон** (Тмрс, 303); қирғ. **желак, желак тўн** ёки **желбегей** .

Тўн – авра-астарли, пахтали устки кийим. Қашқ. **чопон**; Фарғ. **чўкит**; Сам. **чопон.** Бух.Нав.в.чопон; Сурх. **тон//чɔпɔн**. Қиёс., **тон** (ДЛТ, III, 151); Навоийда: *Хўб йиртиқ* ***тўн*** *била ҳам хуб, гул ямоғлиқ чопони била маҳбуб* (Маҳбуб ул қулуб, 69). ққ. **еркек шапан**; **шопан**; туркм.**дон**; VI-VIII асрларга оид Қултегин ёдномасида "чопон" маъносини ифодалаган қуйидаги жумла бор. Ичрэ ашсиз ташра тонсиз йабыз йаблак будунта үзолурым (Млв, 31.)

Ўзбек шеваларида болаларнинг иссиқ кийимининг номларидан бири **жубба** сўзини ифодаловчи турли номлар учрайди: Нав.в.ш., Хоразм .жуббә**, гүппъчә, Сурх: гүппи//гүппъчә//кәлтәчә,** ққ. **гурташе – гуппича** – болаларнинг пахтали, енгсиз устки кийими.

Ўзбек халқининг қадимги кийимларидан бири - нимча. Нимча – куйлак устидан, костюм, камзул ичидан киядиган енгсиз ва ёқасиз калта ва ихчам кийим(асосан хотин қизлар кияди.) (ЎТИЛ,II,503).Тошк.**нъмчә,** Жиз. **кәмзърчә,** Бух.ъчък//ъчъкчә**,** Қашқ**. сънәвән** (тож.сийна-кўкрак,ван-банд,беркитиш), Нав.в.ш. ъчъкъчә**,** кәмзърчә**, сънәвән,сънәчә, жомә, Сам. кәмзърчә,** ъчъкъчә**, сънәчә,** Қашқ. Сам. **гуппи, гуппи тон** номланиши ҳам

учрайди**.** (ЎзШЛ, 200). Сурх. **иччик//вәскәрчә** – аёллар киядиган енгсиз нимча: Қиёс.ДЛТда **тэринчәк** – хотин-қизларнинг енги йўқ ич кийими (1, 467); Навоийда ***теринчак***нинг лексик варианти ***терлик*** сўзи учрайди: *Ўзбаки гулнори тундин куйдим, аммо ултурур, Лемуш* ***терлик*** *анинг ости даким жонон кияр* (Наводируш-шабоб, 104);

кәмзол – авра-астарли, олди очиқ, енгли, тугмали, кўйлак устидан кийиладиган аёллар устки кийими. Тошк. Фарғ. **камзул//камзур//камзил;** Хор. **камзор//камзол;** Бух. Сам. Нав. в. эркаклар киядиган тури – **камзул//камзил**, аёллар киядигани – **калтача**, Сурх. **кәмзол;** ққ. **кемзол//гамзол//кәмзор** – кийимнинг тури. ф.-тож. камзулнинг аёллар киядиган тури**:** **калтача**; туркм. **кемзал**; қирғ. **кемзал//кемсал//кемзур//кемзир** ; қоз. **кемзал// кемзол//бешпент** – жен бар, қисқалау келген сирттан киетін женглі киім .

Ўзбек халқининг барча маросимларида белбоғдан фойдалинади. Белбоғ – белни боғлайдиган буюм . Бу сўз Сурх. **белбɔв//белқарс;** . Қашқ. **қарс//бел қа(р)с, белбақ,қийиқ.** Нам. Уйчи шеваларида **белбоғ, чорси**; Тошкент шевасида **белбоғ**, **қайиқча**; Анд. Фар. **белвок//белвак// белвағ // чорси, қийиқ;** Бух**. рўпакча**. ф.-тож. **қар.** Нав.в. Сам. **белбɔғ, белбɔв//белқарс;** – Қиёс., ДЛТда **қуршағ –** қуршовчи, белбоғ, ўрама (1, 432); Навоийда **қур, белбоғ, пўта** сўзлари қўлланади: *Дайр пири хизматига улки дер бел боғладим, Чин дегай ул вақтким зуннор бўлғай* ***белбоғи***(“Наводируш-шабоб”, 332); турк. **кушак, куршак**; озар. **гуршаг** хак. **хур** қўмиқ. **белбоғ** қирғ. **белбоо// белшулгов**, нуғой **белбав**, қоз. **белбеу, қур** .

Инсоннинг жисмоний ривожи, куч-қуввати ҳамда саломатлиги, қолаверса, ақлий камолоти ривожланишида асосий манба бўлган таомлар, халқ турмуш маданиятининг инсоният пайдо бўлгандан буён ажралмас таркибий қисмлари ҳисобланади. Хар бир халқ жамият тараққиётининг ижтимоий-иқтисодий ҳамда маданий ривожланиш жараёнида турли-туман таомларни яратган. Шунингдек, уларни истеъмол қилиш маданиятини

шакллантирган. Бу эса ҳар бир халқнинг маънавий маданиятида ўз аксини топган. Шева вакилларининг таом тайёрлаши, пазандачилиги ўзига хос хусусиятга эга. Тадқиқ этилаётган даврда деҳқончилик билан машғул бўлган аҳоли таомларида асосан дон-дунли ҳамда сабзавотли таомлар кенг ўрин олган бўлса, чорвачилик билан шуғулланган аҳоли эса қатиқ-сут, ёғ, гўштни кўпроқ истеъмол қилган.

Шева вакилларининг таомлари ўзига хос хусусиятлари ҳамда турли-туманлиги билан ажралиб турган. Таом тайёрлашдаги урф-одат, удум, анъаналар асрлар оша авлоддан-авлодларга мерос бўлиб ўтади.

Ўзбек **тили** лексикасида бу қатламни ўрганиш бўйича Н.М.Икромованинг "Ўзбек таомлари лексикаси" номли тадқиқотини келтириш мумкин.[4] Ўзбек таомларининг номлари, тайёрланишида ўхшаш ва фарқли таомлари мавжуд бўлиб, бу ҳудудий тарқалиши билан ҳам боғлиқ. Ўзбек халқининг миллий таомларидан бири палов ҳар бир оиланинг севимли таомларидан бўлиб, барча маросимларда тайёрланади. Тайёрланиш жараёни ўхшаш ва турли хил бўлиб, номланиши ҳудудлараро фарқланади. Масалан: Сурх.**аброған** – палов тайёрлашда қозонга гуруч солгунгача бўлган ҳолат (ёғда қовурилган гўшт ва пиёзнинг устига сув солгандан кейин сабзиси бостирилиб (сабзи қовурилмайди), ҳаммаси биргаликда қайнатилади). Сол., ф.-тож.: обу равған – сув ва ёғ. Бошқа кўпгина ҳудудларда бу жараён **Эш тэгъ** дейилади. Бу жараёнда гўшт, пиёз, сабзи қовурилади, кейин сув солинади.

Ўзбек халқининг қадимий таомларидан бири **увмәч//умЭчЭш** кўпгина ҳудудларда тайёрланади. **увмәч//умЭчЭш** – унга сув сепиб қўлда секин-секин ишқаланади ва ҳар бири гуручдай, нўхатдай, ловиядай думалоқчалар ҳосил бўлади ва у қайнаб турган сутга солиб пиширилади. Пишгандан кейин устига зиғир ёғ ёки қуйруқ ёғ, озроқ зира солиб аралаштириб 10 минут қўйилади

[4] Икрамова Н.М.Узбекская кулинарная лексика:Автореф.дис. ...канд.филол.наук.-Ташкент,1983.19 с.

кейин ейилади. Қорақалпоғистоннинг Беруний ва Тўрткўл туманларида **овмач –** угра ош. Сурх. **увмәч//умɔчɔш** каби номлари учрайди. Нав.в., Сам. ҳудудларида ҳам бу таом тайёрланиб, **умɔчɔш** номи билан ифодаланади.

Кўпгина ҳудудларда оилада чақалоқ туғилгандан кейин пишириладиган таомлардан бири **әтәлә** пиширилади. У деярли бир хил тарзда тайёрланади. Нав.в.ш., Бух., Сам. **әтәлә-** куйдирилган қаймоққа ун солиб қовурилади. Ун қип-қизил бўлгандан кейин оз-оздан сув солиб пиширилади. Сурх .**әтәлә//буламақ.**

Тўй маросимларига боришда қозон патирлар пиширилади. Улар ҳудудларда турли хил тарзда тайёрланади. Тайёрланган хамирни қат-қат патирга ўхшатиб ёяди, кейин ичига мой суртиб кўк пиёзни майда тўғраб сепади, худди қат-қат патирга ўхшатиб ўралиб майда кесилади. Кесилган хамирлар юпқадай ёйилиб пиширилади. Пиширилган юпқалар алоҳида-алоҳида қўйилади. Бу таом Самарқанд, Навоий вилоятларида тайёрланган хамирни қат-қат патирга ўхшатиб ёяди, кейин ичига мой суртиб қозонда пиширилади. Сурх:**чәвәти –** қозон патир.

Ўзбек халқи таомларининг ўзига хослиги билан ажралиб туради. Шунинг учун ҳам унга боғлиқ урф-одатлари бор. И.Жабборов таъкидлаганларидек, ўзбек халқининг одатига кўра хонадонига келган ҳар қандай киши бир пиёла чойга таклиф қилинади. Бу удумнинг анча кучли эканлигини тасдиқловчи тасаввурларга биноан махсус ибора –"кўз ҳақи" ҳозиргача сақланиб, унинг рисқини бериш зарур бўлган. Бу одатга кўра, кимнинг кўз олдида нон ёпилса ёки овқат тайёрланса, шу киши ўзининг "кўз ҳақи"га эга бўлиши мумкин деб ҳисобланган. Шунинг учун ҳам уйда, айниқса байрам ва ҳайит пайтларида ширин таомлар пиширилса, қариндош ва яқин қўшниларга бир коса сузиб чиқариш одати ҳозиргача кўп жойларда сақланган. Мазкур урф-одат ва иримларнинг кўпчилиги миллий анъанага

айланиб, уларга амал қилиш ҳозир ҳам шарт ҳисобланади.[5] Албатта, ҳар бир халқнинг ўзига хос урф-одатлари, маросимлари, ўзига хос турмуш тарзи мавжуд бўлиб, улар шу билан улуғланади.

ПОЭЗИЯ, ЖИВУЩАЯ В ВЕКАХ

Машарипова Ш.Р. – старший преподаватель
НЦОПНМ Хорезмской области

Узбекская литература - бессмертное создание творческого гения узбекского народа, художественная история его жизни, ярчайшее воплощение его свободолюбивых стремлений и чаяний, любви к родине. Под «узбекской литературой» мы понимаем литературу узбекского народа, написанную, в первую очередь, на узбекском языке. Как и любая литература, она становится неотъемлемо важным источником формирования духовно богатой, гармонически развитой личности с высокими нравственными идеалами и эстетическими потребностями. Именно литература призвана развивать и укреплять в школьниках такие духовно-нравственные ценности, как доброта, честность, справедливость, гуманизм, сострадание, дружба, самоотверженность и патриотизм. Она необходима для развития художественной культуры, речи, творческих способностей, совершенствованию личности. Все это будет являться прочнейшей гарантией нашего прогресса единства со всем человечеством.

Во всех учебных заведениях особое внимание уделяется изучению творческого наследия основоположника узбекского литературного языка Алишера Навои.

Биография Алишера Навои, этого талантливейшего поэта и выдающегося мыслителя своей эпохи, издавна привлекала внимание многих историков-востоковедов и литературоведов. Ее исследованию посвящены целые труды, а на Родине поэта даже была создана школа навоиведения. Но актуальность изучения данной темы с течением времени не уменьшается,

[5] И.Жабборов.Ўзбек халқининг этнографияси.Тошкент.1994.177 -бет.

поскольку, наверное, стоило бы посвятить тома анализу каждого произведения этого автора, чья поэтика чрезвычайно интересна и разнообразна по приемам, а взгляды - необычайно прогрессивны для представителя средневековой восточной цивилизации.

Литературное наследие Навои огромно и разнообразно: лирические стихи, поэмы, прозаические произведения, научные трактаты. Значительное место в его творчестве принадлежит лирике.

Основным лирическим жанром у Навои является газель. В одной только «Сокровищнице мыслей» их около 2500. Газель - лирическое стихотворение, состоящее из 5-11 бейтов, то есть стихов. Каждый бейт слагается из двух полустиший и в рукописных сборниках составляет одну строку, разбитую на две части. В современных книгах бейт принято разбивать на две строки. Все бейты одной газели связываются единой рифмой, а в первом бейте рифмуются и полустишия. В последнем бейте обязательно упоминается поэтический псевдоним автора - так называемый тахаллус. Иногда в составе рифмы имеется редиф - слово, повторяющееся в каждом бейте вслед за рифмой, например:

Забыть решила ты меня навеки,
Презреньем за любовь казня навеки.

Многие газели Навои содержат смелые и красивые образы. Высокая поэтичность и свежесть образов в газелях Навои удивительна, если иметь в виду, что не только форма, но и образы газели строго регламентировались традицией. Этим и объясняется тот факт, что в газелях Навои имеются и образы, идущие от поэтической традиции: влюбленный соловей тоскует по красавице розе, нежный мотылек летит к свече, опаляющей его крылья, - так сжигает влюбленного пламя страстного чувства; сердце и душа любящего срав ниваются с выжженной пустыней или степью и т. п.

В газелях часто встречаются образы, почерпнутые из народного творчества, из легенд и преданий. Здесь мы видим каменотёса Фархада,

пробивающегося сквозь толщу гор к красавице Ширин, безумного Меджнуна, мечущегося в пустыне и погибающего от любви к Лейли. Отдельные строчки газелей посвящены мифическому царю Джемшиду - обладателю волшебной чаши, отражающей весь мир, Искандеру (Александру Македонскому) и его «зерцалу», пророку Хызру, наделенному бессмертием, Ною, Сулейману, Юсуфу и Зулейхе и т. д.

Значительное место в газелях занимают образы, связанные с темой вина и веселья. Разумеется, это не реалисти ческое изображение настоящего винопития, а дань традиции, совокупность условных образов, привычных дли любителей поэзии того времени.

Заслуга Навои не только в том, что он с блеском доказал неограниченные возможности узбекского поэтического творчества и создал «на языке тюрки» гениальные произведения, но и в том, что он выразил передовые, гуманистические идеи своего времени во всей их сложности, противоречивости, во всем переплетении великих прозрений и заблуждений, безудержного прославления жизни во всех ее проявлениях и печального скепсиса, прекраснодушных мечтаний и трезвого взгляда на жизнь.

Литература:

1. История узбекской литературы. В 2-х томах. Т.1.(С древнейших времен до 16 в.) – Т., 1987.
2. Навои А. Стихотворения и поэмы. – Л. Советский писатель, 1983.

ТВОРЧЕСКОЕ НАСЛЕДИЕ АЛИШЕРА НАВОИ

Раимкулова И.А. – старший преподаватель НЦОПНМ Самаркандской области

Бесценное творческое наследие Алишера Навои играет важную роль в росте духовности народа, особенно молодежи, в воспитании юношей и девушек гармонично развитыми людьми, в том, чтобы они стремились к благородным идеалам. В Узбекистане уделяется большое внимание вопросам изучения и издания произведений великого поэта, на которых постигаются уроки гуманизма и любви к жизни и Родине.

Алишер Навои был первым выдающимся представителем узбекской литературы, открывшим читателю красочный, необычайно образный мир своего народа. Этот мир был запечатлен в немалом наследии поэта и мыслителя – почти 30 поэтических сборниках, крупных поэмах, прозе, научных трактатах.

Алишер Навои - автор биографических и исторических книг: «Пятерица смятенных» (1492) посвящена Джами; антология «Собрание утончённых» (1491-1492) содержит краткие характеристики писателей - современников Навои; «История иранских царей» и «История пророков и мудрецов», содержит сведения о легендарных и исторических деятелях Востока, о зороастрийской и коранической мифологии.

Непосредственным толчком к созданию «Пятерицы» послужили беседы Навои с его учителем и наставником, поэтом Абдуррахманом Джами, автором такого же цикла поэм. Джами к этому времени тоже задумал создать новый эпический цикл. Ободренный творческим примером и дружеской поддержкой Джами, Навои приступает к созданию «Пятерицы» и за три года заканчивает все пять поэм. Творчество Навои проникнуто жгучей ненавистью к тиранам и поработителям народа. В «Смятении праведных» поэт без всяких аллегорий гневно разоблачает тиранию правителей:

Кто к наслаждениям избрал насилья путь,

Тот проклят и презрен навеки в мире будь!

Проклятья, ненависть в народе тот найдет,

В ком угнетателя себе народ найдет.

На закате жизни Алишер Навои пишет аллегорическую поэму «Язык птиц» («Парламент птиц» или «Симург») (1499) и философско-аллегорический трактат «Возлюбленный сердец» (1500), посвящённый наилучшему устройству общества. В книге обнаруживается влияние сочинений Юсуфа Баласагуни и «Гулистана» Саади. В книге осуждаются жестокие, невежественные и аморальные правители и утверждается идея централизации власти в руках справедливого просвещённого правителя.

В конце 1499 года Алишер Навои создает поэму «Язык птиц». Какие только страдания не перенес ее герой, но остался верен своему чувству. В конце произведения поэт признается, что любил не меньше, и обещает написать поэму о своей любви. «Тот, кто ее прочтет внимательно, поймет, что мои слова чистая правда», - пишет он. Через год поэта не стало.

Много грусти, переживаний, связанных с собственной судьбой, в газелях Навои. Тем не менее он возвеличивает любовь, утверждая, что без нее нет счастья. «Каждый человек, если он осчастливлен тем, что может любить, должен дорожить этим», - пишет поэт. В этих лирических строках каждый находит то, что понятно и близко только ему.

Всю свою жизнь Алишер Навои комбинировал литературные деяния с политическими. Будучи человеком высокого положения, он внес значительный вклад в усовершенствование социально-экономической жизни страны; покровительствование науки, искусства, и литературы; всегда пытался установить мир и гармонию.

Творческое наследие Алишера Навои воссоздает колоссальную фигуру великого поэта и мыслителя, жившего и создававшего свои произведения в эпоху безграничного господства средневекового мракобесия, деспотизма и фанатизма. Трудным и мучительным был жизненный путь передового

человека и великого художника в этих условиях. Взгляды Навои со всей сложностью отражают жестокое борение в нем тех начал, которые делали его сыном своего века, и гуманистических идей, возвышавших его над современниками. Гнев социальных обличений, пафос протеста против реакции и мрака невежества перемежаются у Навои с настроениями пассивного приятия действительности, с духом смирения перед лицом темных сил того времени.

Литература:

1. История узбекской литературы. В 2-х томах. Т.1.(С древнейших времен до 16 в.) – Т., 1987.
2. Навои А. Стихотворения и поэмы. – Л. Советский писатель, 1983.

А**ЛИШЕР НАВОИ - ВЫДАЮЩИЙ ПРЕДСТАВИТЕЛЬ УЗБЕКСКОЙ ЛИТЕРАТУРЫ**

Аннаева Л. – преподаватель НЦОПНМ Кашкадарьинской области

Аннотация: Мазкур мақолада Узбекистон Республикаси мустақилликка эришганидан сўнг адабиётига бўлган эътиборга. Жумладан, ўзбек адабиёти намоёндаси буюк мутафаккир олим, давлат арбоби, шоир Алишер Навои ҳаёти ва ижодини таълими рус тилида олиб бориладиган умумтаълим мактабларида ўрганилишига, унинг асарларидан ёшлар онгига умубашарий қадриятлар: меҳрибонлик, поклик, ҳақиқатпарастлик, дустлик, одамийлик ва ватанпарварлик ҳислатларини сингдириши ҳақида ёритилган.

Аннотация: Данная статья посвящается вопросам внимания изучению литературы после приобретения Республикой Узбекистан независимости. В частности изучению жизни и творчества выдающегося ученого, государственного деятеля, поэта Алишера Навои в школах с русским языком обучения, доведению до сознания учащихся таких качеств, как духовно-нравственные ценности, доброта, честность, справедливость, гуманизм, сострадание, дружба, самоотверженность и патриотизм.

Abstract: Given article is denoted questions of attention to study of the literature after aquisition by Republic Uzbekistan independence. In particular study to lifes and creative activity prominent scientist, statesman, poet Alishera Navoi in school with russian language of the education, доведению before consciousness учащихся such quality, as spiritual-moral value, kindness, probity, fairness, humanism, compassion, friendship, selflessness and patriotism.

Проблемы воспитания духовности, человечности сегодня, в начале XXI в., выдвигаются как самые жизненно важные факторы, определяющие будущее общества, народа. Духовное наследие народов наиболее ярко и глубоко отражается в словесном искусстве, художественной литературе. Но, к сожалению, современное подрастающее поколение мало интересуется литературой, и это отражается на духовном, нравственном и интеллектуальном состоянии общества.

Как подчеркивает известный исследователь проблемы теории чтения Т.Д.Полозова, отчуждению детей и молодежи от чтения способствует ряд причин. Важнейшей из них признается «пренебрежение воспитанием в гуманистической традиции отечественной народной педагогики», в которой во главу угла всегда ставилось чтение.

Произведения узбекской литературы заняли достойное место в изучении литературы в общих средних образовательных школах с русским языком обучения и вызывают большой интерес у учащихся. Но возникают вопрос методике преподавания узбекской литературы, так как она немного отличается своими характерными особенностями от русской литературы. Поэтому на сегодняшний день продолжает оставаться актуальной проблема - разработки методики преподавания узбекской литературы в общей средней образовательной школе с русским языком обучения. Особое внимание уделяется изучению творческого наследия основоположника узбекского литературного языка Алишера Навои.

Великий узбекский поэт Алишер Навои - гуманист, мыслитель, основатель узбекской классической литературы и узбекского литературного языка, ученый, художник, музыкант, государственный деятель, оставивший потомкам богатое литературное наследие. Его имя является символом прогресса своей эпохи для народов всего мира. Алишер Навои писал стихи, поэмы, прозаические произведения, научные трактаты, всесторонне раскрывающие духовную жизнь Средней Азии XV в. Он писал на языках тюрки и фарси.

Алишер Навои был первым выдающимся представителем узбекской литературы, открывшим читателю красочный, необычайно образный мир своего народа. Этот мир был запечатлен в немалом наследии поэта и мыслителя - почти 30 поэтических сборниках, крупных поэмах, прозе

ПЕРЕЧИТЫВАЯ ГЕНИАЛЬНЫЕ ТВОРЕНИЯ АЛИШЕРА НАВОИ

Хамидова Г.Ю.
старший преподаватель НЦОПНМ Бухарской области

Аннотация: Мазкур мақолада умумтаълим мактаблари, лицей, колледж ва олий таълим муассасаларида ўзбек адабиётини ўрганилиши борасида, жумладан буюк мутафаккир олим, давлат арбоби, шоир Алишер Навои ҳаёти ва ижодини ўрганилиши, унинг асарларидан ёшларни тарбиялашда умубашарий қадриятлар, меҳрибонлик, поклик, ҳақиқатпарастлик, дустлик, одамийлик ва ватанпарварлик ҳислатларини сингдиришда тутган ўрни ҳақида ёритилган.

Аннотация: В данной статье освещается изучению узбекской литературы в общеобразовательных школах, лицеях, колледжах и в высших учебных заведениях республики. В частности, изучению творческого наследия основоположника узбекского литературного языка Алишера Навои. С помощью его произведений доведению до сознания учащихся таких качеств, как духовно-нравственные ценности, доброта, честность,

справедливость, гуманизм, сострадание, дружба, самоотверженность и патриотизм.

Abstract: In given article is illuminated study of the uzbek literature in general school, lycee, college and in high educational institutions of the republic. In particular, study of the creative heritage of the founder of the uzbek literary language Alishera Navoi. By means of his(its) product доведению before consciousness учащихся such quality, as spiritual-moral value, kindness, probity, fairness, humanism, compassion, friendship, selflessness and patriotism.

Образование является одним из основных средств утверждения более глубокой и гармоничной формы развития человечества, которая позволяет бороться с нищетой, отчуждением, неграмотностью, угнетением и войной.

Путь к национальному возрождению проходит через высокую образованность, высокую культуру.

В нашем мире сильно изменились приоритеты - самым важным стала работа с информацией. Это делает актуальной задачу изменения образовательной системы. Очевидно, что образование, целью которого является передача молодому поколению фактических знаний и стандартных алгоритмов, в условиях доступности любой информации становится отсталым. Общее образование на сегодняшний день обслуживает, в основном, приобщение растущего человека к знаниевой культуре и весьма слабо ориентировано на жизненное и профессиональное самоопределение растущей личности.

Задача современного учителя, по мнению С.С.Аверинцева - «не только и не столько учить, и разъяснять, сколько показывать и внушать». Особое значение имеет формирование нового типа взаимоотношений между учителем и учеником, подготовка к творческому поиску, к самостоятельности суждений.

Новое содержание образования связано с поисками новых методов преподавания, новых подходов к содержанию и структуре урока литературы.

Национальная литература отличается от литературы других народов, во-первых, своими традициями, национальными чертами героев, своеобразностью изображаемой жизни.

Узбекская литература - животворный памятник исторического прошлого народа. На ее страницах, в созданных ею образах запечатлелось духовное развитие общества на протяжении столетий, воплощен национальный характер узбекского народа. Невозможно знать отечественную историю без глубокого изучения узбекской литературы.

Как и любая литература, она становится неотъемлемо важным источником формирования духовно богатой, гармонически развитой личности с высокими нравственными идеалами и эстетическими потребностями. Именно литература призвана развивать и укреплять в школьниках такие духовно-нравственные ценности, как доброта, честность, справедливость, гуманизм, сострадание, дружба, самоотверженность и патриотизм. Она необходима для развития художественной культуры, речи, творческих способностей, совершенствованию личности. Все это будет являться прочнейшей гарантией нашего прогресса единства со всем человечеством.

Однако о какой бы стороне преподавания литературы мы не говорили (содержании, приемах, методах и т.д.), мы никогда не должны забывать учащихся. Все теоретические соображения: чему надо учить, как и с какой целью это надо делать, имеют смысл, если учащиеся проявляют интерес к занятиям, если излагаемые сведения понятны учащимся и способствуют их развитию. Следовательно, методика должна опираться не только на задачу обучения и воспитания, но и на психологию школьников - т.е. должна быть двуединость процесса. Новая парадигма образования характеризуется тем, что в центре внимания учителя-словесника находятся интересы учащихся.

Общеизвестно, что даже в спокойные времена литература - это явление, которое динамично меняется. Не является исключением и узбекская литература. На протяжении последних десятилетий узбекская литература была и остается предметом изучения в школах, лицеях, колледжах и высших учебных заведениях республики.

Произведения узбекской литературы заняли достойное место в изучении литературы в общих средних образовательных школах с русским языком обучения и вызывают большой интерес у учащихся. Особое внимание уделяется изучению творческого наследия основоположника узбекского литературного языка Алишера Навои. Перечитывая гениальные творения Навои, понимаешь, что они трогают душу, волнуют сердце, актуальны во все времена. Поэт близок нам за самозабвенно воспетую любовь, нежность, возвышенные и прекрасные человеческие чувства, идеи гуманизма, межнациональной дружбы и мира.

Это остро ощущают и наши современники, чья трудовая деятельность связана с культурой и искусством. Произведения поэта, его образ служат для них источником не только восхищения, но и вдохновения.

Высказывание великого поэта и мыслителя Алишера Навои: «Если ты человек, то не называй человеком того, кто не заботится о судьбе своего народа». Наполненное глубоким смыслом: жить заботами людей - самый важный критерий человечности, оно не потеряло своей актуальности и в наши дни. Взятые как ориентир, эти бессмертные слова сегодня полностью созвучны с нынешней нашей жизнью, где забота о человеке является высшей ценностью.

Преклоняясь перед светлым гением Навои, мы чтим его как великого поэта-просветителя, мудрого государственного деятеля, дипломата, гуманиста, посвятившего жизнь служению справедливости и добру. Он по праву был и остается духовным светочем узбекского народа. Он - наш великий предок, наша гордость и слава.

Литература

1. История узбекской литературы. В 2-х томах. Т.1. (С древнейших времен до XVI в.) - Т., 1987.
2. Дейч А., Пеньковский Л. Алишер Навои. Избранные произведения. - Л.: Советский писатель, 1948.

NAVOIY ASARLARINING FARZANDLAR TARBIYASIDAGI BETAKROR O‘RNI

G‘oibova Dilnavoz Jamilovna
Navoiy viloyat Karmana tumani 22- maktab ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi
G‘oibova Nafisa Dilmurodovna
Navoiy viloyat Karmana tuman 29-maktab ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi

Annotatsiya: Maqola Alisher Navoiyning nasriy va nazmiy yo‘nalishda yozgan har bir asari yoshlarimiz tarbiyasi, ularning har tomonlama yetuk va komil insonlar bo‘lib yetishishlari uchun muhim vosita ekanligi haqida yozilgan.

Kalit so‘zlar: an’ana, ijod, tafakkur, doston, obraz, adabiyot, qadriyat.

Har qaysi millatning ma’naviyatini uning urf-odatlari, an’analari, hayotiy qadriyatlaridan ayri holda tasavvur etib bo‘lmaydi. Ma’naviy meros eng muhim omillardan biri bo‘lib xizmat qiladi. Har bir xalq adabiyotini eng yuksak cho‘qqilarga yuksaltiradigan daho ijodkorlar bo‘ladi. Ularning ijodiyoti qancha vaqt, zamon o‘tmasin, hech qachon eskirmaydi va millatni ruhlantiradigan g‘oyaviy-badiiy qimmatini yo‘qotmaydi. Alisher Navoiy xuddi shunday buyuk ijodkorlardan hisoblanadi. Mamlakatimizning Birinchi Prezidenti Islom Karimov ta’kidlaganidek: “Alisher Navoiy xalqimizning ong va tafakkuri, badiiy madaniyati tarixida butun bir davrni tashkil etadigan buyuk shaxs, milliy adabiyotimizning tengsiz namoyandasi, millatimizning g‘ururi, sha’n-u sharafini dunyoga tarannum qilgan o‘lmas so‘z san’atkoridir”.

Mutafakkir shoir ijodiyotini o‘rganish bevosita millat tarixi, madaniyati, badiiy zavqi, ruhoniyati va urf-odatlarini chuqurroq bilishga keng yo‘l ochadi. Navoiy asarlarida ijtimoiy adolat, tenglik va shaxs erki masalasi alohida yuksak mahorat bilan ochib berilgan. Adolat g‘oyasi faqatgina shohlarga nisbatan emas, balki butun jamiyatning ma’naviy va siyosiy holatlariga nisbatan ham ifodalanadi. Navoiy ijtimoiy tenglikni targ‘ib etar ekan, yer yuzidagi xalqlar o‘rtasidagi do‘stlikni mustahkamlash masalasiga katta ahamiyat beradi, urushga qarshi turib, shaxs erki daxlsizligini uqtiradi. Navoiy asarlarida davrning xilma-xil muammolarini yechish yo‘llari rangbarang va benihoyat boy obrazlar orqali badiiy ifodalangan bo‘lib, ularda shoirning odam haqidagi ideali, ma’naviy-axloqiy konsepsiyasi o‘z aksini topadi. Alisher Navoiy o‘z asarlarida inson yaralmishlar ichra eng aziz xilqat ekanligi, unga yaratgan tomonidan benazir aql-u hush, nutq va farosat, bilim, tajriba, qalb-u his baxsh etilganligini, u o‘zining tafakkur va nutq qobiliyati bilan boshqa mavjudotlardan yuqori turishi va bu ayni vaqtda unga mukarramlig-u sharaf bag‘ishlashini, yer yuzini obod qilish va uni boshqarib turishi uchun unga kuch-qudrat hadya etilganligini ta’kidlaydi va har bir inson ilm va hunar egallashni shior qilib, umrini besamar o‘tkazmasligi kerakligini ta’kidlaydi.

Shu bilan birga asarlaridagi obrazlar tavsifida insonni yanada yuksak pog‘onaga ko‘taradigan go‘zal axloqiy fazilatlar: qalbiy oliyjanoblik, saxovat va do‘stlik, vatanparvarlik va mehnatsevarlik kabi axloqiy sifatlarni oliy darajada tasvirlab, har bir inson o‘zi va o‘zgalar hayotida yaxshilik bilan iz qoldirishiga da’vat etadi:

Bu gulshan ichra yo‘qtur baqo guliga sabot,
Ajab saodat erur, yaxshilik bila chiqsa ot.

“Xamsa” dostonida do‘stlik, atrof-muhitni muhofaza qilish va mehnat ham o‘ziga xos tarzda tarannum etilgan. Haqiqiy do‘stlikning oliy namunalari Shopur, Navfal, Farrux va Axiy kabi obrazlarda namoyon bo‘ladi. Ular kamtar, sadoqatli do‘st bo‘lib, kim bilan do‘st tutinsalar, uning kimligi, ya’ni millat va e’tiqodi,

mansab va boyligidan qat'iy nazar oxirigacha unga sodiq qoladigan do‘slar timsolidir. "Farhod va Shirin" dostonida axloqiy qadriyatlar: poklik, hayo, vafo, saxovat, halollik ham o‘z ifodasini topgan.

Demon, ham ko‘ngli poku ham ko‘zi pok,
Tili poku so‘zi poku o‘zi pok.

Mutafakkir asarlarida yuksak nafosat bilan kuylangan umuminsoniy fazilatlar bugungi kunda ham alohida ahamiyat kasb etadi. Ulug‘ mutafakkir asarlari nafaqat zamondoshlarimizga, balki keyin keladigan avlodlarga ham hayotdan, yashash ilmidan, umuminsoniy qadriyartlardan saboq beradi. Navoiy asarlari bugungi kunda yoshlarni milliy istiqlol g‘oyalariga sadoqat ruhida tarbiyalashga, ularda vatanparvarlik, insonparvarlik, xalqparvarlik, burchga sadoqat, mehr-muhabbat tuyg‘ularini kamol toptirishga, yosh avlod qalbida Vatanga bo‘lgan muhabbat hissini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Imomnazarov M., Eshmuhammedova M. Milliy ma'naviyatimiz asoslari. T.: 2012-yil
2. Yo‘ldoshev Q. Adabiyot o‘qitishning ilmiy-nazariy asoslari. T.: 1996.
3. Komilov N. Tasavvuf va badiiy ijod. "Yoshlik" jurnali

ALISHER NAVOIYNING O‘ZBEK ADABIY TILINI RIVOJLANISHIDAGI O‘RNI

Sevara Tursunova Alimovna,
Navoiy viloyat Nurota tuman 48-maktab
ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi

Alisher Navoiy o‘zbek adabiy tilini rivojlantirish, bu tilda go‘zal asarlar yaratish, o‘zbek tilini yuqori mavqega ko‘tarish, uni mamlakat va xalq manfaatlariga xizmat qildirishni orzu qiladi. U turkiy tilini kamsitgan, bu tilda yaxshi asarlar yozish mumkin emas, turkiy tilga bee'tibor bo‘lgan kishilarga munosib javob bera oladi. O‘zbek adabiy tilini boyitdi, ravnaq toptirdi. Abdurahmon Jomiy Navoiyning bu xizmatini alohida ta'kidlagan edi. Jomiyning

ta'kidicha, taraqqiyotdan, e'tibordan chetda qolgan o'zbek tiliga Navoiy qaytadan jon beradi, uni yana keng yoyilishiga erishadi. Ya'ni "Bu qalamga falakdin ofarinlar yog'ulsin, chunki bu chiroyli naqshlarni o'sha qalam yaratdi, Navoiy forsiyda asar bitg'uchilarga rahm-shafqat qildi va ko'plab asarlarini turkiyda bitdi. Agar asarlarini forsiyda bitganda edi, boshqa shoirlarning ijod qilmoqqa majoli qolmasdi"- deydi Jomiy.

Navoiy ko'pchilik asarlarini o'zbek tilida yozadi. Uning keng imkoniyatlarini ko'rsatib beradi. O'zbek yozuvchilariga o'z ona tilida ijod etish vazifasini qo'yadi. Navoiy fors-tojik tiliga ham yaxshi munosabatda bo'ladi.

Buyuk mutafakkir shoir, olim, musiqachi, rassom va davlat arbobi, o'zbek adabiy tilining asoschisi, Bobur ta'biricha, "Tili Andijon shevasi bilan rost" bo'lgan Alisher Navoiyning "Majolis un-nafois" asari orqali biz XV asrda yashab ijod qilgan ko'plab ijod ahli sanalmish shoir va yozuvchilarning hayoti va ijodidan xabardor bo'lamiz.

Navoiy o'ziga ustoz deb bilgan Nizomiy Ganjaviy, Abdurahmon Jomiy, Xusrav Dehlaviylar bitgan "Xamsa" dostonlariga munosib javob berdi. Kamol Xo'jandiy, Hofiz Sheroziy, Sa'diy Sheroziy, Amir Xusrav Dehlaviy, Abdurahmon Jomiylar g'azallariga tatabbu'lar bitdi. Navoiy "Majolis un-nafois" asarining debochasida shunday yozadi:

Yuz hamd angakim yasab jahon bo'stoni,
Aylab yuzu zulfidin gulu rayhoni.
Qildi yasog'och bu bog'i ruhafzoni
Nazm ahlin aning bulbuli hush ilhoni.

Ushbu misralardan ko'rinib turibdiki, Navoiy ustozlarining ijodini beqiyos mehr, yuksak sadoqat bilan o'rgangan. Masalan, Farididdin Attorning "Mantiq ut-tayr" (qush nutqi) asari esa, unga umrbod yo'ldosh bo'ldi. Uning bosh g'oyasi Navoiy ma'naviy hayotining mag'zini tashkil etdi.

Bu "Guliston" yanglig'u ul "Bo'ston.
Menga ul holatda ta'b'i bulhavas,

"Mantiqut-tayr" aylab erdi multamas,
Topti sokin-sokin ul takroridin

Asar qushlarning suhbatga to'planishidan va adolatli podshohni izlash qarori bilan boshlanadi. Alisher Navoiy asarlarida afsonaviy va real qushlar obrazi ham ko'p uchraydi. Qaqnus, Samandar, Xumo, Anqo singari afsonaviy qushlar, bulbul, to'ti, laylak, boyqush singari qushlar nomi shular jumlasidandir. Masalan, "Lison ut-tayr" da bulbul, to'ti ornitonimlari ketma-ket kelib, tanosub san'atini vujudga keltirgan:

O'yla qushlar nutqini izhor etay,
Bulbul, to'ti kibi guftor etay.

Ma'lumki, Alisher Navoiy "Lison ut-tayr" asarida qushlar orqali shoir inson fe'l-atvori, xarakteri, uning ichki kechinmalariga, shoir bir qush bilan hudhud o'rtasida bo'lib o'tgan savol-javobni obrazli bayon qilishda intoq san'atidan foydalangan. Bu o'rinda qo'llangan hudhud ornitonimi arabcha so'z bo'lib, sassiqpopishak ma'nosini anglatadi. Bu qushning qanotlari turfa rangda bo'ladi. "Lison ut-tayr" asari boshdan oyoq ana shu intoq san'ati zamiriga qurilgan bo'lib, bu badiiy san'atning lisoniy-uslubiy talqini asarda ornitonimlar asosida amalga oshirilgan. Aslida so'zlatish, gapirtirish ma'nosidagi intoq san'ati badiiy asarda hayvonlar va jonsiz narsalarni odamlarga o'xshatib so'zlatishni ham nazarda tutadi. Alisher Navoiy "Lison ut-tayr" dostonida asarning badiiyligini oshirish maqsadida kalog', zog', to'ti, bulbul, qumri, so'ng'ur, yurtachi kabi ornitonimlarni uyushiq bo'laklar sifatida qo'llab ta'did san'atini hosil qilgan. Negaki, "shoir tasvirdan sanash ohangida uyushiq bo'laklarga mansub so'zlardan ikki yoki undan ortig'ini ishlatsa, ta'did san'ati vujudga kelgan bo'ladi".

Alisher Navoiy asarlarida ornitonimlar yordamida bir bayt yoki parchaning o'zida ikki va undan ortiq she'riy san'atlar hosil qilingan o'rinlar ham mavjud. Masalan, "Lison ut-tayr" dostonining XIV bobidan olingan quyidagi baytda to'ti, kalog' (ola qarg'a), bulbul, qumri, zog' ornitonimlari qator kelib, tanosub san'atini; to'ti, bulbul ornitonimlari uyushib kelib, ta'did san'atini vujudga keltirgan.

Shuningdek, bu baytda zog‘ ornitonimi bilan yonma-yon grammatik vositasini qo‘llash orqali tashbih san’ati ham hosil qilingan:

Yuqori o‘lturdi to‘tidin kalog‘,
Bulbul qumridin ul yanglig‘ki zog‘
Sodda ko‘nglum bahra ul guftoridan.

Biz “Lisonut-tayr” dostonidan Alisher Navoiyni qanday diniy va dunyoviy masalalar band etgani bilan tanishamiz: inson olamga kelar ekan, hamisha talab yo‘liga kirishi, izlanishi, o‘rganishi lozimligi haqida to‘g‘ri bilim hosil qilishi-ma’rifatli bo‘lishi kerakligi, kamolotga yetish zarurati kabi muhim masalalar bizni chuqur o‘yga toldiradi. Navoiy falsafiy, axloqiy, ma’naviy dunyosidan xabardorlikning o‘ziyoq bugungi kitobxon uchun beqiyos ahamiyatga ega.

“NAVOIY HIROTDA, KOBULDA BOBUR…”

Tilavov Otabek Norpo‘latovich
Navoiy viloyati xalq ta’limi boshqarmasi boshlig‘ining
ma’naviy-ma’rifiy masalalar bo‘yicha o‘rinbosari

Insoniyat tarixida shunday ajoyib siymolar borki, ularning nomlari mangulikka muhrlangan. So‘z mulkining sultoni Hazrat Alisher Navoiy, shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Boburlar ana shunday o‘lmas siymolardan edilar. Bu buyuk insonlar tug‘ilgan yurtini, millatini o‘z mehnati, ummon qadar bepoyon va betakror ijodi, jasorati bilan dunyoga tanitdi, xalq faxriga aylandi. O‘zbek adabiyoti atalmish muhtasham qasrning ikki zabardast ustuni bo‘lmish bu zotlar ijodi bilan butun bir xalq, Vatan sharafini ko‘klarga ko‘tardi.

Alisher Navoiy o‘z ijodi bilan Movarounnahr va Xurosonning butun ma’naviy madaniyati taraqqiyotiga juda katta ta’sir ko‘rsatgan. Uning asarlari xalq orasida keng tarqalib, qayta-qayta ko‘chirilgan, shoirlar uchun maktab vazifasini o‘tagan, madrasalarda keng o‘rganilgan. Mirzo Bobur esa ma’lum va mashhur asarlari bilan tarixnavis adib, lirik shoir, davlat arbobi sifatida xalqimiz ma’naviy hayotida munosib o‘rin egallagan.

Navoiy o‘z davrida bunyodkorlik ishlariga bosh-qosh bo‘lib, mamlakatda ko‘plab madaniy-maishiy inshootlar, maktab, madrasalar, hammom, shifoxona, ariq, ko‘priklar barpo ettirgan. Uning tashabbusi bilan Hirot, Astrobod, Mashhad, Nishopur, Marv singari shaharlarda bunyod etilgan va qayta ta'mirlangan me'moriy obidalar bugungi kunda ham salobat to‘kib turibdi. Mirzo Muhammad Haydarning "Tarixi Rashidiy" risolasida ko‘rsatilishicha, "Alisherbekning har yilgi daromadi o‘n sakkiz ming "shohruhiy" dinorni tashkil etib, u bu mablag‘larning barchasini xayrli ishlar evaziga sarf qilgan". Ma'lumotlarga ko‘ra, Navoiy Hirot Jome' masjidini ta'mir etish bilan cheklanib qolmasdan, o‘zi ham shahar tashqarisida yangi Jome' masjidini qurdiradi. Bu haqida tarixchi Xondamir shunday yozadi: " shunday imoratki, uning sof va eng yaxshi maqsuralari lojuvard va tillo suvi bilan bezatilgandir..." Ulug‘ xalqparvar ushbu masjidning janubiy tomonida "Xalosiya" xonaqohi, g‘arbida "Shifoiya" shifoxonasini barpo ettirib, uning qarshisida esa "Safoiya" hammomi hamda hovuz ham qurdiradi. Bu bino nomlarining ma'nolari ramziy bo‘lib, jumladan, "Shifoiya" shifoxonasining nomi sog‘liq, shifo, "Safoiya" hammomining nomi esa ozodalik, poklik ma'nosini anglatgan. Xullas, Navoiy o‘z faoliyati davomida xalqini hamisha el-yurtni obod qilishga, mamlakatni bog‘-u bo‘stonga aylantirishga undaydi.

Boburiylar sulolasi asoschisi Zahiriddin Muhammad Bobur ham iste'dodli shoir, buyuk shoh, taniqli tarixchi, yirik davlat arbobi bo‘libgina qolmay, o‘z davrida bog‘-istirohatchilik va me'morchilik san'atining yanada ravnaq topishiga sezilarli hissa qo‘shgan ulug‘ namoyandadir. U Samarqanddan chiqib ketgach, Kobul va G‘azna viloyatlarini egallab, mustaqil davlat tuzadi. O‘z davlatining barcha joylarida obodonchilik ishlariga katta ahamiyat beradi, karvonsaroylar va hammomlar qurdiradi, sug‘orish ishlariga e'tibor berib, ekin maydonlarini kengaytiradi, ko‘plab bog‘-rog‘lar barpo etadi. Hind olimi M.Randxavaning ma'lumot berishicha, faqat Kobul shahrining o‘zida Bobur amri bilan o‘nta bog‘ reja asosida yaratiladi. Bulardan tashqari, u Kobul viloyatining obod manzilgohlaridan bir necha bog‘larni o‘z didiga moslab "tarxliq va siyoqliq" bilan

tuzdirganki, bularga Bog‘i Vafo, Bog‘i Binafsha, Bog‘i Safo hamda Bog‘i Istoliflarni misol qilish mumkin. Shoh va shoir bir qancha chashmalarni ham obod qilib, tartibga soladi. Jumladan, Pag‘mon tog‘ etaklaridagi Xoja Seyoron chashmasini ancha kengaytiradi, atroflariga tosh terdirib, supa yasattiradi, yonida cho‘milish uchun hovuz bunyod etadi. Bobur tomonidan XVI asr boshlarida asos solingan Kobuldagi xushmanzara bog‘ - “Bog‘i Bobur” hanuzgacha mavjud bo‘lib, uning yuqori sahnlarida ekkan azim chinorlar saqlanib qolgan.

Yuqoridagi fikrlardan ko‘rinadiki, Hazrat Navoiy ham, Mirzo Bobur ham o‘z davrlarida obodonchilik va yaratuvchilik ishlariga astoydil bosh-qosh bo‘lishgan.

Alisher Navoiyning tarbiya borasida bildirgan fikr-mulohazalari bugun juda dolzarbdir. U o‘z asarlarida komil insonni tarbiyalash yo‘llari, usullarini bayon etadi. Navoiy farzand tarbiyasiga katta e’tibor qaratib, murg‘ak qalb sohiblarini “hayot chirog‘i” deb ta’riflaydi. Mutafakkir shaxsga kichik yoshligidanoq bilim va tarbiya berishga, ularni tarbiyachi-muallimga olib borishga da’vat etadi. Shuningdek, shoir g‘azallaridan birida ilm olish o‘ziga, shu qatorda, barchaga “maqsud” ekanligini ta’kidlab, o‘rgangan bilimlarga amal qilishga chorlaydi:

Ilm, Navoiy, senga maqsud bil
Emdiki, ilm o‘ldi, amal aylag‘il.

Alisher Navoiy bilim olishda barcha fanlar birdek muhimligini uqtiradi. Uning fikricha, bilimlarni tinmay, uzluksiz o‘rganmoq va bu yo‘lda har qanday mushkulotlarni yengib o‘tmoq lozim. Buyuk shoir nafaqat ilm-hunar o‘rganish, balki undan o‘z o‘rnida foydalanishni ham targ‘ib qiladi. Navoiyning “shavq” dostoni qahramoni Farhod tilidan aytilgan quyidagi misralarda ana shu ezgu maqsad o‘z ifodasini topgan:

Hunarni asrabon netkumdir oxir,
Olib tufroqqamu ketgumdir oxir.

Bobur Mirzo she’riyatida esa vatan sog‘inchi va hijron iztiroblari bosh mavzudir. Vatanni unda yashab ardoqlash bilan uni yo‘qotib sevish o‘rtasida yer-u

osmoncha tafovut borligi ayon. Bobur jisman tug‘ilgan zaminidan uzilgan bo‘lsada, ruhan Vatani bilan yashab o‘tdi. Qachonlardir ona yurtiga qaytish umidi uning qalbida so‘ngan emas. Bu haqda daho shoir shunday yozadi:

Kobulda iqomat etti Bobur, dersiz,
Andoq demangizlarki, muqim ermasmen.

Ammo barcha urinishlari zoye ketgan o‘lim to‘shagida ham yurtining bir tilim qovunini qo‘msab, foniy dunyo bilan vidolashgan.

“Mutafakkirlarning mutafakkiri” bo‘lmish Navoiy she’riyat mulkining Sheri bo‘lsa, “dilbar shaxs” Bobur uning Yo‘lbarsidir. Yo‘lbars hayvonot dunyosidagi maqomi jihatidan sherdan keyingi o‘rinda turadi. Bobur ana shu tabiiy haqiqatni kichik bir urinish – taxallus tanlash bilan badiiy ijod olamiga ko‘chiradi. Bunday tantilik, adolat va jur’atga faqat tan berish mumkin. Zero, Navoiy va Bobur ijodi shunday katta ummonki, uning har qatrasida hikmat, mehr-saxovat mujassam. Adabiyotga bo‘lgan e’tibor va oshufta qalblar bor ekan, Navoiy hamda Bobur nomi hali uzoq vaqt tillarda, dillarda jarang sochaveradi, o‘lmas asarlari esa muxlislar qalbini zabt etishda davom etaveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. I.Haqqulov: “Zanjirband sher qoshida”. Toshkent-1989
2. A.Abdug‘afurov: “Buyuk beshlik saboqlari”. Toshkent – 1995
3. T. Fayziyev: “Z.M. Bobur va uning avlodlari”. Toshkent – 1996
4. R. Vohidov: “Biz bilgan va bilmagan Bobur”. Toshkent – 1999

BO‘LSUN ADAB BIRLA BORI XIDMATING…

Radjabova Komila Bahodirovna
Xalq ta’limi a’lochisi, Navoiy shahar 11-AFCHO‘IM

Odob - insonni ma’naviy kamolot sari yetaklovchi ko‘prik. Inson bu ko‘prik orqali o‘tib, el-yurt orasida hurmat-e’tibor topadi. Odob mezonlari go‘zal insoniy fazilatlar bilan yo‘g‘rilgan va uning ildizlari uzoq o‘tmishga borib taqaladi. Nazm gulshanining sultoni Alisher Navoiyning barcha asarlarida odob-axloqqa oid

fikrlar, ta'lim-tarbiyaga oid ibratomuz mulohazalarni istagancha uchratish mumkin. Chunonchi, insonparvarlik, ezgu axloq talqini Navoiy ijodida takomiliga erishdi. Mutafakkir asarlaridagi asosiy ezgu g'oyalar shundaki, inson qadr-qimmati uning mol-mulki bilan emas, balki ma'naviy qiyofasi, axloqiy sifatlari bilan o'lchanadi:

Elga sharaf bo'lmadi joh-u nasaf,
Lek sharaf keldi hayovu adab.

Shoir ma'naviy yetuklikni insonning eng go'zal jihatlaridan deb biladi va ularni o'zining odob-axloqqa oid asarlarida zavq-shavq bilan kuylaydi.

Azal-azaldan inson zoti o'z qalbidagi hissiyotlari, fikr-mulohazalarini ko'ngil sandig'ining kaliti - til va uning javohiri bo'lmish so'z bilan ifodalab keladi. Til hammada bor, albatta. Ammo uni me'yorida ishlatish, so'zlash lozim bo'lgan gapni o'z o'rnida bayon qilish odob belgisidir. Shirinso'zlik kishiga husn bag'ishlaydi. Insonning gap-so'ziga qarab, uning tarbiyasi, xulq-atvoriga baho beriladi. Insoniyat tarixida abadiyatga daxldor so'z aytilgan, so'zni qismat deb bilgan daho shoir Alisher Navoiy asarlarida so'zni sharaflash muhim masaladir. So'z qudratini chuqur anglagan shoir shunday yozadi:

So'zchi holin boqma, boq so'z holina,
Ko'rma kim der oni, ko'rgilkim ne der.

Buyuk "Xamsa" asari tarkibidagi dostonlarning har biriga so'zga bag'ishlangan maxsus boblar kiritilgan. Navoiy ularda so'zning ijtimoiy-falsafiy mohiyatini badiiy talqin etadi. Uning lirik she'rlarida ham so'z borasida qimmatli fikrlar ifodalangan. Alloma insoniyat uchun jonning gavhari ham, abadiylik baxsh etuvchi obihayot ham shu so'z ekanligini qayta-qayta takrorlaydi. Jumladan, "Hayrat ul-abror" dostonida bitilgan quyidagi satrlar aslo eskirmaydi:

Tengriki, insonni qilib ganji roz,
So'z bila hayvondin anga imtiyoz.

Darhaqiqat, insonni sirlar xazinasi qilib yaratgan Alloh unga so'zlash baxtini tuhfa etdi va bu bilan uning hayvondan afzalligini belgilab berdi.

Hazrat Navoiyning tarbiya borasida bildirgan fikrlari-mulohazalari bugun ham juda dolzarbdir. U o‘z asarlarida komil insonni tarbiyalash yo‘llari, usullarini bayon etadi. Navoiy farzand tarbiyasiga katta e'tibor qaratib, murg‘ak qalb sohiblarini "hayot chirog‘i" deb ta'riflaydi. Farzand oilaga, jamiyatga baxt-saodat keltiruvchi ziyodir. Mutafakkir shaxsga kichik yoshligidanoq bilim va tarbiya berishga, ularni tarbiyachi-muallimga olib borishga da'vat etadi. Shuningdek, shoir g‘azallaridan birida ilm olish o‘ziga, shu qatorda, barchaga "maqsud" ekanligini ta'kidlab, o‘rgangan bilimlarga amal qilishga chorlaydi:

Ilm, Navoiy, senga maqsud bil,
Emdiki, ilm o‘ldi, amal aylag‘il.

Alisher Navoiy bilim olishda barcha fanlar birdek muhimligini uqtiradi. Shu bois olim-u fozillarni to‘plab, ular orqali ilm-fanni taraqqiy ettirishga harakat qiladi. Uning fikricha, bilimlarni tinmay, uzluksiz o‘rganmoq va bu yo‘lda har qanday mushkulotlarni yengib o‘tmoq, tirishqoqlik qilmoq lozim. Buyuk alloma yoshlarga chuqur bilim berishda muallim-u mudarrislar, ustoz-murabbiylarning o‘zlari ham bilimli, tarbiyali, xalq orasida hurmatga ega bo‘lishlari zarur, deydi. U nodon, johil domlalarni tanqid ostiga oladi. O‘qitish yo‘llarini bilgan muallimlar shogirdlari yonida yuzlari yorug‘ bo‘lib, doimo hurmat-izzatda bo‘lishlarini ta'kidlaydi.

Inson kamolga yetar ekan, uning axloq-odobi va tarbiyasi uchun ota-ona ham, unga ta'lim beradigan muallim ham birdek mas'ul. Navoiy nazdida, ota-ona farzandini sog‘lom qilib o‘stirishi, go‘zal axloq egasi qilib tarbiyalashi, muallim esa ilm-u odob orqali ta'lim berishi lozim:

Qilmoq erur biri muallim talab,
Qilg‘ali ta'lim anga ilm-u adab.

So‘z mulkining sultoni "Mahbub ul-qulub" asarida ilm o‘qib, uni qo‘llamagan kishini yerni shudgorlab, dehqonchilik qilmagan yoki urug‘ sochib, hosildan baraka olmagan odamga qiyoslaydi. Bu nodir asarda qanoat, sabr, saxovat, hilm, tavba, kamtarlik va odob tushunchalari Navoiy talqinida ifoda etilgan. Unda

qanoatga shunday ajoyib ta'rif beriladi: "Qanoat bir chashmadirki, olgan bilan uning suvi qurimaydi; u bir xazinadirki, undagi boylik sochilgan bilan kamaymaydi". "Mahbub ul-qulub" asaridagi purma'no hikmatlarning ko'pchiligi bugun xalq maqollariga aylanib, mashhur bo'lgan. Jumladan, "Oz-oz o'rganib, dono bo'lur, Qatra-qatra yig'ilib, daryo bo'lur", "Bilmaganni so'rab o'rgangan-olim, Orlanib so'ramagan - o'ziga zolim", "Chin so'z - mo'tabar, Yaxshi so'z - muxtasar", "Tilga e'tiborsiz – elga e'tiborsiz" kabi hikmatlar ta'lim-tarbiya borasida juda ahamiyatlidir.

Alisher Navoiy: "Kimdaki iymonning uch belgisi bo'lsa, u haqiqiy insondir",- deydi va bu belgilar sifatida sabr, shukr va hayoni ko'rsatib o'tadi. Buyuk mudarris yolg'onchilikni qoralaydi. Yolg'on kishining obro'sini tushiradi, ishiga putur yetkazadi, undan hech qachon hech kimga naf kelmagay, deya shunday ta'riflaydi:

Kimki o'z ayladi yolg'on so'zin,
Kezib, der el, chin desa qolg'on so'zin.

Alisher Navoiy ijodi shunday katta ummonki, uning har qatrasida hikmat, mehr-saxovat mujassam. Shu bois ham Navoiyni bilmoq o'zlikni anglamoqdir. "Alisher Navoiyni anglash va his qilish o'zbek xalqining tarixini, madaniyati, qalb ehtiyojlarini, o'zligini anglash va his etish demakdir",- deganida O'zbekiston xalq shoiri Erkin Vohidov naqadar haq edi. Mutafakkir shoir turkiy tilning beqiyos jilolarini kashf etdi. U qoldirgan asarlarning qadr-qimmati asrlar o'tgan sari oshib bormoqda. Ayniqsa, bugungi yoshlarimiz so'z mulkining sultoni pand-nasihatlaridan bahramand bo'lishsa, asarlari mag'zini chaqishsa, ma'naviy kamol topishlari, shubhasiz. Bu borada biz, pedagoglar, ularga ko'makdosh bo'lishimiz zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A.Navoiy: "Hayrat ul-abror". Toshkent – 1989
2. A.Navoiy: "Mahbub ul-qulub". Toshkent – 1991
3. A.Navoiy: "G'azallar". Toshkent - 2001
4. A.Abdug'afurov: "Buyuk beshlik saboqlari ". Toshkent – 1995

ALISHER NAVOIY G‘AZALLARI UNING LINGVISTIK TAHLILI VA BADIIY XUSUSIYATLARI

Muqimova Dilfuza Shokirovna,
Samarqand viloyat Kattaqo‘rg‘on tuman 35-sonli
umumta’lim maktabi ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi

Annotatsiya: Muallif so‘z lug‘atida ishlatgan so‘zlar, iboralar ko‘lami va ma’nolarini tavsiflash va yaxshiroq tushunish uchun mutafakkir ishlatgan so‘zlarning semantik teglari bazasini yaratish muhimligi to‘g‘risidagi ilmiy mulohazalar maqoladan o‘rin olgan.

Kalit so‘zlar: izohtalab so‘z, g‘azal, devon, lug‘at, lingvistika, qiyosiy tahlil.

Navoiy ijodida she’riy san’atning deyarli barcha turlarida samarali va mohirona foydalana olgan. Masalan, ***talmeh*** she’riy san’atining juda ko‘plab nazmiy janrlarida, xususan g‘azallarda kiritilishi ham tarixiylik, ham ilmiylik, ham badiiylik kash etadi. “Badoye ul-vasat” devonida 200 ga yaqin tarixiy shaxslar, tarixiy joy nomlari haqida ham ma’lumotlar berilgan. Quyida devonda talmeh she’riy san’atining qo‘llanilishi bo‘yicha tahlillar keltirildi.

“Badoye ul-vasat” *3-g‘azal 4-bayt*

Etmasa gardi rahing ko‘hli bo‘lub **Ruhulloh**
Ojiz aylar chog‘i xuffosh amosig‘a davo.

Iso Masihning laqabi

“Badoye ul-vasat” *69-g‘azal 1-bayt*

Taxtu johing kishvari mulki **Skandar** bo‘ldi, tut,
Xizr umri ham bu mulk uzra muyassar bo‘ldi, tut

Iskandar Zulqarnayn

“Badoye ul-vasat” *69-g‘azal 2-bayt*

Buyla mulku umrdin so‘ng jinu insu vahshu tayr
Hukmu amringg‘a **Sulaymon**dek musaxxar bo‘ldi, tut.

Payg‘ambar, Dovud payg‘ambarning farzandi

Badoye ul-vasat” *69-g‘azal 2-bayt*

Muncha hashmat topmog‘ingdin so‘ngra birovni qulung
Joh ila muknatda **Qoruncha** tavongar bo‘ldi, tut.

Muso payg‘ambar zamonida yaxshgan xasis boy

“Badoye ul-vasat” *69-g‘azal 6-bayt*
Bazmi ishqing bodasin **Kavsar** deyin yo **Salsabil**,
Jomi Jam ul jonfizo sahbog‘a sog‘ar bo‘ldi, tut.

Jannatdagi hovuz nomlarilar

“Badoye ul-vasat” *33-g‘azal 1-2-bayt*
Dardi hajrimga ul ikki la’li xandondur davo
Kim, o‘lar **Iso** dami-yu obi hayvondur davo.

“Badoye ul-vasat” *290-g‘azal 8-bayt*
So‘zung nomabar qush yig‘ar aylagandek
Nabi nuktasin **Jabrail**i amin jam’.

Payg‘ambarlarga ilohiy vahiyni yetkazuvchi farishta

“Badoye ul-vasat” *452-g‘azal 5-bayt*
Tuzaldi **Nux**ning to‘fonidin so‘ng dahr-u ashkimdin
Qiyomat oshkoro bo‘ldi ul t o‘fon-u bu to‘fon

Payg‘ambar. (“Odami soniy” Ikkinchi Odam Ato deb ataladi)

Ma’lumki, so‘z badiiy tasvirning asosiy vositasi, obraz yaratishning, uni individuallashtirishning muhim omillaridan biri sanaladi. So‘zsiz, ekspressivlikni ifodalovchi fonetik, morfologik, sintaktik vositalar ishtirokisiz obyektiv borliqdagi narsa predmetlarni, hodisalarni aniq tasvirlash mumkin emas. Azal-azaldan so‘zlar vositasida ana shunday leksik-semantik guruhlar va turli xil ma’no ko‘chish yo‘llarini hosil qilishgan. Buning natijasi o‘laroq asar badiiy saviyasi oshgan va o‘z badiiy qimmatini saqlagan holda avlodlargacha yetib kelgan. Shoir lirikasi mavzu doirasining kengligi, g‘oyaviy-badiiy dunyosining boyligi, ayni paytda chuqur fikrlar silsilasining betakror ifodasini ta’min etgan yuksak badiiy fazilatlari bilan ham diqqatga sazovordir. Alisher Navoiy arab, fors va turkiy poeziyaning

boy tajribalarini o‘zlashtirib asarlarida aks ettirdi. So‘zning lingvistik va semantik xususiyatlarini keng yoritishga muvaffaq bo‘ldi.

G‘azallarda juda ko‘p uchraydigan ***“la’l”*** so‘zi badiiy tasvir vositasi sifatida qo‘llanilib, bir qarashda bir xil ma’noda kelayotgandek ko‘rinsa-da, juda ko‘p shakldoshlik xususiyatlariga ega hisoblanadi. “Badoe’ ul-vasat” dagi mavjud 650 ta g‘azal tarkibida jami ***171*** marotaba “la’l” so‘zi qatnashgan bo‘lib, juda ko‘plab shakldosh (omonim) lik xususiyatiga ega ekanligiga guvoh bo‘lamiz.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, o‘z kelajagini o‘ylagan har bir davlat jamiyat hayotidagi shaxsga taalluqli barcha ijtimoiy ta’sirlarni insonning rivojlanishi uchun, uning o‘zligini anglashi va namoyon qila olishi uchun maqsadli ravishda yo‘naltira olgan bo‘lishi kerak. Navoiy asarlarida yuksak badiyat bilan kuylangan umuminsoniy fazilatlar bugungi kunda ham alohida ahamiyat kasb etadi. Ulug‘ mutafakkir asarlari nafaqat zamondoshlarimizga, balki bizdan keyin keladigan avlodlarimizga ham hayotdan, yashash ilmidan, umuminsoniy qadriyartlardan saboq beradi. Navoiy asarlari bugungi kunda yoshlarni milliy istiqlol g‘oyalariga sadoqat ruhida tarbiyalashga, ularda vatanparvarlik, insonparvarlik, xalqparvarlik, burchga sadoqat, mehr-muhabbat tuyg‘ularini kamol toptirishga, yosh avlod qalbida Vatanga bo‘lgan muhabbat hissini oshirishga xizmat qiladi. Yoshlarimiz Navoiyni qanchalik chuqur va puxta bilsa, ma’rifat, ezgulik, komillik sirlarini shancha kengroq egallaydi. Navoiyning so‘zlari diliga o‘rnashgan odam, istasin, istamasin odamiylik sharafi va kuch-quvvatini idrok etadi. Navoiy saboqlariga amal qilgan kishi o‘z-o‘zidan xalq dard-u tashvishlarini yengillatishga bel bog‘laydi, fikrni-fikrsizlikka, ilm-ma’rifatni - nodonlikka va jaholatga qarshi qurol o‘nida ishlatadi. Navoiyni yetarli darajada bilish - adolat, diyonat va imon-e’tiqodning kuchiga ishonch demak. ona tilimizni asrab-avaylash, boyitish, undan amaliy foydalanish samaradorligini oshirish bilan birga, o‘zbek tilining zamonaviy axborot-kommunikatsiya tizimida keng qo‘llanishiga erishish kechiktirib bo‘lmaydigan, dolzarb vazifaga aylandi. Korpus lingvistikasi istiqbolli ilmiy yo‘nalishi sifatida o‘zbek tili milliy korpusini yaratish, mualliflik korpusi

tuzishning lingvistik asoslarini ishlab chiqish, lingvistik modellarni tuzish singari masalalarni zamonaviy ilmiy tamoyillar asosida tadqiq etish fanimiz oldida turgan dolzarb vazifalardan biridir.

Mamlakatimizda ta’lim tizimini isloh qilish orqali yosh avlodni har tomonlama barkamol insonlar etib voyaga yetkazish bosh vazifa sifatida qo‘yilmoqda. Ta’limning maqsadi, eng avvalo, inson ongini rivojlantirishdir. Chunki har qanday mamlakatning kelajagi, ertangi kuni uning tabiiy boyliklariga emas, balki kelajak avlodlarining saviyasiga bog‘liqdir. O‘zgarishlar davrida ta’lim tizimi ijtimoiy jarayonlardan kelib chiqqan holda shiddat bilan rivojlanishni taqozo etadi. Ta’lim orqali jamiyatda kelajakdagi vazifalarni bajarishga qodir bo‘lgan yangi avlod shakllantirilganligi bois ham ta’lim sohasi mamlakat taraqqiyotining muhim strategik yo‘nalishi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Alisher Navoiy. 1968. “Badoye’ ul-vasat”. O‘n besh tomlik. 3-tom. 411, Toshkent: O‘zbekiston badiiy adabiyoti nashriyoti

2. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati.1983. 4 tomlik. Toshkent: Fan

3. Alisher Navoiy. 2011. “Hikmatlar”. 408, Toshkent: O‘zbekiston

4. Alisher Navoiy. 2013. “Xazoyin ul-maoniy” to‘la asarlar to‘plami:10 jildlik. 764, Toshkent: G‘afur G‘ulom

NAVOIYNING MA’RIFATLI AYOLLAR HAQIDAGI QARASHLARI

Sa’dullayeva Shahrizoda Muhiddin qizi,
Navoiy viloyati 1-sonli ixtisoslashtirilgan maktab-internati o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Hazrat Alisher Navoiyning “Xamsa” asarida ma’rifatli, ziyoli ayollar haqidagi qarashlari o‘rin olgan bo‘lib, ayollarning o‘rta asrlarda ham o‘zining aql-u zakosi va zukkoligi bilan dunyoni lol qoldirganligi haqidagi ma’lumotlar kiritilgan.

Kalit so‘zlar: g‘azal, mumtoz, ash’or, doston, hikmat, fasona.

Ayollarni madh etish, ular haqida go‘zal asarlar, g‘azallar bitish inson paydo bo‘lganidan buyon mavjud. Mumtoz Sharq adabiyotda ayol husn-u malohati o‘ziga xos, bir – biriga o‘shamaydigan tarzda, yuksak mahorat bilan tasvirlanadi. Ayol zotining qosh-u ko‘zi, sarvdek qomati, oydek yuzini ta’riflashdan ham ko‘ra uni haqiqiy insoniy fazilatlar sohibasi, ijtimoiy hayotning faol a’zosi sifatida e’tirof etish, har ishga qodir, yuksak zakovat va bilimga insonlar qatorida ko‘rish shoirlar sultoni hazrat Alisher Navoiy ijodidi alohida o‘rin tutadi.

“Xamsa” dostonlarining diarli barchasida oqila ayollar doston sujetlarining asosiy obrazlari sifatida talqin etiladi. Jumladan, “Sab’ai sayyor” dostonidagi Dilorom shunday obrazlardan biridir. Shon-shavkatli, dunyoning deyarli ko‘p qismida egalik qilayotgan qudratli shohlardan biri Bahrom Diloromning ta’rif-u tavsifini eshitib, unga g‘oibona oshiq-u beqaror bo‘ladi. Oshiqlik shu darajaga yetadiki, Dilorom uni maqsad-u muddaosiga aylanadi. Shoir Diloromni surat-u siyratini shunday go‘zal ta’riflaydiki, uni o‘qigan har qanday inson uning oydek jamolini hech qiynalmasdan ko‘z oldiga keltira oladi. Ikki qora zulukdek sochlari, nurli chehrasi, atrgulning yaprog‘idek dudoqlari… Diloromning vasliga yetgan Bahrom shikorga uni ham olib borar edi. Shunday shikorlarning birida shoh bir o‘q bilan kiyikning ikki oyog‘ini tushovlab qo‘yadi. O‘z ishidan g‘ururlanib, Diloromga: “Ko‘rdingmi mahoratimni?” - deydi. Mahbubasidan cheksiz maqtovlar, olqishlar kutgan shohga malika: “Bularning bari cheksiz mashqlar, takrorlashlar tufayli to‘plangan tajribalar evaziga sodir bo‘ldi”,- deya oqilona javob beradi. Yoki “Layli va Majnun” dostonini shoir Layli misolida ilm olishga intilayotgan ziyoli, ma’rifatli qizni ko‘radi. Laylini ilm olishga ishtiyoqini payqagan otasi qizi uchum maxsus maktab ochib, barcha qabila bolalari va qizlarini ham bilim olishga chorlaydi. Layli maktabga o‘z dugonalari bilan kelar ekan, ular ichida misoli olmosdek yarqirab turadi.

“Farhod va Shirin”dostonida ham Mehinbonu chuqur aql-u zakovati tufayli butun mamlakatni, xalqni boshqaradigan ayol sifatida tasvirlanadi. Komillik

darajasiga intilayotgan Farhodning aql-u farosatini, ilmi a'molini sinash uchun saroydagi har ilmda mohir, bilimdon o‘nta qizni chorlaydi. Qizlar esa o‘nta soha bo‘yicha Farhodga savol berishadi:

Biri ash'or bahri ichra g‘avvos,
Biri advod davri ichra raqqos.
Biri mantiq rusumida raqamkash,
Biri hay'at ruqumig‘a kalamkash.
Birining ishivasi ilmi haqoyiq,
Biri tarixda so‘z aylab fasona,
Biri hikmat fani ichra yagona.
Dilorom-u Diloroy-u Diloso,
Gulandom-u Sumanboy-u Sumanso.
Parichhr-u Parizod-u Parivash,
Paripaykar zihi o‘n ismi dilkash.

Mehinbonu saroyidagi zukko, bilimdon qizlarga ham savollar beradi, buni ishitib turgan Farhod o‘z bilimlarini yana bir yodga oladi va ularning savollariga hech o‘ylanmasdan javoblar qaytaradi. Ilm ahlini shohi, sarvari bo‘lgan Mehinbonu uning bilimdonligini ko‘rib taxtdan tushadi. Farhoddan esa taxtga chiqib o‘tirishini iltimos qiladi. Lekin Farhod mudoasi taxt emasligini bildiradi. Xuddi shu kabi voqealar dostonlarning syujetlarida yana ko‘plab uchraydi.

Mumtoz adabiyotimizning dur-u gavhari bo‘lgan "Xamsa" da Navoiy talpinadigan parivashlarning barchasi hayotda, jamiyatda, oilasida o‘z o‘rniga ga bo‘lgan qizlardir. Shoir ularni hayotning chamanzori, chamanzorning gul-u rayhoni deb bilar ekan, ularsiz insoning hayoti mazmunisiz, rangsiz bulib qolishiga ishora qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alisher Navoiy. Navodir un-nihoya.Yigirma tomlik. 2-tom. Toshkent: "Fan", 1987. – B. 619.

2. Alisher Navoiy. Hayrat ul-abror. Toshkent: "G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi ", 2006. – B. 389.

3. Yo‘ldoshev Q. Adabiyot o‘qitishning almiy-nazariy asoslari. Toshkent. O‘qituvchi. 1996. – B. 52.

MUMTOZ ADABIYOTGA XOS SHE’RIY JANRLARNI O‘RGANISH

To‘rayeva Dilso‘z Ixtiyorovna,
Navoiy viloyat Qiziltepa tuman 3-maktab
ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqola Navoiy g‘azallari tasavvuf dunyosining har bir maqomi va manzillaridagi ruhiy holat, bu manzillarni kashf etilishi haqida yozilgan. Komil insoning buyuk Ilohning huzuriga talpinish, qalbi ma’rifatga g‘arq Do‘st diydoriga talpinish Navoiy g‘azallarida turfa rang-u ohang, suvrat-u san’atlar orqali takror-takror talqin etilishi haqida fikrlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: istiora, vasl, mubolag‘a, muvashshax, tashbex, tashxis mumtoz adabiyot.

Keyingi yillar ichida adabiyotimiz tur va janr xususiyatlarini o‘rganishga qiziqish kuchaydi. Ma’lum bo‘ldiki, o‘zbek lirik poeziyasining turli-tuman janr va shakllarida yaratilgan asarlarni tushuntirishda o‘qituvchilarimiz hali qator qiyinchiliklarga duch kelmoqdalar.

Adabiyot o‘qituvchisi lirikaning janr xususiyatlarini ham, badiiy-poetik xususiyatlarini ham, chuqur bilishlari kerak albatta. G‘azal, muxammas, qit’a, ruboiy, tuyuq, fard, masnaviy qasida janrlariga, taxallus, muvashshax, tashbex, tashxis san’atlariga doir shu bilan birga ularni o‘rgatish jarayoniga bog‘liq bo‘lgan ma’lumotlarni adabiyot o‘qituvchisi o‘z ustida ishlashi jarayonida mukammal o‘rganishi muhim sanaladi. Maktab adabiyot darslarida nazmiy asarlar mazmun-mohiyati, nazariyasini o‘rganishga alohida o‘rin beriladi. Bunda she’r vaznlarini o‘qitish adabiyot o‘qituvchilari uchun muarakkab mavzulardan biri sanaladi. Sababi vaznlarni o‘rgatish uchun o‘quv dasturlarida nisbatan kam soat ajratilgani barobarida mazkur mavzuni o‘qitish metodikasi ilmi ham yetarli ishlab chiqilmagan. Anvar Hojiahmedovning “Maktabda aruz vaznini o‘rganish”

qo‘llanmasi bu boradagi yagona manba bo‘lib turibdi. “O‘zbek aruzi lug‘ati” ham o‘quvchilarga ko‘p asqotadi.

O‘quvchilarga barmoq vaznining puxta o‘rgatilishi, bizningcha aruz o‘rganishning birinchi shartidir. Yo‘qsa, ish bir necha barobar ortadi va qiyinlashadi, bunda, birinchidan, barmoq vazni to‘g‘risida tushuncha beriladi. O‘ta murakkab sanalgan aruzni o‘qitishga barmoq haqidagi bilimlar tayanch nuqta vazifasini o‘taydi, bu vazifani amaliyotga qo‘llash yuzasidan shakllantirilgan ko‘nikma va malakalar aruzda ham tadbiq etiladi. O‘quvchilarning bo‘g‘in, ritm, turoq, misra, band kabi barmoq yuzasidan olingan bilimlari ifodali o‘qishga ularni qo‘llay bilishlari aruzni o‘rganishda qo‘l keladi. Barmoq vazni haqidagi tushunchalarni 5-sinfdan boshlab tadrijiylik asosida o‘rgatish mumkin. Boshlang‘ich sinfda bo‘g‘in haqida tushuncha berilgani hamda ona tilidagi bo‘g‘in tushunchasi barmoqdagi bo‘g‘inga aynan mosligi ishni yengillashtiradi, asta-sekin turoq, misra, band haqida ma’lumot berib boriladi. O‘qitiuvchi aruz o‘rgatishni

8-sinfdan boshlar ekan, avvalo, bu vazn etimologiyasi, tarqalishi, rivojlanishi to‘g‘risida qisqacha ma’lumot berib o‘tishi maqsadga muvofiq. Bu ma’lumotlarni A.Hojiahmedovning “Maktabda aruz vaznini o‘rganish” kitobidan qisqacha keltirib o‘tamiz. Aruz she’riy tizimi arab zamirida vujudga kelgan. Mazkur vazn arab she’riyatiga VIII asrdan tadbiq etilgan IX asr boshlaridanoq fors-tojik adabiyotida ham qo‘llanila boshladi. IX X asrlarda turkiy xalqlar orasidan yetishib chiqqan ko‘plab shoirlar o‘sha davr an’analariga muvofiq o‘z asarlarini arab tilida bitar ekanlar, aruz o‘lchovlariga asoslanadilar. Hilma – xil musiqiy va jozibador vaznlar zamirida g‘oyaviy va badiiy jihatdan barkamol qasida va g‘azallar, ruboiy va qit’alar yaratdilar. Abu Mansur as-Salobiyning “Yatimat ad-dahr” kitobida bunday ijodkorlardan ko‘plarini nomi va asarlari zikr qilingan. XI asrda Yusuf Xos Hojibning “Qutatg‘u bilig” XII asrda Ahmad Yugnakiyning “Hibbat ul-Haqoyiq” dek dostonlarning yaratilishi aruz nazariyasi amaliyoti o‘zlashtirilganligi, uning rivojlanib borayotganligidan dalolat beradi. XIII XIV asr davomida aruz o‘lchovi Pahlavon Muhmud, Badriddin Chochiy kabi shoirlarning forsiy she’riyatida ham,

Nosiriddin Robg'uziy, Xorazmiy, Qutb, Sayfi Saroiy kabi sohibi qalamlarning asarlarida ham keng qo'llangan va o'zbek adabiyotining asosiy she'riy mezoni bo'lib qolgan. XV asrdan keyin ko'plab o'zbek shoirlari o'zlarining mo'jizakor lirik asarlarini shu vaznda yaratdilar. Bu ma'lumotlar berilgach, ikkala, (barmoq va aruz) she'riy tizim o'rtasidagi o'xshashlik va farqlarni izohlab berish darkor.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

4. Alisher Navoiy. 6-jild. Hayrat ul-abror. T.: "Fan", 1993

5. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. 20 tomlik. Xamsa: Farhod va Shirin. – T.: 1991-yil

6. A.Hojiahmedov. Maktabda aruz vaznini o'rganish.T.: O'qituvchi.1995.

7. A.Hojiahmedov. O'zbek aruzi lug'ati. T.: Sharq, 1998.

NAVOIY ASARLARIDA TASAVVUFIY G'OYALAR TALQINI

Qo'ldosheva Mahriniso – Toshkent shahar Yangihayot tuman 32-maktab

Mashhur arab adibi Abul Farroj Isfaxoniyning "Qo'shiqlar kitobida" Majnun hayotida shunday voqea qayd etilgan. Majnun bir kuni Laylinikiga o't so'rab chiqibdi. Layli unga lahcha cho'g'ini ro'molchasiga o'rab beribdi. Gap gapga ulanib, latta yonib tugabdi. Lekin majnun joyidan jila olmasmish. U yaktagini yirta boshlabdi. Yaktak ham kuyib bitibdi. So'ng u behush bo'lib Laylining poyiga yiqilibdi. Layli bergan o't – ishq o'tining cho'g'i edi. Bu cho'g' Majnun ko'nglida alangaga aylanib, u shu olovda qaqnusga o'xshab tiriklayin yongandi. Alisher Navoiy "Layli va Majnu"nng xotimasida" O't solsa jahon eliga Majnun, Bir kuyguchi bo'lg'usi Filotun" deydi. Navoiy dostoni Majnun ruhida porlagan, muhabbat o'ti tasvirlariga bag'ishlangandir. Majnun qismatining timsoli dostonda o't va nur. U tug'ilishidan to oxirgi nafasigacha o'tga talpinib yashaydi. Uning hayoti – nur ichida kechgan va nurday bezavol hayotdir.

Qays hali chaqaloq emaklay ham olmaydi. Ammo unda qandaydir pinhoniy ishtiyoq ko'zga tashlanadi. U o't ko'rsaki, mayl etib nihoni, Ishq o'ti tasavvur

aylab oni beshik ichra fig‘on tortaveradi. Bunday go‘dak tabiatida favqulodda xislatlarning urug‘i yashirinishi shubhasiz albatta. Qays maktabga qatnay boshlashidayoq o‘sha xislatlar quvvatini ko‘rsatadi. Uning zehni nihoyatda o‘tkir. Darslarni juda tez o‘zlashtiradi.

“Layli va Majnun”ning boblaridan birida Haqdan shavqat va shifo tilab Majnunni Ka’baga olib borilgan voqeasi tasvirlangan. Ka’baning “arshi a’zamdek” ulug‘vor salobati Majnun dilida mahobatli tuyg‘ular uyg‘otadi. Majnunning ko‘ngliaro shavq otashi yonadi-yu, beixtiyor u yig‘lay boshlaydi. Tun olam aro qora pardasini tortganda, Majnun har hukmda qodir, hakimi doniga nido qilib, motamvor faryod ko‘taradi.

Ey ishq o‘tin aylagan jahonso‘z,
Andin meni notavonni jonso‘z,
Ey urg‘on ul o‘tni xirmanimga,
Xirman neki, jon bila tanimg‘a…

Agar ishq o‘tidan asar sezilsa, u do‘zaxga ham kirishga rozi. Ma’lumki, Majnunning oshiqligidan xabar topgach, Laylining otasi g‘azablanadi. Ammo ungacha u Majnun ta’rifida ancha-muncha baland fikrlarni tinglaydi. Shulardan biri Majnunning iste’dodiga berilgan bahodir. Bu haqda “Tab’i xush-u nazmi ham ravondur” deyiladi. Majnun Layli ta’rifiga yuzlab g‘azal baytlar bitgan. Ularning barchasida yorning sifoti va zoti ulug‘lanadi.

Majnunning “o‘z maqsadlariga erishish yo‘li” jangovar kurashchanlik emas, kamolot yo‘li. Uning dushmani zolim nafs. Navoiy talqinicha, to‘qaydagi sherni yengishdan ko‘ra nafs itini mag‘lub qilish yaxshiroqdir. Shu kurashda Majnun bag‘oyat sobit va izchildir. Majnun na jamiyat, na zamon, na muhit qarshisida taslim bo‘lgan emas. Chunki u o‘zligi oldida taslim bo‘lgan emas. Majnun Layliga yozgan maktubida: “Yo‘qluq menga gar bo‘lubturur yo‘l, Sen bor bo‘lu buy o‘qqa yor ul”, -deydi. Bu fanolik yo‘li. Fanolik esa ishqi haqiqiyning so‘nggi bosqichi.

Majnunning Layliga shaydoligi alal-oqibatda uni Anal-haqlik mavqeyiga yetkazadi. Aks holda u telbalik va savdo payg‘ambari bo‘la olmasdi. Majnun oily maqsad yo‘lida hamisha tadbirli.

Majnunning ko‘nglidagi ishq shavqini damodam afzun qilgan kenglik – Junun. Majnunning junun yo‘li–ma'rifat va ibrat yo‘li sanaladi. Shunung uchun Navoiy Majnunga ilhaqlikdan faxr tuyadi va junun yo‘lini vatanga rahnamolik kamoloti sifatida ta'riflaydi:

To tutti junun yo‘lin Navoiy,
Kim bo‘ldi vatanga rahnamoyi.

Tasavvuf she'riyati-insonning ruhiy hayoti, yuksak va murakkab psixik holatlarini chuqur tadqiq etgan she'riyat. Unda shaxsning ilohiy tuyg‘u va kechinmalari obrazli tahlil qilingan. Mutlaq haqiqatga erishish bosqichlarida sirli xayollari tasvirlangan. Ma'lumki, so‘fiylar odamlarni axloq va hissiyotlariga qarab uch toifaga ajratganlar. Birinchi toifa – nafs bandalari. Bular o‘z nafslariga mag‘lub g‘ofillar. Ikkinchi toifa qalb odamlari. Bular ong va idroki rivojlangan, xodoga ancha yaqin zotlar. Ular tavba qilishgan. Sidq, sabr, qanoat, tavakkal, to‘g‘rilik talablarini og‘ishmay bajargan. Uchinchi toifa odamlar – ruh odamlari. Bular tun-u kun diydor dardida yonib, hamma joy va hamma narsada Haqning nuri jamolini ko‘radilar. Yunus Emro ularning nuqtai nazarini ifodalab:

Haq nuri oshiqlara har dam nuzl emasman,
Kima nuzl bo‘lmasa, ishqdan ma'lul emasmi.

Tasavvuf she'riyatida takror-takror tilga olinadigan g‘arib ham keyingi guruhning vakilidir. E. Bertelsning aytishicha, Alisher Navoiy o‘z ijodiyotida tasavvufning butun axloqiy jihatlarini qamrab olib taqdir hukm etgan muhitdan aloqasini uzmagan bo‘lsa-da tasavvufning so‘nggi maqsadlarini bir ideal tarzda oldiga qo‘ygan edi. Mana shu idealdan biri barchamiz yaxshi biladigan “G‘urbatta g‘arib shodmon bo‘lmas emish” misrali mashhur ruboiysidir. Bu ruboiyning asosiy g‘oyasi – vatan muhabbatidir. Navoiy goh Samarqanda bo‘ldi, goh Astrobodda, goh Balxda. Mana shunday darbadarliklar shoir ijodiga katta ta'sir ko‘rsatgan.

Ruboiyning yozilish tarixi, g'oyaviy-badiiy xususiyatlari bir qator adabiyotshunoslar tomonidan o'rganilgan. Hazrat Navoiyning ilk devonidan mana bunday ko'rinishda o'rin olgan.

G'urbatda g'arib shodmon bo'lmas emish,

El anga shafiqu mehribon bo'lmas emish.

Oltun qafas ichra gar qizil gul butsa,

Bulbulg'a tikondek oshiyon bo'lmas emish.

"Xazoyin ul-maoniy" variantida ikkinchi satrdagi "rafiq"- "shafiq", "qadah"- "qafas"ga almashtirilgan.

She'r ichki sir va boyligini qancha uzoq muddat yashirin saqlay olsa, o'shancha yaxshi. Ba'zan shunday ham bo'ladi. Qandaydir bir she'r haqida ko'p gapiriladi, yoziladi. Bu o'quvchilarda Bu o'quvchilarda o'sha she'r bag'rida nimalardir sir yotganligiga shubha qolmaydi. Haqiqiy she'rning g'oyaviy tarkibi kamida ikki yiki uch ma'no qatlamidan iborat bo'ladi. Bu jihatdan sharq she'riyati jahon adabiyotida o'rnak ko'rsatgan.

Tasavvuf – ishq yo'li, sir yo'li, hurriyat yo'li. Tasavvuf tavbani – tavbasizlikka, sabrni – besabrlikka, oriflik va komillikni – noqislik va nodonlikka, faqru fanoni – erksizlik va qaramlikka qarshi qo'yarkan, insonning ruhoniyati va Ruhiy erki uchun keskin kurashgandi. Tasavvuf islom ma'rifati, islom haqiqati, islom nuridan dunyoga kelib, islomning axloqiy komillik, insonparvarlik va Allohsevarlik tushunchalarini boyitib, o'ziga xos tarzda yangi yuksakliklarga olib chiqdi. Zero, bu ta'limot buyuk islom Daraxtining hosili erur.

MAKTABDA MUMTOZ ADABIYOT VAKILLARINING IJODINI O‘RGANISHDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Rahima Qiyomova Jahonovna,
Navoiy viloyat Zarafshon shahar 2-maktab
ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada ilmning tafakkur mahsuli ekanligi va yosh avlodning ilm o‘rganishda ajdodlar qoldirgan meros va ularning hikmatli fikrlaridan ibrat olib tafakkurlarini kengaytirishlari muhimligi haqidagi fikrlar bayon etilgan.

Kalit so‘z: ilm, hadis, axborot yig‘ish, **,** muxaddis, ma'naviy kamolot.

Ilm - asli ajdodlar ibratidir, o‘tganlar, biz ko‘rmaganlar haqida xabar orqali ibratdir. Payg‘ambarimiz hayoti - ibrat, Imom al-Buxoriy hayoti va faoliyati ibrat, “Jome' as-Sahih“ kitobi esa ilmdir. Forobiyning ilm yo‘lidagi fidoiyligi ibrat, “Fozil shahar fuqarolarining qarashlari” risolasi esa ilmdir. “Qonun fit-tib” - ilm, Ibn Sinoning ilmga chanqoqligi esa ibratdir.

Biz Forobiy va Ibn Sino ilmini o‘zlashtirishga astoydil bo‘lmasak, ammo farzandimizga ularni ibrat qilib ko‘rsatsak, “Jome'-as-sahih” ni o‘zlashtirmasdan payg‘ambarimizga mehru sadoqatdan lof ursak, riyodir, munofiqlikdir, bu bilan faqat o‘zimizni insonlar va Alloh oldida sharmanda qilamiz, gunohlarimizni ko‘paytiramiz, jaholatimizni fosh etamiz. Ammo jahondagi barcha ilmlarni inson egallab ulgura olmasligi ham ma'lum. Dunyoning ishi ilm va farosat bilan bo‘lur. Darvoqe - farosat ham Allohning in'omi - ma'naviyat nuridir. Inson o‘ziga nima va qay darajada lozim ekanligini farosat bilan aniqlab oladi. Sodda bir misol: Ibn Sinoning “Qonun-fit-tib” kitobini mukammal o‘zlashtirmagan kishini ayblab bo‘lmas, Inson ma'naviy kamoloti - bu bilan belgilanmas. Ammo har bir shaxs o‘z sog‘lig‘ining qadriga etish darajasida, har bir ona o‘z farzandini sog‘lom voyaga etkazish zarurati darajasida tib ilmidan bahramand bo‘lmog‘i ayni ma'naviy kamolotga ishoradir. Ma'naviyatning asl mazmun-mohiyati va vazifasi insonlarga, tabiat mavjudotlariga, umuman, har bir ishga beg‘araz fidoyilik bilan munosabatda bo‘lish va ifodalashdan iborat.

Xalqimiz orasida "mehr ma'rifatdan boshlanadi", "mehrli, ma'rifatli odamda" degan tushuncha tez-tez qo'llanadi. Kuzatishimizcha, bu tushuncha ikki xil vazifani bajarishga xizmat qiladi. Birinchisi, milliy xalq pedagogikamizda "inson ko'nglini tushunish va unga mehr ko'rgazish bilan tarbiyalash" vazifasini bajarsa, ikkinchisi – mumtoz adabiyotimizda, aniqrog'i, Alisher Navoiy talqinida, "insonning boshqa bir insonga bo'lgan beg'araz muhabbati tufayli xudbinlik balosidan forig' bo'lish va Borliq haqiqatini anglab etish" vazifasini bajaradi. Bularning hammasi shaxs ma'naviyatida alohida o'rin tutadi.

"Buyuk shoir pok insoniy mehrni ma'naviyatga aylantirdi, deb alohida ta'kidlaydi professor M.Imomnazarov, - Navoiy ma'naviyati timsolida e'tiqod va ilm, iroda qudrati va mehr, fidoiylik va donishmandlik yagona mohiyat kasb etib, millat ma'naviyatini kamolotning oliy bosqichiga olib chiqdi. Asl ma'nosiga diqqat qilsak, o'zbek tilidagi "mehr" so'zi Navoiylar davrida "majoz ishqi", "xos ishqi" deb ta'riflangan tuyg'uning mohiyatini ifodalaydi. Ruslarning achchiq maqollaridan birida "lyubov zla" deyilgan jumla bor. O'zbekning "mehr" tushunchasida ana o'sha "zlo" yo'q, g'araz yo'q. Ota va ona mehri, farzandning o'z qiblagohi va volidasiga bo'lgan mehri, og'a-ini, opa-singillar aro mehr, Vatan mehri, tabiat va undagi turli jonzotlarga nisbatan mehr tuyg'usi, do'st mehri - bularning barchasi g'arazdan xoli, tabiiy va samimiy mehr namunalaridir. Nafaqat inson bolasini, balki turli hayvonlarning jajji bolachalarini ko'rganda inson dilida ajib shirin tuyg'u qo'zg'oladi. Begunoh go'dakning ma'sum qiyofasi, jovdirab sizdan mehr kutib turgan ko'zlari insonni befarq qoldirmaydi, beixtiyor jilmayasiz, erkalab so'zlar aytgingiz keladi. Mehr tuyg'usi inson uchun ulug' ilohiy tuhfadir. Bu tuyg'udan inson o'zini mahrum qilsa, bu dunyoning o'zida do'zax azobi o'rtanishida qoladi. Chunki inson birovga mehr baxsh etmay, birovdan mehr ko'rmay yashay olmaydi".

Shuni ta'kidlash lozimki, xalqimiz orasida mehr tushunchasiga yaqin bo'lgan yana bir qator so'zlar, masalan, oqibat, muruvvat, muhabbat, shafqat kabi ma'naviy-axloqiy tarbiyaning tayanch tushunchalari ham qo'shilib, uning

mazmun-mohiyatini yanada to‘ldirishga xizmat qiladi. Natijada, ma’naviyatning insoniy negizlarini tashkil qiladigan mehr-oqibat, mehr-muruvvat, mehr-muhabbat, mehr-shafqat kabi yangi mag‘zi to‘q va qamrovi keng tushunchalarni hosil qiladi. Bunday tushunchalar xalq orasiga batamom singib ketgan va oxir-oqibatda mehr-oqibatlilik, mehr-muruvvatlilik, mehr-muhabbatlilik, mehr-shafqatlilik kabi qator insoniy fazilatlarning nomlarini ifodalabgina qolmasdan, balki ularni diliga va faoliyatiga jo qilgan insonlarda yuksak ma’naviyatini ham hosil qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Imom al-Buxoriy: Al-Jome’ as-sahih: IV jild. T.:Qomuslar bosh tahririyati, 1991-1993.

2. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. 20 tomlik. – T.: Fan. 1991.

3. Imomnazarov M., Eshmuhammedova M. Milliy ma’naviyatimiz asoslari. T.: 2012.

4. Qilichev E. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Buxoro: 2010.

АДАБИЙ ТИЛНИНГ ШАКЛЛАНИШИДА НАВОИЙ АСАРЛАРИНИНГ ЎРНИ

Қаҳҳорова Дилафрўз – Навоий вилоят Нурота туман 3-мактаб

Ўзбек адабий тили асрлар оша шаклланиб, тараққий этиб келди. Аждодларимиз заковати туфайли тилимизнинг ноёб жавоҳирларидан иборат сўз хазинасига нодир дурлар – сўзлар қўшилиб, унинг бадиий нафосати ва имкониятларини беқиёс даражада оширди. Ўзбек тилининг бой ва нафис лексик қатламини, унинг бетакрор сир ва асрорларга тўла бадиий мўжизалар яратадиган қудратли лисоний манбаларини авайлаб асраш ҳар биримизнинг бурчимиздир.

Навоий шундай сеҳрли сиймоки, асрлар оша унга интилиш тобора ошиб, замонлар ўта унинг жозибаси тобора ортиб бормоқда. Хусусан, шоир сўзга мурожаат қилиб шундай дейди:

Айтиб совумас тарона

Олиб қуримас хазона сен-сен.

Дарҳақиқат, Навоий нафақат туркий халқлар, балки бутун башарият учун айтиб совимас таронадир, олиб қуримас хазонадир. Чунки сўз сўзловчининг маҳорати билан кучга киради ва сеҳрли қудратга айланади. Навоий эса сўздан ўзига бадиий ҳайкал яратди. У яшаган даврда "туркий тил шеъриятдаги нафис туйғулар ва тушунчаларни ифодалашга қодир эмас, туркий тил асар ёзишга ярамайди" деган сохта тушунча ҳукмрон эди. Навоий эса шундай бир шароитда она тилида ўлмас асарлар ёзиб, ўзбек тилининг ҳам шеърият, ҳам илм тили эканлигини исботлаб берди. Ўзбек тили ва адабиёти байроғини юксакларга кўтариб, ўзбек халқини тил жиҳатдан "якқалам" қилган Навоий ҳақли равишда:

Турк назмида чу мен тортиб алам,
Айладим ул мамлакатни якқалам

деб фахрланади. Навоийгача бўлган давр ичида, бир шаҳарда яшаб, турли шева ва лаҳжаларда ижод қилган шоирларимизни адабиётимиз тарихидан яхши биламиз. Демак, биз учун, ўзбек адабий тили учун Навоийнинг улуғлиги мана шунда - ўзбек тилини ўзбек халқи учун "якқалам" қилгани ҳамда ўзбек тилининг ҳам шеърият, ҳам илм тили эканлигини исботлаб берганидадир.

Навоий "Муҳокамат ул-луғатайн" асарида ўз халқи орасидан чиққан шоирларнинг ўз она тилларини қўйиб бошқа тилда ёзишини куйиниб, ачиниб тилга олиб: "андин сўнграким, турк тилининг жомиъияти мунча далоил била собит бўлди, керак эрдиким, бу халқ орасидан пайдо бўлғон табъ аҳли салоҳият ва табъларин ўз тиллари турғон ўзга тил била зоҳир қилмасалар эрди ва ишга буюрмасалар эрди. Ва агар иккала тил била айтур қобилиятлари бўлса, ўз тиллари била кўпроқ айтсалар эрди..." дейди.

Ўзбек адабий тилининг тараққиётида XV асрнинг иккинчи ярми ниҳоятда муҳим давр ҳисобланади. Бу даврда Алишер Навоий ўзининг муборак ижоди билан ўзбек адабиётини юксак чўққиларга кўтариш билан

бирга, ўзбек тилининг тараққиётига ҳам ўзининг салмоқли ҳиссасини қўшди. Навоий яратган асарлар ҳам фикрий, ҳам адабий жиҳатдан жуда юксак савияда бўлгани сабабли дунёга тез тарқалди ва шоирнинг ўз давридаёқ, илм аҳлининг, жумладан тилшуносларнинг диққатини жалб қилди. Натижада, Навоий асарлари асосида ёзилган грамматика ва луғатлар вужудга келди.

Санъат ва мафкура нуқтаи назаридан Навоий бутун дунё маданиятига ўз ҳиссасини қўшган бўлса, тил нуқтаи назаридан туркий халқлар маданиятига улкан хазина тақдим этди. Шунинг учун ҳам Навоий тили ҳозирги кунда ҳам жаҳон тилшуносларининг илмий тадқиқотларига мавзу бўлиб келмоқда.

Навоийнинг ўзбек тили ҳамда ўзбек халқи учун қилган хизмати унинг "кўп ва хўп" ёзгани билан хулосаланмайди. Унинг буюк ва асосий хизматларидан яна бири ўзбек тилини бутун ўзбек халқи учун умумий бўлган меъёрга солганидир. Бу эса адабий тилнинг энг муҳим хусусиятларидан ҳисобланади. Навоий ўзининг юксак бадиий қимматга эга бўлган муборак асарларини она тилида ёзиш орқали ўзбек тилининг қудратини, унинг бой тасвирий восита ва имкониятларига эга эканлигини тўлиқ маънода бадиий адабиёт тили эканлигини амалий тарзда исботлаб берди. Навоий ўз адабий-бадиий асарларини яратиш жараёнида жуда муҳим ва мураккаб икки вазифани ўз олдига қўйди. Бири ўзбек адабий тилини юксак даражада ривожлантириш ва такомиллаштириш ҳамда том маънодаги ўзбек адабиётини яратиш ва ундан ўз халқини баҳраманд қилиш бўлса, ўзбек адабий тилини ижтимоий-сиёсий жиҳатдан ҳимоя қилиш Навоийнинг она тили учун, унинг давлат тили бўлиши учун олиб борган курашининг иккинчи йўналишини ташкил қилар эди. Она тилининг бойлиги ва ифода қудратининг юксаклигини исботлаш учун олиб борган курашининг яна бир муҳим томони унинг тил ҳақидаги илмий-назарий қарашларидир. У етук тилшунос олим сифатида, ўзининг "Муҳокамат ул-луғатайн" асарини ёзди. Бу китобда ўзбек адабий тилини шакллантириш, ўзбек адабиётини яратиш, уни

ривожлантириш соҳаларида олиб борган курашини, кўп йиллик меҳнатлари ва бой тажрибаларини умумлаштирди, чуқур илмий-назарий хулосалар чиқарди, ўзбек тили бадиий адабиёт яратишга ярамайди, деган фикрларни хато эканлигини исботлаб берди.

Ўзбек тили ва ўзбек адабиётини ривожлантириш соҳасида ўз олдига қўйган вазифаларни юксак даражада адо этган Навоий ўз халқи учун, унинг маданияти учун ва умуман келгуси насллар учун катта шарафли ишларни амалга оширди. У:

Мен ул менки то турк бедодидур,
Бу тил бирла то назм бунёдидур,
Фалак кўрмади мен кеби нодире,
Низомий кеби назм қодире –

деб фахрланишига том маънода ҳақлидир.

Навоий ўзининг бетакрор асарлари билан нафақат ўзбек адабий тилини бутун Хуросон ва Мовароуннаҳрда яшовчи ўзбеклар учун умумхалқ тили даражасига кўтарди, балки унинг асарлари бошқа туркий халқлар тилига ҳам ўз таъсирини ўзказмай қолмади

SHOGIRD TARBIYASIDA NAVOIY HIKMATLARINING O‘RNI

Ravshanova Sohiba – Navoiy shahar 11-AFChO‘IM

Milliy hayotimizda "Ustoz- shogird" lik tushunchasi barcha sohalarda o‘z o‘rniga ega. Shu an'ana tufayli qadriyatlarimiz, urf-odatlarimiz, san'at va o‘zligimiz yashab kelmoqda va rivoj topmoqda. Sharq adabiyotida "Ustoz – shogird" an'analari juda yaxshi rivojlanganligi isbot talab qilmaydigan haqiqatdir**.** Shogirdlar ustozdan har tomonlama ibrat olishga harakat qilganlar. Ustozning berayotgan ilmi tazozining bir tomoni bo‘lsa, tarozining ikkinchi tomonida ustozning tajribasi, yurish-turishi, kiyinish odobi, muomalasi, hayotiy sabog‘-yu hatto qanday kitob mutolaa qilishi o‘rin oladi desak adashmaymiz. Shogird o‘zi bilib- bilmay ustoz odatlarini o‘zlashtiraveradi. Zero, ustozning bugungi kunda

qanday kitoblarni mutolaa qilayotgani bugungi shogird va o‘quvchilari hayotida muhim o‘rin tutadi. Bu masalada biz ma'naviy boyligimiz – mumtoz adabiyotimizga suyansak, hech qachon adashmaymiz. Bugungi ustoz ertangi ustozni tarbiyalar ekan, albatta, mas'uliyat va javobgarlik tushunchasi, davom etib kelayotgan mustahkam bilim berish rishtasida yubqa qism bo‘lib qolmaslik yuki har bir ustozni o‘z ustida tinimsiz izlanishga majbur qiladi. Adabiyot borasida yoshlarga ta'lim-tarbiya berishda buyuk USTOZ Alisher Navoiy asarlariga, hikmatlariga murojaat qilish va tayanish eng to‘g‘ri yo‘l.

Mamlakatimiz Prezidentining kitob mutolaasi yuzasidan qabul qilayotgan qator farmon va qarorlari, shubhasiz, Vatanimiz kelajagi bo‘lgan yosh avlodni har tomonlama yetuk inson bo‘lib tarbiya topishi yo‘lidagi muhim odim bo‘ldi.

Bugungi kunning tiyrak yoshlari kelajak qanday avlod qo‘lida ekanligini allaqachon anglab yetishgan, desak adashmaymiz. Ular endi tanlagan kasb-korlariga tegishligina bo‘lgan kitob o‘qish bilan chegaralanayotganlari yo‘q. Kun yoshlari ma'rifatini oshirish bilan birga ma'naviyatini ham yuksak darajaga ko‘tarib, ajdodlarimizga chin ma'noda munosib avlod bo‘lmoqdalar. Badiiy kitob esa bu yo‘lda ularga hamrohdir.

Badiiy o‘qish bugun yurtimizning har bir qatlamiga, har bir oilasiga kirib boryapti. Endigi oldimizda turgan muhim masalalardan biri yoshlarga kitob tanlashni o‘rgatishdir. Ha, aynan mukammal adabiyotni tanlab o‘qish. Mukammal adabiyotgina insonni o‘zgalar dardini anglaydigan, do‘stlikni, vafodorlikning qadriga yetadigan, mehnatsevar, oliyjanob, Vatanini sevadigan, o‘zgalar haqini yeyishdan hazar qiladigan, yon-atrofdagilar hayotiga befarq bo‘lmaydigan, qisqacha qilib aytganda, ma'nan yetuk avlodni tarbiyalay oladi.

Bu borada, eng avvalo, Navoiy ijodiga murojaat qilsak, adashmagan bo‘lamiz. Zero, Alisher Navoiy ijodi, xususan, uning nur bilan, yurak qo‘ri bilan yo‘g‘rilgan “Xamsa”, “Xazoyin ul-maoniy” (“Chor devon”) singari shoh asarlari o‘zbek xalqining o‘lmas va mangu o‘chmas qadriyatlari bo‘lib, ular hozirgi kunda ham kitobxonlarni o‘ziga tobora ko‘proq jalb etmoqda. Kitobxonlar bu nodir

asarlardan zavq-shavq olib, yuqorida keltirgan sifatlarni o‘zida tarbiyalamoqdalar. Navoiy asarlarining zamonaviyligi ham avvalo ana shunda!

Navoiy asarlari chuqur mazmunli falsafiy xulosalarga, xalq maqol va hikmatli so‘zlari darajasida turuvchi aforizmlarga juda boyki, ularni xalq donishmandligining o‘ziga xos qomusi desa bo‘ladi. Shuni ta'kidlash joizki, Navoiyning "Xamsa", "Hazoyin ul - maoniy", "Lison ut-tayr", "Mahbub ul-qulub", "Nazm ul-javohir" kabi asarlarida berilgan maqol va hikmatli so‘zlarning deyarli barchasi hozirgi kunda ham o‘zining tarbiyaviy-estetik ahamiyatini saqlab qolgan. Yoshlarni ezgulik ruhida tarbiyalshda bevosita xizmat qilmoqda.

Kelajak avlodni ezgulik ruhida tarbiyalashda Navoiynning hayot haqiqatini chuqur idrok etish va umumlashtirish asosida yaratilgan hikmatlari alohida o‘ringa ega. Navoiy hikmatlarining mavzu doirasi keng va rang-barangdir. Bu hikmatlar markazida har doim dolzarb bo‘lgan inson va insoniylik, Vatan va vatanparvarlik, do‘stlik-birodarlik, halollik, ilm va hunar, to‘g‘rilik va qahramonlik,odob-axloq, saxiylik va mehribonlik adolat va bag‘rikenglik,sabr-toqat va qanoat singari hayotiy masalalar teran ifodalanadi.

Biz yoshlarimizni ana shunday xususiyatlar egasi qilib tarbiyalashni istar ekanmiz, avvalo, ularga aslida zamonaviylik Vatanni sevishdan boshlanishini uqtirmoq joiz:

Vatan tarkini bir nafas havas aylama,
Yana ranj-u g‘urbat havas aylama.

Navoiy inson aql-u zakovatiga yuqori baho beradi. El-ulusni ixlos bilan ulig‘laydi. Xalq manfaatini o‘z manfaatidan ustun qo‘yadi:

Manga qilsa yuz jafo bir qatla faryod aylamam,
Elga qilsa bir jafo yuz qatla faryod aylaram.

Ulug‘ mutafakkirning hikmatlarida adolat va halollik, yaxshilik va to‘g‘rilik, vijdonli va diyonatli bo‘lishga chorlaydi. "Navosiz eining navo baxshi bo‘l. Navoiy Yomon bo‘lsa, sen yaxshi bo‘l!",-deydi.

Shoir yaxshilik va uning ahamiyati haqida fikr yuritar ekan, hayotning o'tkinchiligini aytib, umrini faqat yaxshilik istab (qilib) o'tkazish va insonlar xotirasida abadiy ijobiy yashash kerakligini kuylaydi:

Bu gulshan ichrakim yo'qdir baqo guliga sabot,
Ajab saodat erur yaxshilik bilan chiqsa ot

Navoiy o'z hikmatlarida qirg'n-barot urushlarni, fitna- fasodni, ayyorlik va makkorlikni qattiq qoralab, yurtni tinchitib, obod qilishga undagan. Haqsizlikka qarshi adolatni, yomonlikka qarshi yaxshilikni, dushmanlikka qarshi do'stlikni qarama-qarshi qo'ygan:

Olam ahli, bilingizki, ish emas dushmanlig',
Yor o'ling bir-biringizgakim, erur yorlig' ish.

Yoki: El qochsa birovdin,el yomoni bil oni,
Ahvolida idbor nishoni bil oni.

Shoir asarlaridan olingan quyidagi hikmatda Navoiy o'zining ezgu niyatlarini mehnat ahliga she'riy tilda bayon etgan:

Umrni zoye etma, mehnat qil,
Mehnatni saodat kaliti bil.

Yoki: Dehqonki don sochar,
Yerni yormoq bila rizq yo'lin ochar.

Navoiy oddiy mehnatkash insonlarni e'zozlash bilan birga, ilm va san'at ahllariga samimiy hurmat bilan qaragan. Chunki u aqlning qudratiga, uning nodonlik va jaholat ustidan g'alaba qozonishiga ,yurtni taraqqiy ettirishiga qattiq ishongan. Bu ishonch ruhi shoir hakmatlarida han yorqin aks etgan. Quyidagi misralardan shoirning yosh avlodni ilm-fan, adabiyot va san'at cho'qqilariga intilishlarinichin dildan istashi ko'rinib turibdi:

Yigitlikda yig' ilmnng mahzani,
Qarilik chog'i harj qilg'il oni.

Yoki: Oz-oz o'rganib dono bo'lur,
Qatra-qatra yig'ilib daryo bo'lur.

Navoiy insonlarning ilmli-bilimli bo‘lishga chorlar ekan, ularning kamolotida ilmning, ilmli bo‘lishda esa ustozning roli beqiyos ekanligini uqtiradi. Xizmatini yuksak baholaydi. “Haq yo‘lida kim senga bir harf o‘qitmish ranj ila, Aylamak bo‘lmas ado oning haqqin yuz ganj ila”.

Shuni aytish joizki, Navoiy mehnatdan, bilimolishdan qochgan odamlarni lapashanglar deb, qiyinchiliklarga chidaganlarni esa xiradmandlar deb ataydi. Navoiy bilim va hunar o‘rganish zarurligi,uni esa o‘z navbatida shogirdlarga beg‘araz ,saxiylik bilan o‘rgatish kerakligi haqida shunday deydu:

Hunarni asrabon netgumdir oxir,
Olib tuproqqami ketgumdir oxir.

Navoiy hikmatlari mazmunan teranligi bilangina emas, balki shaklan mukammalligi, badiiy yetukligi, bilan ham barchaga manzurdir. Navoiy hikmatlarining aksariyati qisqa, mazmunan aniq, ravon, zavqli va jozibadordir. Ularni o‘quvchi tezda tushunish, yodlab olish mumkin: Sog‘inmoqni sog‘in,
Unutmoqni unut!

Aytar so‘zni ayt,
Aytmas so‘zdan qayt!

Barcha rost ham degulik emas.

Kimki ulug‘roq anga xizmat kerak,
Ulki kichikroq anga shafqat kerak.

Muxtasar qilib aytganda, Navoiy asarlari rang-barang hikmatli so‘zlarga boy. Iboralari bitmas-tuganmas xazina. Ushbu xazinadan oqilona foydalanshimiz, yosh avlodni Navoiyning purma’no hikmatlarini nafaqat mutolaa qilishlari, balki hayoti davomida ularga amal qilishlariga erishishimiz zarur.

To‘g‘ri, bugun hamma harsa: kiyinishimiz ham, yashashimiz ham, fikrlashishimiz ham, ta’lim olish usullarimiz ham zamonga mos, hayot bilan hamnafas. Bugun biz yoshlarimiz bilan jahon miqyosidagi turli xil tanlov va musobaqalarda faxrlana olamiz. Bu mavzuda soatlab gaplashsak vaqt yetmaydi. Bularning barchasi yurtimizda ta’limga berilayotgan e’tiborning natijasi. O‘sib

kelayotgan yosh avlodni ham ma'rifatli, ham ma'naviyatliqilib tarbiyalash barcha-barchamizning ezgu vazifamiz. Bunday ezgu vazifani bajarishda biz Alisher Navoiy kabi buyuk tarbiyachilarga suyanamiz.

АЛИШЕР НАВОИЙНИНГ "ҲАЙРАТ УЛ АБРОР" ДОСТОНИДАГИ ИЛМИЙ-ЛИНГВИСТИК МОТИВЛАР ХУСУСИДА БАЪЗИ МУЛОҲАЗАЛАР

Мирсолиҳова Санобар – Тошкент шаҳар Янгиҳаёт туман 32-мактаб

Алишер Навоий "Хамса"нинг биринчи достони – "Ҳайрат ул аброр" достонида зулм ва қабоҳат, жаҳолат, ундаги турли ижтимоий табақаларнинг хатти-ҳаракатларини ҳаққоний тасвирлайди, таҳлил қилади, уларни ўзгартириш, тарбиялаш, кишилар характерини, жамиятни қайси йўл билан етук даражага олиб чиқиш масалаларини қўяди. Шу томонлари билан бу достон маълум даражада Т.Кампанелла (1568-1639)нинг "Қуёш шаҳри", Т.Мор (1478-1535)нинг "Утопия" асарларини эслатади. Фалсафий – дидактик характердаги бу асар Низомийнинг "Махзун ул-асрор" достони таъсирида ёзилган бўлиб, Навоий дунёқараши бунда ўзининг тўлиқ бадиий содда ифодасини топган.

Алишер Навоийнинг мазкур асаридаги фалсафий ғоялар, дидактик қоидалар ҳозирги ижтимоий тараққиёт юксалаётган даврда ҳам ўзининг методологик хусусиятлари билан гуманитар йўналишдаги фанлар ривожига муҳим асос бўлмоқда. "Ҳайрат ул-аброр" достонидаги асосий ғоя фалсафий йўналишдаги тадқиқотлар шаклланишида ўз ҳиссасини қўшаётган бўлса, достонда фойдалангилган тил элемент (унсур)лари эса замонавий тилшуносликнинг назарий асосларини бойитишга ўз ҳиссасини қўшмоқда.

Алишер Навоийни ўзбек адабий тилининг асосчиси деган хулосаларни берамиз. Унинг асосий новаторлик фаолияти ҳам мазкур гениал асарининг юзага келиши билан боғлиқ масалаларни қамраб олган. Илгари туркий тилда асар ёзилмаган бўлса-да, катта эътибор билан буюк адиб

"Хамса"сини туркий тилда яратди. Буни тўла асосда айта оламизки, асар туркийда, аниқроғи ўзбек адабий тилида яратилган энг катта лисоний манбалардан ҳисобланади.

Тўғри, Алишер Навоий давригача VIII асрдан бошлаб барча илмий манбалар араб тилида, барча бадиий асарлар форс тилида ёзилар эди. Навоий эса араб ва форс тилларини мукаммал ўрганиб, бу тилларнинг барча лингвистик қонун-қоидаларига эътиборли бўлиб, туркийда йирик асарлар яратди. Араб ва форс тилларидан ўзлашган сўзларнинг маъно оттенкалари ва грамматик қоидаларининг асосий қоидалари ўз мавқеида сақланишига катта эътибор қаратди. Агар ўзлашган тил элементларининг дастлабки хусусиятлари сақланмаса, унда икки тил ўртасида фойдаланилаётган тил элементи ўз маъно ва мазмунини бутунлай йўқотади. Натижада, ҳеч бир илмий назарий асосга эга бўлмаган жумла ва матнлар пайдо бўлади.

Буни ҳисобга олган Алишер Навоий форс ва араб тилларидаги барча элементларнинг дастлабки вариант маъноларини сақлашга ҳаракат қилади. Масалан:

Фикрати мезон бўлуб "Хамса" санж,
"Хамса", дема, балки дегил "Панж ганж".

"Ҳайрат ул аброр" достонидан олинган мазкур парчадаги сўзларнинг этимологик хусусиятларига эътибор қаратадиган бўлсак, фикрат, хамса, мезон, санж, панж, ганж сўзлари араб ва форс тилларидан олинган. Контекстуал семантика қоидалари бўйича бу сўзлар ўзининг дастлабки варианти маъноларини тўлиқ сақлаган. Чунки бу сўзлар ўзининг дастлабки вариант маъноларини сақламаганда матн мазмуни саёз ёки бутунлай маъносини йўқотган бўлар эди.

"Фикрат" сўзи дастлабки арабча "фикр" сўзининг кўплик маъносини бермоқда. Араб тили бошқа ҳинд-европа тилларидагидек грамматикасида сон категорияси уч хил кўринишда ва мазмунда тавсифланади, яъни: бирлик, иккилик ва кўплик каби кўринишларда. "Фикрат" сўзи эса арабча кўплик сон

категориясидаги -ат қўшимчасини олиб, кўплик маъносини бермоқда. Контекстуал семантика талаблари бўйича таҳлил этадиган бўлсак мазкур байтдаги "фикрат" сўзи Низомий Ганжавий Ҳусрав Деҳлавий ва Абдураҳмон Жомийларнинг хамсачилик анъаналари қоидаларини "санж" (Ўлчов) сифатида олганлигига ишора қилмоқда.

Демак, Алишер Навоийдаги бу қоида лингвистиканинг энг асосий қоидаи (тамойили) иқтибос (сноска) олишга асос бўлади. Ҳавола қўйишни айрим мутахассисларимиз яқинда тилшунослик фани асослаб берган лингвистик қоидалар деган фикрларига қўшилиб бўлмайди. Чунки Алишер Навоий бу байти билан уч хамсашунос адибнинг ишларига эътибор қаратаётгани, бу асарларни мукаммал ўрганганидан дарак беради.

Агар контекстуал семантиканинг мазкур қоидаига эътибор қаратмасак, яъни "фикрат" сўзини бирликда ишлатсак, Алишер Навоийнинг асаридаги катта бир ғояни ўз ўрнида тавсифламаган бўлар эдик. Тўғри, бу лингвистиканинг фақат бир қоидаи, кейингиси эса грамматикадаги сон катеогрияси, унинг матнга мос келиши масаласи ҳам мазкур жумла орқали араб тили грамматикасига мос келишини исботлаб турибди. Ҳаттоки, айрим йирик тилшунос олимларимиз ҳам лингвистик типология фанининг бу қоидага мутлақо эътибор қилмаган ҳолатларга дуч келамиз. Ўзлашма қатламдаги сўзларнинг лингвистиканинг фақат биргина сатҳидаги қоида билан исботлаб, яъни лексикология ёки семантика баҳсида қараб, унинг грамматик сон категорияси қоидасига эътибор қаратилмаса унда маъно мутлақо ўз қонун-қоидасига мос келмай қолади. Юқорида таъкидланганидек лингвистик типология бўйича тадқиқот ўтказган олимларимиз икки ёки ундан кўп тилларни муқояса (қиёслаш) қилганда фақат бир сатҳ билан чегараланади. Бу эса лингвистик тадқиқотнинг ўта саёз бажарилганидан дарак беради.

Тилларни қиёслаш, ўзлашма қатлам қоидаларининг яна бир муҳим томони ижтимоий тилшунослик қоидалари билан боғлиқ масала бу тил

конвенцияси, яъни тилларнинг ўзаро қонун-қоидаларини тан олиш қоидасидир. Ўзбек тилшунослигида ижтимоий тилшунослик фан сифатида ҳозирда шаклланган бўлмаса-да, унинг элементлари бўйича тадқиқотлар олиб борилмоқда. Илгари социолингвистикани тадқиқи фақат шевалар орасидаги интеграция ва дифференция қоидаларини тадқиқ этган. Бу эса лингвистик тадқиқот учун етарли эмас.

Алишер Навоий араб ва туркий тиллардаги бу мутаносибликни қандай изоҳламоқчи? Тил конвенцияси қоидаси араб тилидаги "фикрат" сўзининг кўплик қўшимчаси ўз маъносида қўлланганлигининг ўзи бу конвенция қоидаларининг ядросини ташкил этади. Жаҳон тилшунослигида тан олинган Сепир –Уорф гипотезасидаги тил конвенцияси қоидаларига Алишер Навоий ўз асарларида тўлиқ амал қилган. Бу гипотеза фақат Ғарб тиллари доирасида эмас, балки Шарқ тиллари доирасида ҳам ўз аксини топганлигидан дарак беради.

Демак, тилларни типологик ўрганишда унинг умумсемиологик қоидалари талаблари асосида фақат бир тил сатҳида эмас, балки тил сатҳларининг барчасида комплекс равишда тадқиқ қилишни тақозо этади.

НАВОИЙ МАЪНАВИЙ МЕРОСИ – ЭЗГУ ФАЗИЛАТЛАР ТИМСОЛИ

Қурбонова Холбиби Тўрақуловна – Навоий вилоят педагогларни янги методикаларга ўргатиш миллий маркази ўқитувчиси
Асланова Санобар Сулаймановна – Бухоро вилояти педагогларни янги методикаларга ургатиш миллий маркази ўқитувчиси

Буюк мутафаккир ва шоир Навоий ҳазратларининг инсоний комилликка эришиш ҳақидаги кўрсатмалари биз учун назарий асос ва амалий дастурдир. Навоийнинг асарлари инсон учун маънавий озуқа, яшаш учун ғоявий таянч ҳисобланади. Буюк шоирнинг ҳар бир асари инсон моҳиятини тушунишга, инсонийликнинг сир-асрорларидан бохабар бўлишга ёрдам беради.

Ҳазрат Навоий, буюк мутасаввуф олим имом Ғаззолий сўзлари билан айтганда, ўрганган ва ўргатган илмига амал қиладиган олимлар сирасига мансуб. Навоий каби комил инсонга нокомил жамиятда яшаш машаққатларини "Маҳбуб ул-қулуб" асаридаги айрим дил сўзлари яққол кўрсатиб беради: "Бировга бир пиёла май тутгудек бўлсанг, у сенга қадаҳ-қадаҳ қон ютқазади, бир қадаҳ болигни ичган одамдан коса-коса заҳар ютишга тайёр турмоқ керак". Шоирнинг бу дил фарёди комилликка эришишни мақсад қилган инсон бу йўлдаги қийинчиликлар билан бир қаторда комил бўлиб яшаш машаққатларига ҳам тайёр туриши кераклигини англатади. Навоий бу ҳолатнинг сабабини "ё замон айланиши, ўзгаришининг нуқсонлари ёки давр ва замон аҳлидаги ақл ва инсонийликка етишган футур туфайли" деб билади. Шу боис у: "яхшиликка мукофот-қўполлик, одоб билан хушмуомала эвазига кеккайиш, такаббурлиғнинг ўзгача муносабат кўрмайсиз"-деб ёзади. Алишер Навоийнинг бу сўзлари фақат ўша давр ва замон аҳлига нисбатан тўғри бўлибгина қолмай, балки кейинги даврлар учун ҳам тааллуқли фикрдир. Ҳар бир давр кишилари ўзларидан аввалги давр одамларини инсофлироқ, инсонийроқ деб биладилар. Бунга сабаб шуки, инсон ва инсоният хотираси яхшиликни, яхши инсонларни кўпроқ ёдда сақлайди, ёмонларни эса унутишга ҳаракат қилади.

Навоий "Ҳайрат ул-аброр"достонида ўзининг фалсафий, ижтимоий-сиёсий ҳамда кишиларга таълим ва ўгит бериш масалаларига катта эътибор беради. Достонда золим ҳукмдорларни қоралаб, иккиюзламачи, риёкор руҳонийларнинг сир-асрорларини кескин фош этади. Хусусан, шоир сахийлик, одоб ва камтарлик, ота-онага ҳурмат, ростгўйлик ва тўғрилик, илмнинг фойдаси ва камбағалларнинг чеккан азоблари ҳақида батафсил тўхталиб ўтади. Навоий бу достоннинг олтинчи мақолотида одоб ва камтарликни улуғлаб, таълим-тарбияга доир қимматли фикр-мулоҳазаларини баён қилиш билан бирга, такаббур ва одобсиз, кишиларни қаттиқ қоралайди.

Навоий илмдан амалда тўғри фойдаланиш зарурлигини таъкидлайди:

Илм, Навоий, сенга мақсуд бил,

Эндики илм ўлди амал айлагил.

Навоий ярамас одат ва хулқ-атворларни шавқатсиз қоралайди, олижаноб инсоний фазилатларни қадрлайди. Болаларни ўқиш, ўрганиш ва юксак одобли, аъло хулқли бўлишга чақиради. Уларнинг бир қатор ахлоқий-таълимий қарашлари ҳозирги кунда ҳам ўз қадр-қимматини сақлаб келмоқда.

Шоирнинг 1500 йилда яратган "Маҳбуб ул-қулуб" (Кўнгилларнинг севгани) асари ижтимоий-сиёсий ва ахлоқий-таълимий қарашлари баён этилганлиги билан қизиқарлидир. Навоий бу асарида сабр, қаноат, камтаринлик, вафо, ҳаё, карам, саховат, ҳиммат, олижаноблик, мардлик, дўстлик, ростгўйлик каби фазилатларни улуғлайди, аксинча, бахиллик, бадфеъллик, ҳасадгўйлик, чақимчилик, хасислик, ёлғончилик, нодонлик, такаббурлик, майхўрлик каби ёмон иллатларни қаттиқ қоралайди.

Халқ аро яхшироқ, дединг, кимдир?

Эшитиб айла шубҳа рафъ андин.

Яхшироқ бил ани улус ароким,

Етса кўпроқ улусга наф андин.

Буюк шоир ўз ҳаёти давомида "одамларга кўпроқ фойдаси тегадиган киши одамларнинг энг яхшисидир" деган ҳадиси шарифга амал қилиб яшаган. Элга фойдаси кўпроқ тегадиган одамларга яхшилик қилишга интилган.

Ҳазрат Навоий инсон қайси даврда, қандай замон аҳли орасида яшамасин, доимо эзгулик, яхшиликни дилига жо қилиб, яшаши керак деган хулосага келади. Шоирнинг бу хулосаси барча асарларининг етакчи ғояси ҳисобланади. Бу ғоя "Маҳбуб ул-қулуб" асарининг учинчи қисмида ҳам турли фойдали маслаҳатлар ва мақоллар кўринишида баён қилинган.

БАРКАМОЛ АВЛОД ТАРБИЯСИДА НАВОИЙ ИЖОДИНИНГ БЕБАҲО ЎРНИ

Искандарова Мавлуда – Тошкент шаҳар Олмазор туман Абдулла Қодирий номидаги ижод мактаби

Янги Ўзбекистон халқ таълими тизимида амалга оширилаётган ислоҳотлар нафақат соҳа мутахассисларини, балки кенг жамоатчиликнинг диққат эътиборини тортмоқда. Биз фарзандларимиз, қолаверса, халқимизнинг ҳеч кимдан кам бўлмаслиги учун фаровон турмуш тарзини яратмоқдамиз. Мана шу йўлда таълим мазмунига миллий қадриятлар, улуғ аждодларимиз яратган меросни ёш авлод онгига сингдириш асосида, узлуксиз таълим сифат ва самарадорлигини оширишга эришилмоқда. Албатта, фарзандларимизнинг бугунги кундаги ютуқлари кучли, билимли ҳар томонлама доно эканлиги кенг имкониятларимизнинг гаровидир.

Дарҳақиқат, истиқлол даврида барпо этилган, барча шарт-шароитларга эга бўлган билим масканлари-мактаблар, академик лицейлар, касб-ҳунар коллежлари, олий ўқув юртларида таҳсил олаётган замонавий касб-ҳунар ва илм-маърифат сирларини ўрганаётган, ҳозирданоқ бир неча тилларда эркин мулоқотга кириша оладиган минг-минглаб ўқувчи-талаба ёшлар ҳаёт остонасидан дадил ва шахдам қадамлар билан олға бориб, жамиятимиз томонидан ўз олдиларига қўйилаётган талабларга тўла-тўкис жавоб бермоқдалар.

Шундай экан, узлуксиз таълим тизимини юқори сифат босқичига кўтарилишида аждодларимиз яратган ўлмас-маънавий мероснинг ўрни алоҳида ажралиб туради. Жумладан, Навоий инсонга, халқга, Ватанга бўлган чексиз муҳаббатини ўз ижоди ва ижтимоий фаолиятини мағзида ифодалайди. У ўз замонасидаги зулм ва қашшоқлик исканжасида қолган халқни улуғлаб, умуминсоний фазилатларни тарғиб этиш билан халқни бахтиёр қилиш йўлида, бутун вужуди билан кураш олиб борди. Мана шу фидойилик

узлуксиз таълимнинг ҳар бир босқичида ўз ифодасини топди. Ўз ифодасини топиши билан биргаликда ўзининг улкан самарасини ҳам бермоқда.

"Биз бу бебаҳо меросдан халқимизни, айниқса, ёшларимизни қанчалик кўп баҳраманд этсак, миллий маънавиятимизни юксалтиришда, жамиятимизда эзгу инсоний фазилатларни камол топтиришда шунчалик қудратли маърифий қуролга эга бўламиз", - деганда Биринчи Президентимиз Ислом Каримов шак-шубҳасиз ҳақ эди.

Миллатимизнинг ғурури, шон-шарафини дунёга тараннум қилиш ва ёш авлодни баркамол авлод қилиб тарбиялашда қудратли маърифий қурол-Алишер Навоийнинг бой маънавий мероси муҳим аҳамият касб этади. Бебаҳо мерос яратган, Алишер Навоий асарларида маънавиятнинг инсоний негизини ташкил қиладиган тушунчалар кенг талқин ва таҳлил қилинади. Меҳр-оқибат, меҳр-мурувват, меҳр-муҳаббат, ҳалоллик, поклик, адолат, инсоф, ватанпарварлик сингари эзгу фазилатларнинг ўқувчи онгига юксак маънавият пайдо бўлишига урғу берилади. Алишер Навоий асарларидаги бош йўналишлардан бири, инсон қалбининг энг нозик туйғулари, қувончу қайғулари эзгулик ва ҳаёт мазмунини теран англаб етишга даъватдир. Бунинг эса ёш авлод тарбиясидаги аҳамияти беқиёсдир. Алишер Навоий қолдирган маънавий мерос ўз муаллифининг нозик диди, юксак салоҳияти ва ҳозиржавоблигидан далолат беради.

Умумий ўрта таълим мактаблари, академик лицей ва касб-ҳунар коллежларида ҳамда олий ўқув юртлари, умуман, таълимнинг ҳар бир босқичидаги фанларни ўқитишда Алишер Навоий асарларида баён қилинган воқеалар, образлар, тарихий жойлар, тарихий шахслар ҳақида маълумот беришда ҳам ёш авлодга мутафаккирлар мутафаккирининг эзгу инсоний фазилатлар ҳақидаги қарашларини сингдириб бориш ҳамда Алишер Навоийнинг олийжаноб фазилатларини кўрсатиш баркамол авлод тарбиясида муҳим ҳисса бўлиб қўшилади.

Навоий ўзининг “Хамса” асаридаги “Фарҳод ва Ширин” достонида инсон тарбиясига катта эътибор берилган. Бунга Фарҳод билан устозлари ўртасида бўлиб ўтган суҳбат далилдир. “Кунлардан бир куни Фарҳод ўзи учун қурилаётган қасрни томоша қилгани боради, у ердаги ҳунармандлардан сангтарошликни ўрганмоқчилигини айтиб мурожаат қилганда, улар сизга ҳунарни ҳожати йўқ, сиз шоҳ ўғлисиз деб эътироз билдиришади.” Шунда Фарҳод уларга:

Ҳунарни асрабон нетгумдир охир

Олиб туфроққаму кетгумдир охир,- деган байтни айтганда устозлари ҳунар ўргатишга рози бўлишади. Бу билан Навоий демоқчики, ҳар бир ҳунарни ўрганиш ва ўргатиш билан дунё ободлигига эришиш мумкинлиги айтилади. Навоий бу достони орқали инсон баркамолликка ва комилликка ҳунар орқали эришишини Фарҳод мисолида кўрсатиб ўтади.

Баркамол авлод қалбида илму маърифатга бўлган чанқоқликни қондириш вазифаси илм аҳли олдига энг катта масъулиятни қўйди. Ушбу хайрли мақсадни амалга оширишда ҳазрат Навоийнинг бой адабий мероси катта ўрин эгаллаётганлигини алоҳида эътироф этиш жоиздир. Шундай экан, биргина Ўзбекистон эмас бутун дунё аҳли баркамол авлод тарбиясида Навоий ҳазратларининг олтинга тенг меросидан кенг фойдаланмоқда.

ALISHER NAVOIYNING YOSHLAR TARBIYASI SOHASIDAGI QARASHLARI

Tolibova Marjona Mehriddin qizi,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti filologiya va tillarni o‘qitish o‘zbek tili fakulteti 3 bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqola Alisher Navoiyning ma’naviy merosidan xalqimizni, yoshlarimizni qanchalik ko‘p bahramand eta olsak, milliy ma’naviyatimizni yuksaltirishda, jamiyatimizda ezgu insoniy fazilatlarni kamol

topishida shunchalik ma’naviy qurolga ega bo‘lishimiz mumkinligi haqida nazariy ma’lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: komillik, mumtoz adabiyot, guhari sharif.

Alisher Navoiy mumtoz adabiyotimizning markaziy siymosi. Buyuk mutafakkirning ijodini qanchalik chuqur va puxta bilsak, ma’rifat, ezgulik, komillik sirlarini kengroq anglab boraveramiz. Yoshlarimiz mutafakkir hayoti va ijodini qanchalik chuqur va puxta bilsa, ma’rifat, ezgulik, komillik sirlarini o‘shancha kengroq egallaydi. Navoiyning sehrli so‘zlarini qalbiga o‘rnatgan odam, odamiylik sharafi va kuch-quvvatini idrok etadi. Navoiy saboqlariga amal qilgan kishi xalqning dard-u tashvishlarini yengillatishga bel bog‘laydi, ilm-ma’rifatni-nodonlik va jaholatga qarshi qurol o‘rnida ishlatadi. Navoiyni anglash, uning siymosiga intilishning g‘oyat muhimligni bilish-adolat, diyonatning kuchiga ishonish demak. Ko‘ngliga shunday ishonch g‘olib bo‘lgan odamlar soni jamiyatimizda qancha ko‘paysa, insonlarning bilib-bilmay qilgan xato va muammolari kamayib boradi. Navoiying ibratli faoliyati bugun istiqlol farzandlari uchun har tomonlama ibrat maktabi vazifasini o‘taydi. Shunday ekan, har bir avlod vakili ilmning yuksak cho‘qqisini egallashga harakat qilmog‘i va Birinchi Prezidentimiz ta’bir bilan aytganda, hech kimdan kam emasligini amalda isbotlab bermog‘i lozim. Alisher Navoiyning ma’naviy merosi milliy ma’naviyatimizning yuksalishida, jamiyatimizda ezgu insoniy fazilatlarni kamol topishida teran ahamiyatga ega. Mutafakkir faoliyatiga xos ilm-u ma’rifatga intilib yashash ishqi asarlarning mazmun-mohiyatini tashkil etadi. Ayniqsa, uning “Mahbub ul-qulub” asari falsafiy fikrlarga boy, inson va jamiyat, ular o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlik, komil inson baxt saodati, adolatli jamiyat, ta’lim-tarbiya, ta’lim-tarbiyada ota-onaning mas’uliyati, sabrlilik, diyonatlilik, birodarlik kabi qator masalalarni qamrab olgani bilan qimmatlidir. Ushbu asarda shaxs, barkamol inson yetakchi o‘rinda turadi va yana bir karra ilm ahli ulug‘lanadi.

Ilmdan chetda qolgan xalq o‘rtasida qaysar, johildir,
O‘rganishga qattiq tirishgan jahonning zo‘r olimidir.

“Mahbub ul-qulub” da shu kabi serma’no va ibratli fikrlarni juda ko‘p uchratamiz. Ilm olib, undan hayoti davomida unumli foydalana olmagan, ezgu amallar qilishga shoshmagan insonlarni, go‘yo urug‘ ekib, undan hosil olmagan dehqonga o‘xshatadi. Alisher yuqoridagi bayti bilan barcha fanlarni o‘rganishni targ‘ib etadi. Uning fikricha, bilimlarni tinmay o‘rganish zarur, bunda har qanday qiyinchilikni yengib o‘tish muhimligini, qunt bilan ishlash, tirishqoqlik bilan harakat qilish, izchillik bilan kurashish, uni oxirigacha yetkazish, chidam va sabot bilan o‘rganishni ta’kidlaydi.

Buyuk alloma ilm olish tamoyillarini o‘z davrida to‘g‘ri ifodalab, hatto ilm tizimini belgilab beradi, ya’ni o‘quv muassasasida o‘qish, olim, hunarmand, ustozlarga shogird tushishni yoki mustaqil holda ilm olishni tavsiya etadi.

Navoiy yaxshi muomala va samimiy munosabat mazmunidagi shirin so‘z qalblarga sevinch bag‘ishlaydi deb, so‘z qudratini benihoya ulug‘lagan va o‘z davridayoq hayotlik chog‘idayoq sinab ko‘rgan ulug‘ siymodir. Bu xususida alloma shunday yozadi:

So‘zdurki, nishon berur o‘likka jondin,
So‘zdurki, berur jonga xabar jonondin.
Insonni so‘z ayladi judo hayvondin,
Bilkim, guhari sharifroq yo‘q ondin.

Demak, insonning tirikligidan nishona ham so‘z, oshiqlar qalbidagi ishq-muhabbatni tarannum etuvchi ham so‘z, hayvonot olamidan insonni ajratib turuvchi ham so‘z-ekanini uqtirarkan, undanda go‘zal va latifroq narsa yoqligiga ishontiradi. Navoiy so‘z guharini, uning qadr-qimmatini va go‘zalligini, inson ruhida jon kabi muhimligini ta’kidlaydi.

Ulug‘ mutafakkirning ulkan ijodini dengizga qiyoslash mumkin. Unda dur-u javohirlar behisob, biz undan bir qatrasinigina bayon etoldik xolos. Hazrat Navoiyning bebeho merosidan xalqimizni, ayniqa yoshlarimizni qanchalik ko‘p baxramand eta olsak, milliy ma’naviyatimizni yuksaltirishda, jamiyatimizda ezgu insoniy fazilatlarni kamol topishida shunchalik ma’naviy qurolga ega bo‘lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Navoiy asarlari lug'ati. Toshkent: "G'. G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti", 1972. – B. 78.
2. Alisher Navoiy. "Majolis un-nafois" O'n besh tomlik. 12-tom. Toshkent: "G'.G'ulom nomidagi adabiyot badiiy nashriyoti",1966. – B. 213.
3. Alisher Navoiy. "Mahbub ul-qulub" Toshkent: G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti", 1983. – B. 11.

NAVOIY IJODIDA MAVZU XILMA-XILLIGI

Suvonova Sohiba – *Navoiy viloyat Navbahor tuman 1-maktab*

Alisher Navoiyning lirik merosi, mavzu tanlashdagi o'ziga xoslik, o'zbek lirikasining milliy hamda qardosh adabiyotlarning eng ilg'or an'analarini o'zida mujassam etgan yangi va yuqori bosqichi hisoblanadi. Olimlarimizni ilhomlantirib kelayotgan Navoiy ijodini o'rganish, uni ilmiy tahlil qilish so'nggi yillarda ko'pgina tadqiqotlarning olib borilishiga sabab bo'lmoqda. Navoiy lirikasining tub mohiyati – falsafiy, ijtimoiy va etik qarashlarning yuksak poetik shakldagi ifodasi bo'lganligi bilan boshqa lirik shoirlardan ajralib turadi. Masalan, oddiy olib qarasak, g'azal tarixda "ishq - muhabbatni kuylash" degan ma'noni anglatadi. Navoiy ijodida esa nafaqat ishq-muhabbat balki, yaxshilik, yomonlik, nafs, razolat, jaholat, Vatan, do'stlik, himmat va shunga o'xshagan ko'pdan-ko'p, rang barang mavzularda g'azallar ijod qildi. Nafaqat, g'azallari, balki Navoiy ijod qilgan barcha janrlar mavzusi xilma- xildir.

Navoiy lirikasi tarkibida ishqning xarakterigina emas, balki uning muhim qonuniyatlari, ijtimoiy hayotda hamda shaxsning kamoloti jarayonida tutgan o'rni masalalariga doir nazariy mulohazalar bayoniga bag'ishlangan baytlar ham anchagina uchraydi.

Adib g'azallaridagi poetik obrazlar munosabati bilan bir masalani alohida ta'kidlashga to'g'ri keladi. Chunki mazkur ta'rifning oxiri ana shu masalaga daxldor bo'lib, ishq, aql va din xirmonini kuydiruvchi chaqmoq sifatida tasvirlanadi. "Ishq bilan aqlni bir-biriga zid qo'yib, ishqning ustunligini ta'kidlash g'azallar tarkibida ham uchraydi". Navoiy fikricha, ishqda hech kimga imtiyoz bo'lishi mumkin emas, Oshiq, u xoh shoh bo'lsin, xoh gado ishq bobida buning

hech qanday ahamiyati yo‘q. Bu fikr shoirning butun hayoti davomida yaratilgan barcha badiiy asarlari zamiriga singib ketgan. U “Mahbub-ul qulub” asarining “Ishq zikrida” ham xuddi shu masalaga to‘xtalib o‘tadi: “Inodi oldinda teng ham podshoh, ham gado; Bedodi qoshinda bir ham fosih, ham porso”. Haqiqiy oshiq o‘z qalbining chinakam sofligiga erishmog‘i lozim. Uning qalbidan o‘rin olishga loyiq yagona tushuncha – bu mehr va sadoqat. Bu masalada uning tili bilan dili doimo muvofiq bo‘lishi shart.

Navoiy g‘azaliyotidagi ishq mavzusi bilan bog‘liq ikkinchi muhim masala mashuqa shaxsi bilan aloqadordir. Demak, ishq uchun mashuqa millati va nasl-u nasabining mutlaqo ahamiyati yo‘q.

Navoiy ishq mavzusidan keyin himmat va nafs mavzularida ham anchagina ko‘zga tashlanarli darajada ijod qildi.

Himmat shoirning butun ijodiyotida muhim o‘rin tutgan masalalarining mavzularidan biridir. Himmat Navoiy lirikasida keng qo‘yilgan dolzarb masalalardan bo‘lib, o‘z ichiga inson ma’naviy olami bilan bog‘liq bir qator fazilatlarni qamrab oladi. Shuning uchun shoir lirik asarlarida ham, “Xamsa” va “Mahbub-ul qulub” asarida ham bu mavzuga alohida ahamiyat bergan. Shoir nazarida himmat barkamol insonning chinakam yetukligini namoyish qiladigan haqiqiy mezon. Bu mezon masalasi birorta g‘azalda yaxlit qo‘yilgan emas. Lekin ayrim she’rlarga uning ba’zi bir qirralari asos qilib olingan va u goho ochiq, gohida umumiy fonda namoyon bo‘ladi.

Kimki bir ko‘ngli bizug‘ning xotirin shod aylagay,
Oncha borkim, Ka’ba vayron bo‘lsa, obod aylagay.

(“Badoye-ul vasat”, 396)

Himmatning muhim qirralaridan biri insonning insonga munosabatida namoyon bo‘ladi. Muhtojlarga muruvvat va e’tibor, ojizlarga g‘amxo‘rlik haqiqiy himmat egasi uchun xos fazilat hisoblanadi.

Yuqorida biz Alisher Navoiynng ijobiy xususiyatlarga xos mavzulari xususida so‘z yuritdik. Endi esa salbiy xususiyatlarning zamini bo‘lgan hayvoniy hirs – nafs xususida so‘z yuritsak.

Shoir fikricha, insonning kamoloti uning o‘ziga bog‘liq. Har bir inson nafsni o‘z irodasiga tobe qila olsagina, kamolotga erishish imkoniyati paydo bo‘ladi. Lekin bunga osonlikcha erishib bo‘lmaydi. Shunin uchun ham yo‘qaydagi sherni yengish shijoat emas balki, haqiqiy shijoatni talab qiladi. Navoiyning yigitlik davrida (1465-1476) yozgan nafs haqidagi quyidagi g‘azaliga nazar tashlaylik:

Bo‘lib nafsingg‘a tobe, band etarsen tushsa dushmanni,

Senga yo‘q nafsdek dushman qila olsang, ani qil band.

Agar insonning o‘z vujudida mavjud eng qudratli dushmani nafs bo‘lsa, uning xarakteridagi eng tuban xususiyat- bu vafosizlik deydi Alisher Navoiy. Vafo inson zoti uchun zarur bo‘lgan eng olijanob fazilat. Lekin, afsuski, bunday noyob gavharni zamon kishilarida uchratish amrimahol.

Demak, Navoiyning inson shaxsining turli qirralari bilan bog‘liq didaktik fikr va g‘oyalari har bir masalada o‘ziga xos shaklda ifodalangan. Jumladan, himmat masalasida u bevosita murojaat tarzidagi tashviq-tartib usulini qo‘llasa, vafo masalasida keskin tanqid yo‘lidan boradi. Lekin mohiyat jihatidan olganda, har ikki o‘rinda ham shoirning maqsadi himmat va vafo kabi yuksak insoniy fazilatlarni ulug‘lash va targ‘ib qilishdan iborat.

Xullas, Navoiyning inson haqidagi qarashlari, mavzu tanlashdagi o‘ziga xosligi va xilma-xilligi ruhiyatda keng va ko‘p qirrali bo‘lib, jamiyatdagi deyarli barcha tabaqalar uchun taalluqli fikr-mulohazalarni qamrab olgan.

NAVOIY ASARLARIDA INSONIYLIK TUSHUNCHALARINING IFODASI

Sa'dullayeva Nigina Shukrullo qizi,
Alisher Navoiy Nomidagi Toshkent davlat
o'zbek tili va adabiyoti Universiteti 1-bosqich talabasi

Annotatsiya: Maqolada o'sib kelayotgan yoshlarini ma'naviy yetuk qilib tarbiyalashda bobomizning nodir asarlari, g'azal-u ruboiylari, hikmatlari o'z o'rniga ega ekanligi haqida ma'lumotlar yozilgan.

Kalit so'zlar: doston, maqom, ijtimoiy-falsafiy, donishmand.

Yoshlarimiz mutafakkir hayoti va ijodini qanchalik chuqur va puxta bilsa, ma'rifat, ezgulik, komillik sirlarini o'shancha kengroq egallaydi. Navoiyning sehrli so'zlarini qalbiga o'rnatgan odam, odamiylik sharafi va kuch-quvvatini idrok etadi. Navoiy saboqlariga amal qilgan kishi xalqning dard-u tashvishlarini yengillatishga bel bog'laydi, ilm-ma'rifatni-nodonlik va jaholatga qarshi qurol o'rnida ishlatadi. Navoiyni anglash, uning siymosiga intilishning g'oyat muhimligni bilish-adolat, diyonatning kuchiga ishonish demak. Ko'ngliga shunday ishonch g'olib bo'lgan odamlar soni jamiyatimizda qancha ko'paysa, insonlarning bilib-bilmay qilgan xato va muammolari kamayib boradi. Navoiying ibratli faoliyati bugun istiqlol farzandlari uchun har tomonlama ibrat maktabi vazifasini o'taydi. Shunday ekan, har bir avlod vakili ilmning yuksak cho'qqisini egallashga harakat qilmog'i va Birinchi Prezidentimiz ta'bir bilan aytganda, hech kimdan kam emasligini amalda isbotlab bermog'i lozim. Alisher Navoiyning ma'naviy merosi milliy ma'naviyatimizning yuksalishida, jamiyatimizda ezgu insoniy fazilatlarni kamol topishida teran ahamiyatga ega. Mutafakkir faoliyatiga xos ilm-u ma'rifatga intilib yashash ishqi asarlarning mazmun-mohiyatini tashkil etadi.Bu ona zaminda ko'plab buyuk insonlar yashab kelajak avlod uchun ulkan ma'naviy, tarbiyaviy meros qoldirganlar. Ushbu ma'naviy merosni o'qib, o'rganib millatimizga xos bo'lgan fazilatlarni ong-u shuurimizga yanada ko'proq singdirib boramiz. Ayniqsa Navoiy ijodiyoti tom ma'noda chin insoniy fazilatlarni o'rgatuvchi maktabdir. Navoiyning ulug'vorligi shundaki, insonning eng ezgu fazilatlaridan biri–uning

qanoat sohibi bo‘lishligini bot-bot ta’kidlab, odamzod ana shu go‘zal xulqi bilan Inson degan oliy maqomga egaligini o‘rgatadi. Negaki sabr-qanoat turmushda duch keladigan har qanday mushkul vaziyatlarga dosh bera olishga, shuningdek, yuz bergan qayg‘u-alamlarni bardosh bilan yengib o‘tishga o‘rgatadi. Qanoat yo‘lini tutgan har qanday odamning murodi hosil bo‘lib, baxt-saodat eshiklari ochiladi. Qanoatsiz kishilar bo‘lsa, botqoqlik komiga botishlari hech gap emas. Hazrat Navoiy qanoatni shunday ta’riflaydi: “Qanoat-istig‘no sarmoyasidur va sharaf va izzat piroyasidur. Muflisi qone’-g‘aniy va shohu gadodin mustag‘niy. Ta’ma’ mazallatg‘a dalil va tome’ xor-u zalil”. Qanoat ulug‘ shoirning ta’kidlashicha, inson qadrini yuksaklikka ko‘taruvchi bebaho fazilat. Qanoat kishilarni hamisha oydinlik sari olib boruvchi bir mash’ala bo‘lib, u har qanday to‘siqlarni bartaraf etishga qodir ekan. Shuning uchun bo‘lsa kerak, ota-bobolarimiz doimo biz kabi yoshlarga qanoatdan so‘zlab, ushbu go‘zal fazilat egasi bo‘lishimizga da’vat etib kelganlar. Bu borada bobomiz Alisher Navoiyning o‘rni beqiyos. Chunki u kishi ham shoir, ham donishmand inson sifatida qanoat tushunchasini keng targ‘ib qilib, xalq orasida katta hurmat- e’tiborga sazavor bo‘ldi.

Ulug‘ mutafakkirning ulkan ijodini dengizga qiyoslash mumkin. Unda dur-u javohirlar behisob, biz undan bir qatrasinigina bayon etoldik xolos. Hazrat Navoiyning bebeho merosidan xalqimizni, ayniqa yoshlarimizni qanchalik ko‘p baxramand eta olsak, milliy ma’naviyatimizni yuksaltirishda, jamiyatimizda ezgu insoniy fazilatlarni kamol topishida shunchalik ma’naviy qurolga ega bo‘lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Alisher Navoiy. Navodir un-nihoya.Yigirma tomlik. 2-tom. Toshkent: “Fan”, 1987. – B. 120.

3. Alisher Navoiy. Hayrat ul-abror. Toshkent: “G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi ”, 2006. – 389 b.

3. Yo‘ldoshev Q. Adabiyot o‘qitishning almiy-nazariy asoslari. Toshkent. O‘qituvchi.1996. – B. 62.

UMUMINSONIY QADRIYATLARNING ULUG‘LANISHIDA MUMTOZ ADABIYOTNING O‘RNI

Narzullayev Nuriddin,
Navoiy viloyati pedagoglarini yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazi o‘qituvchisi

“El-yurt va davlat uchun, uning taqdiri va kelajagi uchun qayg‘uradigan, odamlarning ezgu niyatlarini o‘ziga oliy maqsad qilib qo‘ygan, elim deb, yurtim deb yonib yashaydigan, har qanday vaziyatda ham xalqni birlashtirib, turli balo-qazolardan asrash uchun safarbar eta oladigan shaxslargina tarixda o‘chmas iz qoldiradi”. Darhaqiqat, bizning yurtimizda nomlari abadiyatga muhrlangan mana shunday ulug‘ ajdodlarimizning soni bir talay. Xususan, hazrat Mir Alisher Navoiyning yorqin xotirasi fikrimizning yaqqol dalilidir. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov “Alisher Navoiy atoqli shoirgina emas, balki teran mushohada yurituvchi donishmand hamdir. Uning insoniylik borasidagi fikrlari hali-hanuz o‘z qimmatini saqlab kelmoqda”, deganlarida to‘laqonli haq gapni aytgan edilar.

Bugun biz Navoiy ijodini o‘rganar ekanmiz, uning ilmiy salohiyat bobida juda katta mehnat talab qilinishini guvohi bo‘lamiz. Chunki Navoiy aytgan har bir so‘z mohiyati turli mazmunga ega bo‘lib, tahlil jarayoniga to‘g‘ri yondashish lozimligini talab qiladi.

“Hazrat Alisher Navoiy ijodiy merosi xalqimiz madaniyatining buyuk sarchashmasi bo‘lgani uchun unga takror va takror murojaat etaveramiz. Ular bizni mudom o‘qish va uqishga undayveradi”.

Haqiqatan ham, Navoiy asarlarini o‘qir ekanmiz, bunga o‘zimiz amin bo‘lib boraveramiz. Ma’lumki, “Xamsa” Navoiyning shoh asarlaridan biri sanalib, uning zamirida insonga xos bo‘lgan barcha umuminsoniy qadriyatlar mujassamlashgan. Chunki Navoiy inson qadr-qimmatini barcha narsadan ustun qo‘ygan. Shuning uchun shoir inson maqomi berilgan har bir shaxsni ushbu sharafga munosib ko‘rilganiga shukronalar keltirib, faqat ezgu g‘oyalar egasi bo‘lishlarini chin dildan xohlaganlar. Bu borada, avvalo o‘zlari har tomonlama o‘rnak bo‘lib, boy ijodiy

merosi zamiriga singdirilgan g‘oyalar orqali o‘zgalarni ham ana shunday inson bo‘lishga da’vat etganlar.

“Xamsa” ning birinchi dostoni “Hayrat ul-abror” Navoiyning falsafiy qarshlari zamiriga yo‘g‘rilgan bo‘lib, unda Navoiy haqiqiy umuminsoniy qadriyatlarni to‘laqonli shakllantirib bergan. Doston muqaddima, yigirma maqolot, yigirma hikoyat va xotimadan iborat bo‘lib, asarda shoir ularda nafaqat insonni insonga, balki Olloh tomonidan tuhfa etilgan barcha yaratiqlarga bo‘lgan insoniy munosabatlari qay darajada bo‘lmog‘i lozimligi xususida so‘z yuritadi. Dostonning uchinchi maqolati “Salotin bobida” deb nomlanib, Navoiy yurtning kelajagi, xalqning ishonchi, ezg‘u g‘oyalarning asosiy tayanchi faqat adolat orqali yuzaga chiqishini mahorat bilan aks ettirgan. Har qanday zulm o‘chog‘ini birgina adolat mezoni orqali bartaraf qilinishi Shoh G‘oziy timsolida yoritib berilgan.Shoh G‘oziyning tinchlik o‘rnatish maqsadida yo‘l qo‘ygan birgina xatosini adoalat tarozisi oydinlashtirib berdi. Shu orqali el orasida uning martabasi yanada ulug‘landi. Chunki shoh G‘oziy va jabrdiyda keksa bir kampirning o‘rtasidagi ziddiyatli vaziyatni adolatli hal etilishi umuminsoniy qadriyatlarning bir ko‘rinishi desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Bunday tashqari dostonning beshinchi bobida shoir Hotami Toy hikoyasi orqali ham ushbu fikrlarni ilgari suradi. Hotami Toy – bu shaxs nihoyatda saxiy, o‘zgalardan yordamini ayamaydigan, ko‘ngli keng inson qiyofasini shakllantirgan. U timsol orqali shoir insonlarni saxiylikka da’vat qiladi. Ammo hikoyaga boshqacha yondashadigan bo‘lsak, har bir ishning chegarasi borligini anglab olishimiz mumkin. Chunki hikoya qahramoni Hotami Toy nihoyatda saxiy kishi bo‘lib, borini xalq oldida to‘kib-soladi. Uning bu ishiga faqat bir kishi qarshi chiqib, o‘z fikrini ayta oladi.

Naqdni dog‘i guldek sovurmag‘il,
G‘uncha kibi dog‘i girih urmagil.

Hotami Toy bir yo‘qsil kishining mag‘rur turib aytgan ushbu so‘zlaridan so‘ng, chuqur o‘yga tolib, o‘zining himmatidan ham yuqori turuvchi himmat

egasini ko‘rib, u kishiga tasannolar aytishida ham umuminsoniy qadriyatlarni ko‘rishimiz mumkin.

Dostonning oltinchi maqolati odob masalalariga bag‘ishlanadi. Navoiy bu maqolatda kishilar bilan munosabat va muomala odobi, o‘zini tuta bilish, bola tarbiyasi hamda ota-onaga qay darajada g‘amxo‘rlik qilish lozimligi xususida so‘z yuritadi. Masalan, birgina quyidagi mashhur bayt zamiriga singdirilgan g‘oyani tahlilga tortadigan bo‘lsak, umuminsoniy qadriyatlarning tub negizini anglab yetamiz.

Boshni fido ayla ato boshig‘a,
Jismni qil sadqa ano qoshig‘a…

Dostonning o‘ninchi bobi rostlik ta'rifiga bag‘ishlangan bo‘lib, “Sher va Durroj” hikoyati orqali shoirning asl maqsadini bilib olamiz. Hikoyada to‘g‘rilik ko‘klarga ko‘tarilib, egrilik qattiq tanqid ostiga olinadi. Chunki ularning birinchisi kishini yuqori martabalarga ko‘tarsa, ikkinchisi qaysidir ma'noda inson umriga raxna soladi. Shuning uchun Navoiy barchamizni hamisha tog‘rilikka qalqon bo‘lishga undaydi.

Xulosa o‘rnida aytish joizki, shoirning asarlari umuminsoniy qadriyatlarga, ezgu g‘oyalarga boyligi bilan katta ahamiyat kasb etadi. Buni har birimiz anglab yetmog‘imiz lozim. Zero, Navoiy asarlari g‘oyasi va undagi jamiki pand - nasihatlar kaliti so‘z bo‘lib, ular hamisha mangulikka daxldordir. Shoir asarlariga qayta-qayta murojaat qilishimizning boisi shunda bo‘lsa, ajab emas.

BARKAMOL AVLOD TARBIYASIDA ALISHER NAVOIYNING “MAHBUB UL-QULUB” ASARI

Xamdamova Nigora – Toshkent shahar Yunusobod tuman 98-maktab

Komillik, ya'ni axloqiy, ma'naviy, fikriy kamolotga erishish Sharq adabiyotida keng talqin qilingan mavzu.Biz sharq adabiyoti namoyondalarining ma'naviy merosiga nazar tashlar ekanmiz, bu mavzu komil inson tarbiyasi haqida bir muncha qimmatli ma'lumotlarni o‘qishimiz mumkin. Masalan, Shayx

Alovuddin Nasafiyning o‘z qarashlari, Bahovuddin Naqshbandiy hazratlari esa go‘zallik aslida inson qalbidan boshlanib, uning faoliyatida o‘sishi, rivojlanishini o‘z asarlarida, balki ibratli hayoti va faoliyati orqali namoyon etganlar.

Komil inson tarbiyasi Alisher Navoiy ijodining markaziy masalalaridan biri bo‘lib, asarlarining g‘oyaviy – badiiy mohiyatini tashkil etadi. Yurtimizda yildan-yilga barkamol avlod g‘oyasi, ta'lim – tarbiyasi, ta'minoti izchil takomillashib bormoqda. Barkamollik, komillik cheksiz tushunchadir. Barkamol avlod, komil inson falsafiy tushunchasini sharhlash va anglashda Alisher Navoiyning mana bu qit'asining g‘oyaviy mazmuni ibratlidir.

Komol et kasbkim olam uyidin
Sanga farz o‘lmag‘ay g‘amnok chiqmoq.
Jahondin notamom o‘tmak biaynih
Erur hommomdin nopok chiqmoq.

Qit'aning hayotiy sabog‘i shundaki, olam uyiga tashrif buyurgan insonning kamolotga erishishdek muqaddas maqsadi, orzusi bo‘lishi lozim. Dunyoga kelib, maqsadsiz yashagan, insoniy barkamollikka erisha olmagan odam, oxir – oqibatda olam uyidan g‘amnok- afsus- nadomat bilan chiqadi. Hazrat Alisher Navoiy ijodidan qancha ko‘p ibrat, hayotiy saboq olamiz. Bular, o‘z navbatida, hayotimiz davomida juda asqatadigan, bizni to‘g‘ri yo‘ldan borib, yaxshi inson bo‘lib yetishishimiz, obro‘- e'tibor qozonishimizga ko‘maklashadigan saboqlardir. Ulug‘ mutafakkir bobomizning qay bir asarini olmaylik, unda insonning ma'naviy tarbiyasi bilan bog‘liq biron fikr, hikmat uchramasdan qolmaydi. Hikmatli so‘z, pand-u o‘git Sharq adabiyotining qon-qoniga singib ketgan. Adibning “Mahbub ul - qulub”nomli asarida esa pand – nasihat, axloqiy qarashlar bosh mavzuga aylanib, pandnoma yoki nasihatnoma yusinda yozilgan mukammal asar deb aytamiz. Pandnoma ruhida yozilgan ushbu asar oltmish yillik umri davomida hayotda ko‘rgan- kuzatganlarini teran tahlildan o‘tkazib, muayyan xulosalar chiqargan donishmand adibning kelgusi avlodlarga qoldirgan buyuk ma'naviy merosidir. Bu asar har bir odam umri davomida duch kelishi muqarrar bo‘lgan hayotiy

savollarga eng to‘g‘ri javoblarni ta'sirli usulda berishi bilan yuksak qimmat kasb etadi. Alisher Navoiy asarning har bir tanbehida o‘ta dolzarb insoniyat hayotini jar yoqasigacha olib kela oladigan, insonlarga xos xarakter xususiyatlar haqida fikr yuritadi.

Mutafakkir adib asarning o‘n birinchi tanbehida saxovat va himmat to‘g‘risida fikr yurutar ekan, saxovatli odamni insoniyat bog‘ining hosildor daraxtiga, daraxtning foydali mevasiga qiyoslab, agar insonlar o‘rtasida saxovatlilik va himmatlilik yo‘qoladigan bo‘lsa bu daraxt qaqrab qurimog‘i turgan gap deydilar. Bu jihatdan shoirning isrof to‘g‘risidasi mulihazalari ayniqsa ibratli. “Isrof qilish sahiylik emas; o‘rinsiz sovurishni aqlli odamlar saxiylik demas. Halol molni kuydirganni devona deydilar; yorug‘ joyda sham yoqqanni aqldan begona deydilar. Maqtanish uchun mol bermoq - o‘zini ko‘z - ko‘z qilmoq va shunday qilib o‘zini “saxiy” demoq – behayolik bilan nom chiqarmoq”.

Oramizda ayrim insonlar ham borki, saxiylik deb isrofgarchilikka yo‘l qo‘yadilar. Mol dunyolarini hoyu- havaslari orqasidan isrof qilib,o‘zlani omma oldida saxiy ko‘rsatadilar. Bunday odamlarni bobomiz – o‘zini ko‘z- ko‘z qilmoq va shunday qilib o‘zini “saxiy” demoq – behayolik bilan nom chiqarmoq. Kimki xalqqa ko‘rsatib ehson bersa, u pastkash, saxiy emas deydilar.

Ushbu asarning har bir tanbehi, masalan18-tanbehda hilm, muloyim tabiatlik, xushmuomalalik to‘g‘risida fikr yuritilsa, yigirma ikkinchi va yigirma uchinchilarida insonlarga yaxshilik qilish do‘st tanlash kabi mavzular haqida qimmatli ma'lumotlar bayon etiladi. Qirq sakkizinchi tanbehda “So‘zlash odobi” haqida fikr yuritilib, ko‘p qapiradigan, gapirganda ham bemani, bamaza so‘zlaydigan insonlar, kechalari tong otguncha huradigan itga o‘xshatiladi.O‘zi xunuk, gapi bemani, ovozi yoqimsiz odamlar qurbaqaga o‘xshatiladi.So‘zini tiyaolgan odamni donishmand oqilga, so‘ziga erk bergan odam beandisha, pastkash deyiladi. Asarning har bir tanbehida insonning yaxshi, ijobiy va salbiy xarakter xususiyatlari qalamga olingan.

Navoiyning bundan besh asr avval, ilgari surgan g'oyalari bugun ham o'z dolzarbligi va ahamiyatini yo'qotmay kelayotgani kishini hayratga soladi. Ajdodlarimiz qoldirga qimmatli ma'naviy merosimizdan o'qilona foydalanib, kelajak avlod tarbiyasida dasturul amal sifatida foydalanib, elajak avlodni tarbiyalasak, komil inson tarbiyasiga o'z hissamizni qo'shgan bo'lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. A.Navoiy "Mahbub ul - qulub"
2. Til va adabiyot ta'limi jurnali

НИКОҲ ТЎЙИНИ ЎТКАЗИШ БИЛАН БОҒЛИҚ МАРОСИМЛАР

Суванова Мавжуда – Навоий вилоят педагогларни янги методикаларга ўргатиш миллий маркази

Никоҳ тўйи халқимизнинг тарихий ривожланиши жараёнида сийқалланиб, бизгача етиб келган миллий маънавий қадриятларимиздан биридир. Никоҳ тўйи қариндош-уруғлар, дўстлар, таниш-билишлар, қўшнилар иштирокида ўтказилади. Тўй дастурхони турли ноз неъматлар билан безатилади. Никоҳ тўйларига оид этнографизмларни қуйидаги қисмларга бўлиб ўрганиш мақсадга мувофиқ.

1. Тўйга қадар маросимларни ифодаловчи этнографизмлар.

2. Тўй пайтида ўтказиладиган маросимларни ифодаловчи этнографизмлар.

3. Тўйдан сўнгги маросимларга оид этнографизмлар.

Тўйга қадар бажариладиган расм-русумларни ифодаловчи этнографизмлар: **совчи -** турмуш қурадиган йигит ва қизнинг ота-оналари қариндош уруғлари билан ёшларнинг оила қуришлари борасида кенгашувчи, оиланинг аъзоси ёки қариндош уруғларидан бири бўлган шахс. Бу ўзбек тилли ҳудудларнинг барчасида кенг тарқалган этнографизмдир.

Нон синдириш ёки ушатиш - қизни унаштириш, никоҳга кирувчиларнинг муносабатларига розилик бериш маъносини ифодалайди. Бу

маросим Ўзбекистон ҳудудининг барча вилоятларида бир хил тарзда ўтказилади. Қуда томонга (келинникига) 3-5 киши (куёвнинг яқин кишилари) патир нон, ҳолва ва бошқа ширинликлар билан борилади. Ушбу маросимда иккала тарафдан қудалар иштирокида устма-уст турган бутун нонлар ўртасидан иккига бўлиб ушатилади ва ҳар иккала тарафга ҳолва ва ширинликлар бирдек тақсимланади. Нон синдирилгандан кейин **Эқлък** берилади. Ҳар иккала тараф ҳам яқинларига ёшлар унаштирилганини яқинларига билдириш учун нон ва ширинликлардан тарқатишади. Тошкентда яқинларининг қизларига, ишхоналарига, турмушга чиқмаган дугоналарига ҳолва, ширинликлар, чақ-чуқлар тарқатилади. Тўйдан олдин келин томонидан махсус вакиллар келиши муносабати билан "уй кўрар" маросими ўтказилади.

Фотиҳа тўйи. Қизни унаштириш фотиҳа тўйи маросими билан якунланиб, унаштирилган қиз-фотиҳаси ёки боши боғлиқ деб аталади. Фотиҳа тўйи куни бўйнига рўмол боғлаб олиб бориладиган қўчқор-"**эшък Эчар"** номи билан юритилиб, қуда томон катта тўй тараддудини кўради. Жиззах вилоятида келинга "**йўқлЭв"** юборилади .(жонлиқ-қўчқор ва гуруч ва бошқа маҳсулотлар юборилади.).

Тўй муддати чўзилса, қудалар қизга ҳар байрам ва бозор кунлари байрамлик, бозорлик юбориб туришади. Тўй куни маълум бўлгач, икки томон ҳам тўй тараддудини кўра бошлайди. Байрамлик-қуда томондан келадиган ширинликлар, озиқ-овқатлар ва сарполарни англатади. Қиз уйида кўрпа-тўшак тикиш учун ҳашар уюштирилади. Бу одат "**көрпə бъчəр"** деб юритилиб, қариндошлар берган нарсалар қўшан деб номланади. Хоразмда бу "**Эдəт қЭшəнт"** деб номланади. Қиз томонга бериладиган пул **қəлън пулъ**, баъзи жойларда "**сут пулъ"** деб номланади. Уни ҳозир "**куёв сЭвғəсъ", "сут ҳəқъ"** деб замонавийлашган шаклда намойиш қилмоқдалар. Аслида қалин исломгача туркий халқлар орасида кенг тарқалган одатлардан. Масалан, VI

асрга оид Ўрхун-Енисей ёзувларида, Маҳмуд Кошғарий асарларида у тилга олинган"[6].

Тўй кунидан бир кун олдин қиз уйига тўйлик юборилади. Қиз томон эса куёв учун сарпо, патир, қанд-қурс солинган дастурхон жўнатади. Ушбу маросимда иккала тараф вакилларидан 10-15 киши иштирок этади. Улар тўйни ўтказишни келишиб оладилар.

Қиз базми. Бу маросимнинг ўтказилишb ихтиёрий бўлиб, никоҳ тўйидан олдин қизнинг уйида ўтказилади. Қиз базмига келиннинг дугоналари, қариндошлар, қўшнилар таклиф қилинади. Қизнинг ота-онаси уйида оила аъзолари билан хайрлашиши, янги оилада ҳурматли, иззатли келин бўлиши учун йиғилганлар яхши тилаклар билдирилади. Бу урфлар ўзбек тилли ҳудуднинг барча шева вакиллари турмуш тарзида мавжуд бўлиб, қиз базми, қизлар давраси, қизлар йиғини номлари билан ўтказилади. Бу маросимнинг ўтказилиши натижасида ота-онага бўлган қадр-қиммат, ҳурмат, ота-онани эъзозлаш каби маънавий қадриятлар ёшлар онгига сингдирилади.

Тўй пайтидаги расм-русумларни ифодаловчи этнографизмлар:

Куёв навкар. Тўй куни кўпгина ҳудудларда дори билан, баъзи жойларда куёв навкарлар (куёв ва дўстлари) келинникига карнай-сурнайлар садоси остида боришади. Келинникида куёв навкарлар меҳмон қилинади. Ўша ерда жуда кўплаб ҳудудларда куёвга тўн кийдириш маросимлари ўтказилади. Самарқанд, Бухоро, Навоий вилоятларида куёвникига куёв сарпо жўнатилади. Жиззах вилоятида бу маросимдан кейин келин ва куёвнинг никоҳлари домла-имом томонидан ўқитилади. Мазкур ҳудудда куёв навкарлар дастурхондан тургандан кейин келин уйидан яхши ният билан чинни идишлардан олиб кетадилар.

Маълумки, тўйга ўзоқ-яқиндан келиб меҳмон бўлиб тунаб қолишади. Бундай пайтда улар куни-қўшниларга тарқатилган. Бу одат **меҳмЭн Элъш** деб аталган. Бу одат ўғизлар ва қипчоқларда ҳам, қўнғирот ва қарлуқларда

[6] И.Жабборов.Ўзбек халқи этнографияси.1994,220 б.

ҳам кенг тарқалган. Мазкур одат жамоа-уруғчилик давридан қолган бўлиб, бу даврда бир қишлоқ ягона оиладан ташкил топган. Бу одатлар ҳозир ҳам бор бўлиб, Навоий вилоятининг Нурота, Навбаҳор, Хатирчи, Самарқанд вилотининг Пахтачи, Нарпай ва бошқа кўпгина туманларида тўйга келган меҳмонга ҳурмат кўрсатилиб, қўни-қўшниларникига **қонъққэ** берилган.

Поёндоз. Куёв ва келиннинг оёқлари остига тўйда поёндоз ташлаш ўзбек халқининг азалдан фойдаланиб келинган урф-одатларидан биридир. Бу маросим ўзбек тилли ҳудудларда фарқланади ва бошқа ҳудудларда учрамайди. Тошкент вилоятида келинни олиб кетишга келган куёвнинг оёғи остига ташланади. Бу маросим давом эттирилиб, келинни тўйхонага олиб киришда келин ва куёвнинг оёғи остига ташланади. Жиззах вилоятида никоҳ базмидан кейин куёвнинг дўстлари келиннинг яқин қариндошлари бўлган йигитлар билан куёвнинг никоҳ маросимидан чиқишини остонада кутиб турадилар. Ёши улуғ кексалар поёндоз учун тайёрлаб қўйилган атлас матони куёв оёқлари пойига тушайдилар. Куёв ўнг оёғини босгандан кейин уни олиб куёв ва келин томондан поёндоз тортишга шайланиб турган йигитларга оширишади. Шундан поёндоз маросими пайтида "қўлга киритган" кийимларини яхши ниятлар билан олиб кетадилар. Бу мато бўлакларидан аёллар рўмолча тумор тикадилар ёки келин-куёвларга атаб тикиладиган кўрпа-ёстиқларга қуроқ сифатида фойдалинади.

"**Ололмайсан маросими"** тўй базми тугагандан кейин ўтказилади. Жиззах вилояти анъанавий тўйларида ўтказиладиган одатлардан бири. Тўй базми тугагандан сўнг келинни янгалари ва узатиб борган қариндош аёллар чимилдиққа киргизишга ҳозирланган миллий либосни кийинтирадилар ва хонанинг чимилдиқ рўпарасидаги бурчагида стулга ўтказиб, уни тўсиб туришади. Шундан кейин куёвни чопон билан бошини беркитган ҳолда чимилдиққа олиб киришади. Куёв томон бир тарафда, келин томон бир тарафда: "Ололмайсиз, хо-хо ололмайсиз", "Ололамиза, ололамиз" дея қўшиқ айтиб, рақсга тушишади. Куёв томонидаги янгалардан эпчиллари келин

ўтирган жойга келиб, чаққонлик билан уни бошини қашиб олишлари лозим бўлади. Куёв келин томонга келиб, келинни чимилдиққа ўланлар садоси билан олиб кириш бошланади. Келин куёв бир-бирига етган жойда "**ЭйЭқ бЭстъ**" маросими ўтказилади. Бундай пайтда одатда куёвлар келиннинг оёғини астагина босиб қўйишади ва чимилдиққа олиб киришади. Баъзи ҳудудларда бу маросим куёв келинни олиб келиш учун борганда, чимилдиққа киришади. Шунда урф-одатларга кўра "**ЭйЭқ бЭстъ**" маросими бўлади.

Чимилдиқда кўзгуга боқиш маросимлари. Келин чимилдиққа киргандан кейин янги сотиб олинган, лекин ҳали ҳеч ким боқмаган, ўраб қўйилган кўзгуни ёши кекса момолардан бири очиб келин куёвга тутади. "Ҳаётларинг ойнадек тиниқ бўлсин, кўз очиб кўрганинг билан қўша қаринглар", дея келин-куёвлар атрофидан ёқилган шам айлантирилади, сўнгра иссириқ тўтатилиб, уларга новвот чой ичирилади. Чимилдиқ атрофида ўтирган барча аёллар келин-куёв ичган новвот чойдан яхши ниятлар билан ичадилар. Баъзи ҳудудларда, Самарқанд, Навоий вилоятларида бу маросим давом эттирилиб, куёвнинг тўни ичига тухум солиш маросими ўтказилади.

Тўйдан кейинги маросимларни ифодаловчи этнографизмлар тўй кунининг эртасига келин саломи билан бошланиб кетадиган маросимлар номларидан иборат. Масалан, келин салом, чарлар, чаллади ёки келин чақирди, юз кўрар каби.

Келин салом-келинни тўйнинг эртасига қариндошларга таништиришга бағишланган тантананинг номи. Баъзи ҳудудларда тўй эртасига, баъзи ҳудудларда тўй куни келин салом маросими ўтказилади**.**

Чарлар, чаллади ёки келин чақирди-тўйдан кейин келин билан танишиш мақсадида куёвнинг қариндошлари томонидан ташкил этиладиган зиёфат, тантана бўлиб, бунда келин учун тансиқ таомлар пиширилади, чарлар ўтказувчи киши томонидан келинга совғалар тақдим қилинади.

Сарпо-бирор киши томонидан ҳадя қилинган бошдан оёқ кийим. Сарпо асосан, тўй-ҳашамларда қариндошлар ва қудаларнинг бир-бирларига кийим-кечакдан иборат совға улашишларидир.

Юз кўрар, юз очди -келин билан қариндошларнинг илк бор танишишлари. Бу анъанга кўра келиннинг юзини биринчи марта ёш болалар очади. Келинни кўрадиган қариндошлар маълум бир совға ҳадя этадилар.

Тўйда ўтказиладиган ўйин турлари ва улар билан боғлиқ номлар ҳам қадимий бўлиб, улар ҳозир ҳам давом этиб келмоқда. Навоий, Сурхондарё вилоятларида ҳозирда ҳам мавжуд. Сурх. көпкәри– улоқ чопиш, алыш//чавкъ– тўйда ўтказиладиган миллий кураш, **тƆбƆқ -** кўпкари ва курашда қўйиладиган соврин (мол, пул, материаллар), **қƆрәлъқ**– кўпкарининг энг мушкули, энг қийини. Ўртага ташланган улоқни кимки белгиланган чуқурга олиб келиб ташласа, иккита қўй, эллик сўм пул, бир тўн олади. **сƆвын**–тўйга қариндош-уруғ томонидан олиб келинадиган тўёна, кўпроқ қўй, эчки, қора мол[7]. Навоий вилоятида кўпкари ўйинида ўртага ташланган қўй ёки эчки **сƆлъм** дейилади. Мусобақада совринлар қўйилиб, ғолиб бўлганларга берилади. Тўй маросимларида ўтказиладиган ўйин турлари қадимий бўлиб, халқ маданиятини ифодалайди.

NAVOIY DAHOSIGA EHTIROM - MILLATIMIZ UCHUN SHARAF

Nodirqulova Marjona Bahodir qizi,
Navoiy davlat pedagogika instititi
3-boshqich talabasi

Annotatsiya: Maqolada Hazrat Navoiyning bebeho ma'naviy merosidan xalqimizni, ayniqa yoshlarimizni qanchalik ko'p bahramand eta olsak, milliy ma'naviyatimizni yuksaltirishda, jamiyatimizda ezgu insoniy fazilatlarni kamol

[7]Х.Файзиева.Ўзбек тили Бойсун-Шўрчи гурух шеваларининг луғат хусусиятлари.Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси.Термиз-2022.125б.

topishida shunchalik ma’naviy qurolga ega bo‘lishimiz mumkinligi haqida nazariy ma’lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: ijod, mubolag‘a, Xamsa, doston, xattot, komil shaxs.

Menga ne ishqu, ne oshiq havasdur,
Agar men odam o‘lsam, ushbu basdur.

Hazrat Navoiy fikri tiyran, ruhoniyati sog‘lom, haqiqat, rostlik va to‘g‘rikni umr mazmuni deb bilgan el uchun ijod qilish zaruriyatini chuqur his etgan. So‘z va fikr bilan odamni aldash, so‘z va fikr bilan yolg‘onni haqiqatga aylantirishga urinish millat manfaati uchun katta ziyon va kechirilmas gunoh ekanligini Navoiy har narsadan ortiqroq tushungan. Ulug‘ mutafakkir ijodiyoti mobaynida “So‘zda, Navoiy, ne desang, chin degil”, degan talab va shioridan mutlaqo chekinmagan. Bu –ijod tajribasida juda siyrak uchraydigan hodisa. Navoiy o‘n beshdan ziyod she’riy shakllarda qalam tebratgan. U g‘azal, ruboiy va boshqa turdagi she’rlarida insonga xos jamiki go‘zal his-tuyg‘ular, ezgulikka chorlovchi ma’nolarni tasvirlab bergan desa, mubolag‘a bo‘lmaydi.

So‘zda, Navoiy, ne desang chin degil,
Rost navo nag‘maga tahsin degil

Navoiyning o‘zbek tilida ilk marotaba “Xamsa” yaratishi chinakam ijodiy jasorat edi. “Xamsa” - besh ulkan dostonni o‘z ichiga olgan mukammal asar. Har dostonning o‘zi bir olamdirki, undagi g‘oyalar, haqiqatlar, necha o‘nlab qahramonlar taqdiri insoniyat qalbini abadul abad zavqlantirishga qodir. Alisher Navoiyning buyukligi va xalqimiz tarixidagi xizmatlari mutafakkir shoirligi bilangina belgilanmaydi, albatta. Navoiy badiiy ijod jabhasida qanchalik tengsiz bo‘lsa, ilmda, ya’ni olimlikda ham shunchalik benazir. Navoiyning tilshunoslik, adabiyotshunoslik, tarix va tasavvufshunoslikka bag‘ishlangan asarlari hanuzgacha o‘zining ilmiy qimmatini boy bergani yo‘q. Tilimiz, adabiyotimiz muammolarini hal qilishda bu nodir tadqiqotlarga qayta-qayta murojaat qilishimiz, ayniqsa, yosh avlod ulardan puxta xabardor bo‘lishi zarur.

Alisher Navoiyning hayoti, adabiy, ilmiy merosini o‘rganish olijanob mehnat. Uning tarjimai holi, merosiga qiziqish XV asrdan boshlangan. Navoiy

asarlari o‘z zamonasidayoq mohir xattotlar tomonidan qayta-qayta ko‘chirilib, xalqqa yetkazilgan bo‘lsa-da, navoiyshunoslik yigirmanchi asrda yangicha shakllandi. Yoshlarimiz Navoiyni qanchalik chuqur va puxta bilsa, ma'rifat, ezgulik, komillik sirlarini o‘shancha kengroq egallaydilar. Alisher Navoiyning so‘zlari diliga o‘rnashgan odam, o‘zi istasin-istamasin odamiylik sharafi va kuch-quvvatini idrok etadi. Navoiy saboqlariga amal qilgan kishi o‘z-o‘zidan xalq dardu tashvishlarini yengillatishga bel bog‘laydi, fikrni – fikrsizlikka, ilm-ma'rifatni– nodonlikka va jaholatga qarshi qurol o‘rnida ishlatadi. Navoiyni yetarli darajada bilish– adolat, diyonat va imon-e'tiqodning kuchiga ishonch demak. Ko‘nglida shu ishonch g‘olib bo‘lgan odamlar soni jamiyatimizda qancha ko‘paysa, insoniy muammolar har qalay kamayib boradi.

Navoiy asarlaridagi aql-zakovat durdonalarini o‘zlashtirish ham barkamollikka erishishning muhim omillaridandir. “Mahbub ul-qulub” dagi satrlarning ko‘pchiligi shu qadar aql-zakovat bilan yo‘g‘rilganki, ular xalq maqollari darajasida mashhur bo‘lib ketgan. Masalan: “Chin so‘z mo‘tabar, yaxshi so‘z – muxtasar”, “Bilmaganni so‘rab o‘rgangan – olim, orlanib so‘ramagan – o‘ziga zolim”, “Oz-oz o‘rganib – dono bo‘lur, qatra-qatra yig‘ilib-daryo bo‘lur”. Asardagi chin so‘z va uni aytish odobi, me'yori haqidagi mana bu misralar ham barkamollik tarbiyasida ahamiyatlidir:

Xiradmand chin so‘zdin o‘zga demas,
Vale bori chin ham degulik emas.
Kishi chinda so‘z desa, zebodurur,
Necha muxtasar bo‘lsa, avlodurur.

Alisher Navoiy ijodining aksariyat qismi barkam ol avlod tarbiyasiga bag‘ishlangan, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Bu asarlar mazmuni va g‘oyalarini o‘qib o‘zlashtirishning o‘zigina kifoya emas. Ular yoshlarimizning hayoti va faoliyatida o‘zining amaliy ifodasini topmog‘i zarur.

Eng muhimi, diniy hayotdagi mahdudlik va chalg‘ishlar yosh avlod ongidan tezroq barham topadi. Bunga sira-sira shubhalanmaslik lozim. Alisher Navoiy

mumtoz adabiyotimizning markaziy siymosi. Turkiy adabiyotning eng ilg‘or va bezavol yutuqlari shoir she'riyatida mujassamlashgan. Buni Ozarboyjonning benazir shoiri Muhammad Fuzuliy, turkman klassigi Maxtumquli, qozoq shoiri Abay, qoraqalpoq yozma adabiyotining asoschilaridan bo‘lmish Berdaqning e'tiroflaridan ham anglash mumkin. Demak, Navoiy ijodi qardosh xalqlar bilan bo‘lgan asriy aloqalar, do‘stlik munosabatlarini yanada mustahkamlash va yangi pog‘onalarga ko‘tarishdagi o‘ziga xos muhtasham asosdir.

Kimki jahon ahlida inson erur,
Bilki, nishona anga iymon erur.

Navoiy va Jomiy o‘rtasidagi ustoz-u shogirdlikni esa har qancha ibrat qilib ko‘rsatsa, o‘shancha kam. Chunki bunday hodisalar ko‘hna tarix uchun ham kamyobdir. Xullas, keyingi yillarda biz Navoiyning tilimiz, madaniyatimiz, adabiyotimiz rivojidagi tarixiy xizmatlarini nisbatan chuqur anglay boshladik. Navoiyning qudratli shaxsiyati, betakror ijodiyoti, ijtimoiy, siyosiy faolligi, bunyodkorlik g‘ayrati xususidagi tasavvurlarimiz nisbatan o‘zgardi.

Foydalanilgan adbiyotlar ro‘yxati

1. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. 20 tomlik. Xamsa: Farhod va Shirin. – T.: 1991-yil
2. Imomnazarov M., Eshmuhammedova M. Milliy ma'naviyatimiz asoslari. T.: 2012-yil
3. Qilichev E. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Buxoro: 2010-yil
4.Alisher Navoiy. Badoye' ul-vasat. O‘n besh tomlik. 3-tom. Toshkent: "O‘zbekiston badiiy adabiyoti nashriyoti", 1968. 411 bet.

Әбдірахман Жәми мен Әлішер Науаи шығармашылығының өзектілігі

Жураева Гүлмира – Кенимех ауданы ХББББне қарасты 28-санды жалпы орта мектептің бастауыш сынып оқытушысы

15-ғасырда Самарқанда, Бұхарада, Қиратта әдеби өмір қалпына келе бастайды. Жәми бастаған парсы тілінде жазатын жазушылар ерте дәуірдегі

классикалық поэзияның үлгілі үрдістерін одан әрі дамы- тып, алға апара бастайды. Формалистік түр қуушы эпилок та пайда болады. Осы кезеңнің аяғында тәжік-өзбек әдебиетінің бұрыннан келе жатқан өзара байланысы күшейеді. Бұған Жәми мен Науаи достығы үлкен себеп- кер болады. Осы уақытта екі тілде жазатын қаламгерлер шығады.

Жәми – XV ғасыр поэзиясындағы жарық жұлдыздардың бірі. Гераттың беделі күшті еді, өзбектің ұлы ақыны Әлішер Науаи екеуі арадан қыл өтпестей достықта болады. Науаи өзінің «Нәзіктікті талдауыштардың мәжілісі» дейтін атақты антологиясында Жәми жөніндегі жылы пікірлер білдіреді. Жәми Герат қаласында 1492 жылдың 9 қарашасы күні дүние салды. Жерлеуге халық көп қатысады. Науаи жақын досы Камилиддин Абдульас Низамиге ұстазының толық ғұмырнамасын құрастыруды тапсырады, өзі Жәми жайлы «Абыржығандардың бестігі», «Хамсат аль мутахай-иран» кітабын жазады, ұстаз досымен кездесулерін, әңгімелерін келтіреді.

1469 жылы Науаи Гератқа келеді. Екі ақын бір-бірімен танысады. Таныстық бертін келе үлкен достыққа ұласады. Науаи Жәмиді өзіне ұстаз санайды. Біраз мәселеде екеуінің көзқарастары бір жерден шығып отырады. Екеуі де соқыр сопылықты, жемқорлықты, зорлықты ұнатпайды.

Жәми мен Науаи арасындағы қатынас тек ұстаз пен шәкірттің арақатынасы емес, бұлар бір-бірін терең түсінетін достар еді, Науаи талантына Жәми әрдайым жігер отын қосып отырды, өлең жазудағы шеберлігіне риза болды. Жәми өзінің дастандарында Науаи ақындығының жетістік жақтарын қуана айтты. «Жүсіп- Зылиха», «Ләйлі-Мәжнүн» шығармаларында Науаи шеберлігіне тәнтілігін көрсетті. «Ләйлі-Мәжнүн» поэмасында Науаи туралы Жәми былай дейді: Достығыңды кеңейтеді дос деген, Үмітіңдей құрма ағаш көктеген. Достық кілті көнермейтін қазына, Мәз боларсың мерекелі жазыңа. Достық деген дарқан бағың, сенімің, Әсем әндей әлдилейді сені мың. Жазады ол жаралы жан жүрегін, Содан табам дүниенің тірегін.

Екі ұлы ақынның арасындағы достық көпірі осылай қаланған. Науаи «Ескендір» поэмасын жазып бітіргеннен кейін оны оқыту үшін Жәмиге алып барады. Өйткені, бұл түркі тілінде жазылған жәдігерлердің бірі. «Сондай үлкен еңбекке жанашыр кісінің құнды пікірі керек еді. Жәмиден басқа кім айтады. «Дастанды» сондықтан алдым да, апарып оның алдына қойдым. Бүкіл сөздік байлығымды оның аяғына төктім. Менің қайығым кітап теңізіне қарай жылжығанда, ол қолын созды. Әр парағын байыппен қарап оқыды. Оқып отырып, сауал қойды, мен жауап бердім. Сонда ол жауабыма риза болды»,– дейді Науаи.

1476-1477 жылы Науаи Жәмидің басшылығымен Нақшбанди қауымына кіреді. Бұл ұйымның негізін қалаушы Бехаад- дин Нақшбанди болатын, оның суфизмі – өте-мөте беріліп кеткен сорақы сопылық емес еді. Адамның басты міндеті – өзінің жақынына қызмет ету деп білді, адамдарға шыдамды бола білу керек деді. Жәми өмірі бұл ұйымға кірген соң да өзгермеді, ғылыми жұмыспен айналысты, айналасындағы жақындарына, достарына көңіл бөлді. Науаи да осы ұйымға кіреді, Мұндағы ойы Жәмимен онан сайын жақындаса түсу еді. Жәми – суфизмді өзінше түсінді. Тентек, білімсіз, бұзақы дәруіштерді ол жек көрді. Гераттың бір жас жігіті Самарқандқа барып, дәруіштерге қосылады да, солардың ілімін үйреніп келеді. Жәми оған айтады: «Мавераннахрға барам деп, сен сопылыққа әбден бас шұлғып келіпсің, пайдалы ілімді үйренбекке ұмтылмапсың. Барлық ойынды ғылым мен даналықты меңгеруге бағыштаған абзал. Біз надан сопылардың өмір ерекшеліктерін зерттеп, байқадық. Бұлардың бәрі де қараңғы әрі зиянкес адамдар». Бұл тұста Жәми мен Науаи көзқарастары дөп түсті. Жәми шәкіртінің өлең жазуындағы талантын жоғары бағалады, адам сүйгіштігін қадірледі, өзі де оған қайырымды, кең еді. Сонымен, екі ұлы ақынның достығы ел арасында аңызға айналған.

Қарап тұрсақ, Науаи дастандарының бірінші оқырманы Жәми болған екен. Досының, шәкіртінің шығармаларына Жәми мен арадағы қарым-

қатынасының қалай болғанын жазып кеткен. Науаи досына керек кезінде қаржылай, заттай көмек беріп тұрыпты. Екі ақынның махаббат, достық, адамгершілік дүние жайлы ойлары бір-бірімен үндесіп отырған. Сондықтан да бұл екеуінің тамаша достығы кейінгі ұрпаққа аңыз болып қалған. Жәми поэзиясының ең басты кейіпкері де, тақырыбы да – адам. Идеясы да адам. Сондықтан да сонау XV ғасыр көгінен жарық жұлдыз боп көрінген, уақыт озған сайын жарығын барлық ғасырларға таратып келе жатқан қымбатты есім, Әбдірахман Жәми мен Әлішер Науаи есімдері –тарихтың сайы!

Пайдаланған әдебиет:

1. **Шығыс шайырлары.** Бес томдық / **Өтеген Күмісбаев**. – Алматы: РПБК «Дәуір», 2015.

ӘЛІШЕР НАУАИ – ІРІ ҒҰЛАМА ӘРІ ҒАЛЫМ

Жураев Маратжан, Рақметова Алия –
Нұрата ауданы ХББББне
қарасты 23-санды жалпы орта
мектеп оқытушылары

Әлішер Науаи дәуір кешкен кез Орта Азия мен Хорасандағы қоғамдық һәм саяси өмір бір мазасыз шақты басынан өткеріп жатқан шақ еді. Ақсақ Темір (1336–1405) қайтыс болғаннан кейін таққа таласушылардың арасында қым-қиғаш күрес басталып кетті. Әрқайсысы өздері жеке ел билегісі келді. Сөйтіп, біріне-бірі шабуылға шығумен,соғысумен болды.

Тимурийлер тұсында ғылым мен мәдениет өркендей бастады. Қытай, Үндістанмен дипломатиялық қарым-қатынастар орнады. Біраз озат ойлы адамдардың іс-әрекетіне тұсау салынды. Солардың бірі Ақсақ Темірдің талантты немересі Орта Азияның ұлы астрономы Ұлықбек еді, ол жаулардың қолынан 1447 жылы қаза тапты. Ұлықбек әскери қызметке, ел шабуға, таққа отыруға қызықпады, өйткені, ол – нағыз ғалым кісі. Оның кезінде Самарқанд шаһарында медреселер ашылды, шәкірттер астрономиядан, математикадан дәріс алды. Ұлықбек орнатқан обсерваториядан аспан әлемінің жұлдыздары

бақылауға алынды. «Зиджи-и-Кургани» деп аталатын Ұлықбектің әйгілі астрономиялық таблицасы содан қалған болатын. Мінеки, Әлішер Науаи алдында ғұмыр кешкен Ұлықбек сондай ірі ғұлама еді.

Әлішердің шешесінің ағасы Хуснихат көшіруші болыпты, әрі музыкадан, өлеңнен хабары болса керек. Әлішердің әкесімен бірге туған кісінің баласы – Сабухи деген ақын еді. Сондай өнерлі ортада өскен бала жас кезінен бастап-ақ жақсы жырларды жиналған топтың ортасында жатқа айтып жүріпті. Жас шағынан өлеңмен, ғылыммен айналысады. Ұлықбек өлгеннен кейін Гератты оның жиені Әбілқасым Бабыр билейді, оған 14 жастағы тимуридтер әулетінен шыққан Сұлтан Хұсейін көмектеседі. Әлішер Науаимен екеуі мектепте бірге оқиды, ұзақ жылдар достық қарым-қатынаста болады. 1457 жылы Әбілқасым Бабыр өледі. Әлішер Мешхед қаласына көшеді. 1469 жылы Сұлтан Хұсейін Байқара таққа отырғанда Гератқа қайтып оралады, сұлтан оған сарай маңынан төрелік қызметті тапсырады. 1472 жылы ақын уәзір болып сайланады.

Әлішер Науаи өзінің қызметін халыққа қызмет етуге жұмсап отырады. Хұсейін Байқараға сондай бағыт сілтеп, ақыл-кеңестер береді, оған үміт артып, сұлтан ұрпағы өзара жерге, байлыққа таласып, елдің мазасын кетіреді.

Феодалдық соғыстар шаруаларды күйзеліске ұшыратады, мемлекет әлсірейді. Сарайға, сұлтанға қызмет етудің мәнсіздігін түсінген ақын одан бірте-бірте бойын аулақ ұстай бастайды. Адамды қорлауға, қанауға қарсы тұрады. Осыған орай Науаиді көзімен көрген Хондемир деген тарихшы мынадай мысал келтіреді. «Бір күні»,– дейді Хондемир: «Сұлтан Әбусейттің әмірлері Джехер қаласының қасында болған шайқастан соң Сұлтан Хұсейіннің бір әскери отрядын тұтқынға алады. Олардың бірқатарының басын алып, Әбусейітке жібереді. Екі тұтқын Сұлтан Хасанның үлесіне тиген еді. Мұны Әлішер көрген еді. Лагердің бастығы әлгі екеуін алып келіп, мыналардың да басын қағып Әбусейітке жөнелтіңіз дейді. Сонда Әлішер тұрып, Шатырдың қожасына былай депті: «Анау соғыс даласының бір

жерінде домалап жатқан адамның басын көріп едім, жендетке бір-екі теңге беріп, сол басты алдыртыңыз, сонда мына мүсәпірге бостандық береді».

Шатыр иесі Әлішердің айтқанын істейді, әлгі тұтқынға азаттық беріледі. Енді екіншісін құтқаруды ойластырады. Сөйтіп, тұрғанда лагердің бастығы келіп: «Енді өлтірмеңдер бір бас та жетеді»,– дейді. Сол жер- де оған әлгі даладан әкелінген бас табыс етіледі. Сөйтіп, екі тұтқын аман-есен құтылып, бостандық алады. Тағы бір мысалды Хондемирден алайық. «Мәртебелі жеңімпаз Сұлтанның, Хұсейн Байқараның шенеуніктері қаражат жинау жағына келгенде қарамағындағыларды қыспаққа алушы еді, сондай жағдай Әмір Әлішерге бағынышты елге қиын боп қалмасын, өкіметтің тірегі шайқалмасын деп, өз қаражатынан төлеп жіберетін және «Бірде»,– деп жазады Хондемир: «Сұлтан Хұсейн мырза Мазандаранда жүр еді, сол жақтан Мұхаммед Уәлибекке бұйрық жібереді. Бұйырғанда қажет болған жағдайда Герат пен оның маңайындағы халықтан жүз мың кебек жинап беруің керек дейді. Мұхаммед Уәлибек дереу сол маңайдағы ел- ден елу мың динар жинайды, қалғанын Герат халқынан жинамақ болды. Бұны біліп қалған Әмір Әлішер «жеңімпаз сұлтанымыздың халықты бұлай мазалуын орынды дей ал- маймын, мұндай уақытта мұнша алтынды халық қайдан табады», дейді. Дейді де өз қазынасынан төлеп жібереді». Әлішер есімінің аңыздай таралып кетуінің бір себебі – осында жатса керек. Талай рет халыққа орынсыз түскен салықтың ауыртпалығын өзі көтеріп, итше ырылдасқан сұлтандарды бітістіріп, араздасқан әке мен баланы татуластырып тыным таппайтын Әлішерді өскен ортасы қатты қадірлеуші еді.

Науаи адамның ақылы мен біліміне зор сенім артқан кісі, ол адам баласын сүйе білді, оның кемшіліктеріне жаны ауырды, жетістіктеріне қуана білді. Ақынның лири- касы да, эпикалық шығармалары да кісі қулығын, мінезін жақсарту мәселелеріне арналды. Әлішер өз уақытындағы ғылымның бар саласынан білім сусынын тартты. Гератта, Мешхедте, Самарқандта оқыды. Жас кезінен-ақ екі тілде, ескі өзбек және парсы тілдерінде лирикалық

өлеңдер жаз- ды. Өзбекше өлеңінің соңына «Науаи» (Әуезді), ал пар- сыша жазғанда «фәни – жалған» деп қойды. Ол небәрі47 мың жол өлең жазыпты, азырқанатын қазына емес. Солардың ішінен ақынның «Хамсасы» (Бестік) ерекше орын алды. Шығыс әдебиетінде бес дастаннан тұратын поэмаларды жазған әзірбайжан ақыны Низами (XII ғ.) еді. Содан кейінгі бестікті жазған Әмір Хосроу Дехлеви (XIII ғ.) болатын, бұдан кейін Әбдірахман Жәмиге кезек тиді. Ал түркі тіліндегі «Бестікті» бес поэманы тұңғыш жазған Әлішер Науаи болатын. Бес дастанды Науаи 1483– 1485 жылдардың ішінде, яғни екі жылда дүниеге келтірді. Әлішер Науаидің бұл дастандары – оның ақын досы Әбдірахман Жәмиден үлкен бағасын алады.

Ә.Науаи шығармаларында шығыс поэзиясына тән жақсы қасиеттердің бәрі тоғысқан еді. Шығыс ойшылдарының әдеби тарихи шығармаларын терең оқып, зерттеген Науаи өз халқының әдеби мұрасын жасау ісіне үлесін қосады. Ана тілінде тағлымы мол туындылар жазды. Өзбектің нағыз жазба әдебиеті Науаи шығармашылығынан басталады.

Төрт лирикалық өлеңдер жинағы мен бес поэма – Науаи талантын дүние жүзіне танытты. Ол туған халқының әдебиетіне арқасын сүйеп отыра жазды. Науаи дастанда- ры Низами, Әмір Хосроу, Жәми шығармаларымен сырт- тай ұқсас болғанымен, іштей айырмашылықтары бар екені айқын. Бес кітаптың өзі – бес саусақтай бір-біріне ұқсамайды. Бірінші поэма – Хайрат алабрар (Жақсыларды таңқалдыру үшін) деп аталады. Ақын мұнда әділетсіз әкімдерді, діни сопыларды, парақорлықты, талау- тонаушылықты өткір сынайды. Адам еңбегін қанаудан сақтандырады. Ескі Иран патшасы Бехрамның қатал әрекеттері арқылы ақын, ел талауды, ел талаушыларды, әкіреңдеген әкімдерді, сұрықсыз сұлтандарды әшкерелейді. Орта ғасырдың оспадар, ойсыз заңдарын сынай отырып, адам мен адамның, халық пен халықтың достығын жырлайды.

Достық жөніндегі өрелі ойларын Науаи «Фархад – Шырын» дастанында кеңінен жалғастыра түседі. Мұндағы қаһарман Фархад қытай өкілі, яғни

қытай патшасының баласы, оның сүйгені Шырын – армян қызы. Шапур – тегі ирандық. Әсіресе, Фархад образына автор ерекше назар аударады. Фархад – еңбек сүйгіш, махаббатына берілген, нағыз ержүрек адам. Иран шахы – Хосроу оған қарама- қарсы алынған бейне. Хосроу шах Армения жеріне ауыз салып, халқын талан-таражға салады. Сонда армян елін қорғауға Фархад белсене шығады, шынайы, биік махаббат – шығарманың негізгі өзегінің бірінен саналады.

Және бір дастанында ақын махаббат сезімдерін жан-жақты қырымен жырлайды. Бұл сюжет жалпы шығыс халықтары әдебиетінде бұрыннан кең таралған. Науаи өз заманының перзенті, сондықтан да қай жәдігерлерінде болмасын өзі өмір сүрген ортаның үнін, бояуын, тілегін қосып отырады. Зерттеушілер «Ләйлі – Мәжнүн» поэмасын Батыстың «Ромео мен Джульеттасына» теңейді. Шығыстанушы М.Ю.Крачковский айтуынша, бұл ғашықтар жайындағы ғажайып қисса арабтар арасында XII ғасырдан бері белгілі екен.

Әзірбайжанның ұлы шайыры Низамиден кейін бұл тақырыпқа қалам тартушылардың бірі Науаи болса керек. Ол ауызша және жазбаша танысып, көп іздену жолдарынан өтіп барып, мұңлы махаббаттың жырын жазып шығады. Сырттай қарағанда Әлішер Науаи араб сахарасында болып өткен оқиғаны айтып беретін секілді, бірақ мәселе тереңіректе жатыр. Ақынның «Ләйлі – Мәжнүні» өзі өмір сүрген заман тынысымен тығыз байланыста туғаны хақ. Автор феодалдық салт-санамен, керітартпа қылықтармен, жауыздықпен күреске шақырады. Дастан адамгершілікке, жастық сезімді қадірлеуге, бақыт үшін күресе білуге үндейді. Сөйтіп, Ләйлі мен Мәжнүннің эпикалық бейнелерін сомдады. Мәңгілік махаббатқа ешқашан кіршік аялдамасын, жастар қапалықта кетпей, сүйгеніне қосылсын, жас жүректердің мөлдір сезімдері қорланбасын дейді ақын. «Ләйлі-Мәжнүндегі» дастанның екінші, яғни 1448 жылы жазылып біткен көлемі үш мың бес жүз жолдан тұрады.

Бір жылдан соң 1485 жылы Науаи «Ескендір» поэмасын жазады. Кіріспесінде автор құдай, пайғамбар жайлы айтады да, әрі қарай ескі иран тарихына шолу беріп, Ескендірге байланысты негізгі материалдарға сілтеме жасайды, сосын басты кейіпкерінің өміріне көшіп кетеді. Ескендір патшалығының алғашқы күндерінен бастап-ақ езушілерді, қанаушыларды жазалайды, халықты екі жылдық салықтан босатады, бағаны реттейді. Мұның бәрін Науаи әдейі сұлтандарға бағыштап айтады, әдейі солар құлағына ілсін, өкіметті дұрыс басқаратын үлгі алсын деген мақсатты мегзейді.

«Сәбғэй сеярә» (Жеті планета) – Науаидің төртінші поэмасы. Бұл шығармасында ақын ертегі сюжеттерді көбірек қолданады, бұл шығарма тоғыз мың жолдан тұрады.

Шығарманың басты кейіпкері – Иран патшасы Бахрам-Гур, дәл тарихта болған иран патшасы Варахран Y-ден өзгешелеу алынған, ержүрек жауынгер, білімді үкімет басшысы, әскери қолбасшы, әділетті қорғаушы, махаббат иесі болып суреттеледі. Құландарды жиі аулаған қатаң шахтың есіміне парсыша «гур-құлан» деген қосымша ат тағылған. Бұл образға Фирдоуси да өзінің атақты «Шахнама» кітабында көңіл бөлген еді. Кейін «Бахрам-Гур» жайына Низами, Әмір Хосроу, Дехлеви де тоқталды. Осы тақырыпқа қалам тартқан ақындардың туындыларына Әлішер Науаи сын көзбен қарап, ойларын ілгері дамыта білді. Бахрам-Гур бейнесін автор бұрынғылардай бірыңғай жырлап кете алмады. Олардың осы сюжетке жазғандары Науаидің айтуынша «Махаббат шуағына оранбаған» еді. Ақын бұл тақырыпта өзінше жол тауып кетеді. Мифологияда, тарихта әңгімеленетін Бахрам жайын Науаи өз ортасына жақындатып, жырына қосады.

Пайдаланған әдебиет:

1. Шығыс шайырлары. Бес томдық / Өтеген Күмісбаев. – Алматы: РПБК «Дәуір», 2015.

НАВОИЙ АСАРЛАРИДА КОМИЛ ИНСОН ҒОЯСИ

Абдусалимова Маҳфуза – Тошкент шаҳар Миробод тумани 125-мактаб

Инсониятнинг шу кунгача босиб ўтган мураккаб ривожланиш йўли мақсадларга фақат ва фақат узлуксиз маънавий тарбия билангина эришиш мумкинлигини исботлаган. Маънавият – инсон ҳаётининг асоси. Иродани бақувват қиладиган ва виждонини уйғотадиган беқиёс куч. Барча дунёқарашнинг муҳим мезонидир.

"Ер юзида қанча инсон, қанча тақдир бўлса, ҳар бирининг ўз маънавий олами бор. Маънавиятни англаш учун инсонни англаш керак. Шунинг учун ҳам ўзлигини, инсоний қадр-қимматини англаб етган ҳар қандай одам бу ҳақда уйламасдан яшашини тасаввур қилиш қийин", - деб ёзади Ўзбекистон Республикасининг биринчи Президенти Ислом Каримов "Юксак маънавият-енгилмас куч" асарида. Мумтоз адабиётимиз намоёндаси Алишер Навоий даҳоси ва унинг асарларидаги қаҳрамонлар тимсолида комил инсонни англаш унчалик қийин эмас. Миллат қалбини билиш, халқимиз ҳамиша умумбашарий тараққиёт марказида яшаганини, ўзига хос ҳаёт қоидалари ва тафаккур тарзига эга миллат эканини, бировдан ўрганишдан кўра ўргатишга арзирли мероси кўплигини бошқаларга англатиш ҳар бир ўзбекнинг бурчидир.

Донишмандлар айтганидек, илм, китоб-кўнгил шамчироғи. Авлодларимиз ўз аждодлари қолдирган маънавий меросларини билишлари, уларга муносиб бўлиб яшашга интилишлари керак. Бунинг учун эса уларни китоб билан дўстлаштириш лозим. Зеро, аҳли илмлар айтганидек: "Китоб қалбни ёритади, инсонни юксакликка кўтаради, энг яхши орзу-истакларни уйғотади, ақлни чархлайди". Алишер Навоий: "Бу дунё – кўҳна карвонсарой, карвонлар ҳали тўхтаб улгурмасдан кўчиш ноғораси чалинади" - дейди. Аслида ҳам ақли расо одам бебаҳо нарсага эмас, икки дунё саодатига муҳаббат боғлайди. Ҳазрат Навоий айтадики, булут ўз сувларини экинлар

униши учун сочгани туфайли ҳам у "гардунжаноб" бўлди – юксакликка кўтарилди, дўл дов-дарахтлар мевасига зарар етказгани учун ҳам қора тупроққа қорилди, дейди. "Режа чекмай зеб берилган боғ" ва чангалзорни фарқсиз кўради. Шатранж доналари тартиб билан терилмаса, мақсад сари йўналтирилмаса, улар бир уюм ёғоч холос, дейди. Инсон ўз ҳаётини улуснинг навобахш бўлиш йўлида бахшида этиши, ўзидан яхши ном қолдириб, ажаб, чин саодатга эришиши лозимлигини, бунинг учун худди шам каби фидойи бўлиш кераклигини таъкидлайди.

То ҳирсу ҳnarzullaавас хирмани барбод ўлмас,

То нафсу ҳаво қасри барафтод ўлмас,

То зулму ситам жониға бедод ўлмас,

Эл шод ўлмас, мамлакат обод ўлмас.

Навоийнинг ушбу сатрлари қайси замон ва маконда янграмасин, инсонга ахлоқ, дид, эътиқод, тасаввур ва тафаккурнинг энг эзгу ғояларидан, ҳар қадамда маънавий жасорат ҳисси билан яшаш саодатидан сабоқ беради. Алишер Навоий сахийликни комилликка элтажак йўл дейди. Аммо бугун атрофимиздаги кўп одамларнинг бу борадаги тушунчаси, дунёқараши, исрофгарлиги улуғ шоирнинг: "Ёяр анга суфраки – ул оч эмас, берур анга тўнки – яланғоч эмас", - деган ҳикматини эсга солади. Улки эл кўрмагунча бермас – лаимдур (хасис, очкўз ва пасткашдир), сахий эмас. Тилаб берганни ҳам саходан йироқ бил; ибром (қистов) билан бергандан бермагани яхшироқ бил. Битта ўтмакни (нонни) икки бўлуб, ярмин бир очға берганни сахий де, ўзи емай барин муҳтожға берганни ахий (жавонмард) де, - дея уқтиради Навоий.

Алишер Навоий адабиётнинг башарият ҳаётида тутган ўрнини тўғри ва чуқур тушунган. Жумладан, у ўзининг муқобилсиз "Хамса"сида шахснинг комил инсон билан етишиш учун нималардан ўзини тийиши, ҳазар қилиши, аксинча, қандай хулқ-атворга, хислат ва фазилатларга рағбат кўрсатиши лозимлигини юксак маҳорат билан тасвирлаб беради. Шоирнинг инсон

ҳақидаги фикрлари "Хамса"нинг "бисмиллоҳ"идан бошланади, яъни унингча, "бисмиллоҳир раҳмонир раҳийм" шундайин бир бебаҳо маржондирки:

Ҳар дур анга жавҳари жондин фузун,
Ғиймат аро икки жаҳондин фузун.

Ана шундай дурлар тузилган маржоннинг ипи эса "жаҳону жон" риштасидур. Агар буларни биз маржоннинг хусусияти деб қабул қилсакб унинг фазилати бошқа ҳолатда намоён бўлади. Кимки, шу маржонни тасбиҳ этиб, кўнгил билан ҳақ йўлига ҳаракат қилса, ганжи бақони (абадийлик хазинасини) қўлга киритади.

Нега инсон бунчалик шарафга лойиқ ва эъзозли? Чунки, у ўзга махлуқотлардан фарқ қилиб, Оллоҳнинг каломига комил: бундан ташқари, у яратганнинг яширин сирларини ўзида ташувчи, гўё Оллоҳ ҳикматлар хазинасининг бир бўлаги бўлган махлуқдир:

Турфа камолингға доғи комил ул,
Сирри ниҳонингға доғи ҳомил ул.
Кўнглига қилдинг чу яқин ганжи қисм,
Жисмини ул ганжга қилдинг тилсим.

Шунинг учун ҳам инсон, шаънига: "каррамно-бошқа махлуқлардан мукаррам қилдик". "Аҳсани тақвим – энг чиройли яратилган", деган мақтовлар ёзилган.

Инсон, қолаверса комил инсон Алишер Навоий талқинига кўра, Тангри таоло томонидан ожиз, ҳикмат ва фазилатлардан холи сифатида яратилмаган. У – Оллоҳнинг мўъжизалар хазинаси. Шу билан бирга инсон комил ақл ва фаҳмга эга бўлган ориф махлуқдир.

Маънавиятга таянган инсон икки дунё саодатига, яъни комил инсон даражасига эришади. Шундай фарзандлари кўп миллат абадул-абад ҳаётни англаб, ўзгаларга ҳам англатиб яшайди. Алишер Навоий ҳикмати, насиҳати,

дуоси билан айтганда, инсон “қуёшлик истаса”, “касби камол эт” иши - ҳар ишда мукаммалликка, баркамолликка интилиб яшаши лозим.

“HAYRAT UL-ABROR” DOSTONIDA NAVOIYNING FALSAFIY QARASHLARI

Hayitova Aziza Ibragimovna,
Navoiy viloyat Navbahor tuman 9-maktab
ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi

Kelajagimiz egalari bo‘lmish bugungi kun yoshlari qalbiga go‘zal fazilatlarni singdirishda adabiyot darslarida o‘rganiladigan badiiy asarlar, jumladan, Alisher Navoiyning inson tarbiyasi haqidagi axloqiy-ta’limiy, falsafiy, tarbiyaviy ahamiyatga ega asarlari chinakam ta’lim-tarbiya manbai hisoblanadi.

Shuning uchun ham Alisher Navoiyning ijodi umumta’lim maktablarining barcha sinflarida o‘rganiladi. Jumladan, 5-sinf “Adabiyot” darslarida Alisher Navoiyning “Hayrat ul-abror” dostonidan “O‘ninchi maqolot” to‘g‘rilikning qanchalar azob bilan bo‘lsa-da, g‘olib kelishi, yolg‘on va egrilikning oxir-oqibat yengilishining tasvirlanishi taqdim etilgan. Bunda mavzuni boshlashdan avval Navoiyning hikmatlai bo‘stoniga sayr qilish juda yaxshi natija beradi:

Yaxshilikni o‘yla-unga yetishasan.
Uch narsa iymondandur: hayo, vafo, sahiylik.
Kishining so‘zi aqliga dalolat.
Inson salomatligi tilini tiyishdandir.

Navoiy ushbu hikmatlariga hayoti davomida o‘zi ham rioya qilganligini, ezgu insoniy fazilatlar, avvalo, o‘zida mujassam bo‘lganligi haqida gapirish, shuningdek, Navoiy haqidagi xalq afsonalari va ertaklarini misol tariqasida keltirish ham darsda yaxshi samara beradi.

O‘quvchilarni Navoiy ijodiga qiziqtirib olgach, “Hayrat ul-abror” Alisher Navoiyning “Xamsa” asariga kirgan birinchi dostoni ekanligi hamda qator nazariy ma’lumotlarni berish mumkin. Ya’ni mazkur doston 63 bob, 20 maqolatdan iborat

falsafiy, axloqiy-ta'limiy asar hisoblanadi. Dostonning bir necha bobi bevosita odob-oxloq hamda ta'lim-tarbiya masalalariga bag‘ishlangan. Dostondagi maqolatlar himmat va saxiylik, odob va kamtarlik, insonlar bilan munosabat, muomala odobi, bola tarbiyasi, qanoat va mehnatsevarlik, vafo va sadoqat, hamjihatlik, ilm olish, elga foyda keltirish kabi illatlar haqida hikoya qiladi.

Berilayotgan ma'lumotlar ta'sirchanligini ta'minlash maqsadida "Himmat va saxiylik haqida"gi beshinchi maqolatdan baxillik va xasislikka qarshi saxiylik va himmatni ulug‘lovchi, saxiylikda isrofdan saqlanish, o‘z halol mehnati bilan kun ko‘rish har qanday saxiyning himmatidan ham yuqori ekanini ta'kidlovchi "Hotami toy" hikoyatini keltirish muhim. Hikoyatda o‘tin terib kun kechiruvchi kambag‘al bir cholning Hotamdan ham saxiy va oliyhimmat ekanligini ta'kidlagan.

"Odob va kamtarik haqida"gi oltinchi maqolatda Navoiy odob va kamtarlikni ulug‘lab, odobsizlik va takabburlikni qoralaydi. Bola tarbiyasida ota-onaning vazifalari, bolalarning ham ota-onalari oldidagi burchlari haqida fikr yuritiladi:

Boshni fido ayla ato qoshig‘a,
Jismni qil sadqa ano boshig‘a.
Tun-kuningga aylagali nurfosh,
Birisin oy angla, birisin quyosh.
So‘zlaridan chekma qalam tashqari,
Xatlaridan qo‘shma qadam tashqari.

Bu misralar o‘quvchilar bilan birgalikda sharhlanadi. Navoiy Ushbu bobda kishilar bilan munosabat haqida ham fikr yuritadi. Kattaga hurmat, kichikka shavqat qilish, hurmatni xushomatga aylantirmaslik, o‘rinsiz kulgi kabilar haqida:

Kimki ulug‘roq, anga xizmat kerak,
Ulki kichiqroq, anga shavqat kerak.
Izzat haddin kam esa xo‘b emas,
Haddidin ortug‘ dog‘i marg‘ub emas.

Dostondagi rostgo‘ylik va to‘g‘riso‘zlikka bag‘ishlangan “O‘ninchi maqolat” ning she’riy va nasriy bayoni uyga vazifa qilib topshirilganligi sababli o‘quvchilarda mavzu haqida paydo bo‘lgan dastlabki tushunchalarni yanada chuqurlashtirishga harakat qilinadi. Shu bois matndagi ma’nosi notanish bo‘lgan:

tuzluk –to‘g‘rilik	gavr – haqiqat, tubiga yetish
kajrov – egri yuruvchi	tavr –xil, holat
go‘shmol – quloq burash	kizb –yolg‘on

kabi so‘zlarni yozuv taxtasiga yozib qo‘yish va izohini berish juda samarali. Maqolatda Navoiy har bir inson o‘ziga to‘g‘rilikni odat qilishi, egrilik unga hech qachon yaxshi nom keltirmasligini xilma-xil o‘xshatishlar orqali tasvirlab beradi. Masalan, inson bormoqchi bo‘lgan manziliga to‘g‘ri yo‘l turib, egri yo‘ldan borsa, manziliga kechroq yetishishini, to‘g‘ri turgan shamning uzoq vaqt kishilarga yorug‘lik ulashi uchun e’zozlanishi, shu’laga intilgan parvona egri harakatlar qilgani uchun nobud bo‘lishini misol qilib ko‘rsatadi. Tahlil jarayonida o‘quvchilar ushbu haqiqatlarni chuqur anglashlariga erishishga harakat qilish juda muhim hsoblanadi.

Navoiy egrilik va to‘grilik tushunchalarini shunday izohlaydi: Rubob, dutor, tor kabi cholg‘u asboblarining torlari kuy chalish uchun tarang tortiladi va chalganda yoqimli kuy taratadi. Agar tor egri holatda bo‘lib sozlanmasa, undan yoqimli kuy taralmaydi. Mana shunday qiyoslashlar orqali Navoiy hayotda insonlar noto‘g‘ri ish qilsalar nafaqat o‘zlari, balki jamiyat uchun ham ziyon keltirishlarini ta’kidlaydi. Rostgo‘ylik insonlardagi ulug‘ fazlatlardan ekanligini, yolg‘onchilik insonlarni tubanlikka yetaklashi haqida bayon etiladi.

Navoiy egrilik va to‘g‘rilikka ta’rif berib, bog‘bon va dehqonning mehnat faoliyatini misol qilib keltiradi. Bog‘bon o‘zi yaratgan bog‘ini tartib va reja bilan parvarish qilsa, maqsadiga erishadi, agar daraxtlarni tartibsiz ekib, novdalarini butamasa, u changalzorga aylanadi. Dehqon yerga urug‘ solish uchun yerni avval tekislamasa, urug‘ bir xil unib chiqmaydi, suv yaxshi singmaydi. Dunyodagi jamiki jonzotlar to‘g‘rilikdan bahra oladi. Navoiy nega insonlar shu kabi narsalardan bahra olmasligidan ajablanadi. U bilmay turib yolg‘on so‘zlashni

gunoh hisoblamaydi. Vaqti kelib yolg‘on so‘zlagan odam o‘z xatosini tushunishi va tuzatishi mumkin deb biladi. Lekin yolg‘onchilik odatga aylangan bo‘lsa, bu kechirilmas xato ekanligini, yolg‘onchining rost so‘zlariga ham keyinchalik hech kim ishonmay qo‘yishini ta'kidlab, insonlarni doimo ezguliklar sari chorlab turadi.

“Hayrat ul-abror”dostonidagi obrazlar va hikoyatlarning badiiy xususiyatlari

Rahmonqulova Sadoqat – Navoiy viloyat Navbahor tuman 5-maktab

“Hayrat ul-abror”dagi hikoyatlarda turli mavzular qalamga olinganidek, ulardagi obrazlar ham xilma-xildir. Dostondagi yigirma bitta hikoyatda o‘nlab so‘fiy, shayxlar, hukmdorlar, an'anaviy obrazlar va turli toifa kishilari timsollari uchraydi. Ularning asosini diniy tasavvufiy faoliyat bilan bog‘liq shaxslar, shuningdek, shohlar, amir va hukmdorlar obrazlari tashkil etadi. Professor N.Mallayev Navoiyning turli asarlarida uchraydigan hikoyatlardagi obrazlar haqida quyidagilarni yozadi: “Navoiy hikoyatlarining qahramonlari tarixiy, yarim afsonaviy shaxslarning nomi bilan bog‘lanadi, ularnig orasida “sof” to‘qima obrazlar ham anchagina. Qadimgi shohlar, yunon olimlari, Faxriddin Roziy, Hotami Toyi, Ibrohim Adham, Xoja Porso, Boyazid Bistomiy va boshqalar Navoiy hikoyalarining qahramoni. Ammo, hikoyalardagi qahramonlar aynan tarixiy shaxslarning obrazi bo‘lmay, balki ayrim jihatlarini saqlab qolishiga qaramay, badiiy fantaziya, ijobiy to‘qima bilan yo‘g‘rilib, allaqachonlar an'anaviy adabiy obrazlarga aylanib ketgan edi: Anushervon, Jamshid, Iskandar va boshqalar – adolat, shoh-shavkat; Arastu, Aflotun, Luqmon, Faxriddin Roziy va boshqalar – aql va donolik; Hotam Toyi – saxovat ramzi va hokazo; Majnun, Shayx San'o, Vomiq va Uzro, Xusrav va Shirin – an'anaviy oshiq-ma'shuqlar. Bu an'anaviy obrazlar bilan birga biz Navoiyning ayrim hikoyalarida uning zamondoshlarini ham ko‘ramiz. Masalan, “Hayrat ul-abror”dagi “Shoh G‘oziy” hikoyasida Husayn

Boyqaro (ideallashtirilgan shoh obrazi sifatida); shu dostondagi "Ikki vafoli yor" hikoyasida Amir Temur obrazlari berilgan"[8]

Birinchi hikoyatda Boyazid nomi tilga olinadi. Asarda u iymonli, insofli, shaxs sifatida namoyon bo'ladi. Ayrim tadqiqotchilar Boyazidning otasi Surushon islomni qabul qilgan, biroz vaqt mansabdor ham bo'lgan deyishadi. Boyazid Bistomiyning o'qish yillari haqidagi fikrlar har xil: ba'zilar u biron bir maktab yoki ustoz qo'lida tahsil ko'rmagan, barcha ilmlar unga Olloh tomonidan in'om etilgan deyishsa, bir guruh sharqshunoslar "Boyazid uch yuz donishmanddan dars olgan" deyishadi.

Ikkinchi hikoyatda Ibrohim Adham va Robiya Adviya nomi uchraydi. Ular ham o'zini islom yo'liga bag'ishlagan mashhur so'fiylardan.. Ibrohim Adham zodagon oilada dunyoga keladi. Yoshligida yaxshi bilim oladi, ilohiyotga qiziqib haq yo'liga kiradi. Biroz vaqt shahr hokimi vazifasida ishlaydi. U haqda ko'plab rivoyat va afsonalar yaratilgan. [9]

Robia Adviya (Adaviya) ham mashur so'fiy ayollardan. U taxminan 713-718-yillar oralig'ida Basrada donishmand Ismoil Adaviy Kaysi oilasida dunyoga kelgan. Qiz oilada to'rtinchi farzand bo'lgani uchun unga "Robia" deb nom qo'yishgan.

To'rtinchi maqolatga ilova qilingan hikoyatda Abdulloh Ansoriy nomi uchraydi. Bu ham mashhur so'fiylardan. O'z davri va undan keyingi asrlarda ham Sharqda ulkan shoir va shayx sifatida shuhrat sohibi bo'lgan Abdulloh Muhammad Ansoriy 1006-yilda Hirotning Ko'handich mahallasida alloma Abuayub Ansoriy xonadonida tavallud topgan.

O'n birinchi maqolatga misol sifatida keltirilgan hikoyatda Imom Faxr Roziy nomi keltirilgan. "Faxriddin Roziy (to'liq ismi Faxriddin Abu Abdulloh Muhammad bin Umar ibn al-Husay) mashhur kalom olimi va diniy falsafa namoyondasi.

[8] Mallayev N. Alisher Navoiy va xalq ijodiyoti. 185-186-betlar.
[9] Hamidjon Homidiy. Tasavvuf allomalari. Toshkent, 2004. 20-22-betlar.

O‘n sakkizinchi maqolatda ilova qilingan hikoyatda Suhrovard va Yoqut obrazlari bor. Yoqut – arablar orasida shuhrat topgan kotib. Bag‘dodda Abbosiy xalifa Musta'sim davrida yashagan. “Qur'onni ko‘chirishda yagona hisoblangan. Shayx Suhrovard esa mashhur so‘fiylardan. Yirik va mashhur tariqat arbobi, o‘z davrining yagonasi, nurlar matla'i, sirlar manbai, tariqat rahbari, haqiqat tarjimoni, zohir va botin ilmlarida barcha ulug‘ shayxlarning ustozi, oriflar yo‘lboshchisidir.

Dostonda Ayyub obrazi ham bor. U Qur'onda nomi zikr etilgan yigirma besh payg‘ambardan biri. Ayyub nomi va qissasi Tavrot, Injil hamda boshqa qadimiy kitoblarda ham keltirilgan. Ayyub har qanday musibatlarga, qiyinchiliklarga sabr-toqat qiluvchi, bardosh beruvchi inson timsoli sifatida tanilgan.

Hikoyatlarda hukmdorlar obrazi ham uchraydi. Ularning ayrimlari tarixiy shaxslar bo‘lsa, ba'zilari afsonaviy shaxslar hisoblanadi. Uchinchi maqolatga “Shoh G‘oziy” haqidagi hikoyat keltirilgan. Shoh G‘oziy – bu Husayn Boyqaroning ideallashtirilgan obrazidir. Navoiy “Xamsa” dostonlarining ayrim boblarida Husayn Boyqaroni madh etadi. “Majolis un-nafois”ning sakkizinchi majlisini ham unga bag‘ishlaydi. “Shoh G‘oziy” hikoyatida esa uni adolatli hukmdor sifatida ko‘rsatadi.

“Hayrat ul-abror”da “No‘shirvon hayosi” bilan bog‘liq hikoyat mavjud. Unda No‘shirvon (Anushirvon) haqida gap boradi. “Sharq xalqlari kitobiy adabiyoti va folklorida juda keng tarqalgan an'anaviy obrazlardan biri No‘shirvon (Anushervon)dir. Navoiy No‘shirvon nomini odillik ramzi sifatida bot-bot zikr etish va tavsiflash bilan birga, uning to‘g‘risida bir necha hikoyat ham keltiradi. Bu hikoyatlar “Hayrat ul-abror” va “Tarixi muluki Ajam”dan o‘rin olgan”.[10]

Dostondagi “Ikki vafoliq yor” hikoyatida Amir Temur nomi keltirilgan. Amir Temurning kimligini yaxshi bilamiz. “Amir Temur tarixiy manbalarda Temur, Temurbek, Amir Temur va Sohibqiron nomlari bilan bir qatorda Amir

[10] Mallayev N . Alisher Navoiy va xalq ijodiyoti 195-bet.

Temur Ko‘ragon, Sohibi jahon (olam egasi) hamda Sohibi adl (Adolat o‘rnatuvchi) kabi qator ulug‘ va qutlug‘ nomlar bilan ham tilga olinadi.

O‘n birinchi maqolatga ilova qilingan hikoyatda Sulton Muhammad Xorazmshoh obrazi uchraydi. U Imom Faxr Roziyga qarshi tarzda keltirilgan. Ilm bilan shohlik qiyoslanib, ilmning abadiyligi ta'kidlanadi.

Dostondagi yana bir hikoyatda Iskandar nomi uchraydi. U ham shuhrat qozongan Aleksandr Makedonskiyning Sharqdagi ideallashtirilgan nomi. Iskandar, Iskandar Zulqarnayn – Sharq xalqlari adabiyotida keng tarqalgan obraz. Iskandat Qur'onning surasida eslangan Zulqarnayndir. U Sharqdagi musulmon xalqlari orasida mashhur. Navoiy "Tarixi muluki Ajam"da Iskandar haqida afsona, rivoyat va tarixiy asarlardan kelib chiqib fikr yuritadi.

O‘n to‘qqizinchi maqolatdan so‘ng keltirilgan hikoyatda Bahrom obrazi uchraydi. Bu obraz Navoiyning ko‘pgina asarlarida, ayniqsa, "Xamsa"ning to‘rtinchi dostoni – "Sab'ai sayyor"da keng tasvirlangan. "Bahrom Go‘r yoki Varaxran V (shohlik yillari 421-438) – Eronda hukmronlik qilgan sosoniylardan Yazdigardning o‘g‘li. Yaman shohi No‘mon va uning o‘g‘li Munzir tarbiyasida o‘sgan. Nizomiyning "Haft paykar", Xusrav Dehlaviyning "Hasht bihisht" va Alisher Navoiyning "Sab'ai sayyor" dostonlarida Bahrom Go‘r adolatli shoh, jasur sarkarda, ayni paytda maishatparast, xudbin shaxs sifatida tasvirlangan. Ma'lumotlarga ko‘ra, Bahrom Go‘r 63 yil (ba'zi manbalarda 70 yil) umr ko‘rgan".[11]

Umuman, hikoyatlardagi obrazlar ham rang-barang bo‘lib ular tarixiy, afsonaviy, an'anaviy mashhur shaxslar nomi bilan bog‘liq.

[11] O'zME. 1 tom. Toshkent, 2000. 669-670-betlar.

НАВОИЙ АСАРЛАРИ – МАЪНАВИЙ МЕРОСИМИЗ ГУЛТОЖИ

Маҳмудова Нигора – Тошкент шаҳар Янгиҳаёт туман 32-мактаб

Бугун биз мустақилликнинг ҳақиқий моҳиятини, унинг жамият тараққиётида тутган катта ўрни ҳамда халқимиз турмушидаги беқиёс аҳамиятини буюк мутафаккиримиз Алишер Навоийнинг ҳаёти ҳамда бунёдкорона фаолияти орқали янада теранроқ англамоқдамиз. Ўзбекистон Республикасининг биринчи Президенти Ислом Каримов айтганларидек: "Инсоний ишқ-муҳаббатни, меҳру вафо, иффат, шарму ҳаё ва назокатни ёниб куйлаган Навоийнинг гўзал сатрларини ўқиганда буюк ва олийжаноб қалб садоларини сезиб турамиз. Бу юрак туғёнлари, мана орадан беш ярим аср ўтса ҳамки, миллионлаб одамларни ҳаяжонга солиб келмоқда". Буюк бобокалонимиз Алишер Навоийнинг ибратли ҳаёти ва фаолиятига, хусусан унинг шахсиятига қизиқиш ҳар доим – у ҳали барҳаёт йилларида ҳам, кейинги асрлар давомида ҳам жуда катта бўлган. Буюк арбоб ва шоир, мутафаккир Навоийга илмий-амалий қизиқиш ҳанузгача сўнмаган ва ҳеч қачон сўнмагай. Навоий бобомизнинг бугунги ва келажак авлодга ибратли бўлгулик хислатларининг поёни йўқ. Шу боисдан ҳам, назм шайдоларини ҳанузгача чексиз ҳайратга солиб, улар ёдлаб ҳамда куйлаб келаётган, соҳир ғазалларидан бири шундай бошланади:

Ҳуснин ортар юзда зулфин анбарафшон айлагач,
Шам равшанроқ бўлур торин паришон айлагач.

шам шундай ҳам ёниб, ёруғлик таратади, лекин пилиги толаларини ёзиб юборса, унинг ёниши доираси кенгайиб, ёруғлиги кучаяди ва кенгроқ сатҳни ёритади. Шунга ўхшаб, маҳбубанинг сочи шундай ҳам ҳуснига ҳусн қўшади, шундай ҳам ундан муаттар ҳид таралади, лекин уни ёзиб юборса, ҳам ҳиди гуркираб кетади, ҳам чиройини янада очади ва ошиқлари сафи янада кўпаяди, деб ёзилади Алишер Навоийнинг "Чор девон"идан ўрин олган ғазалларидан бирида. Мана шу ғазаллар бор экан бутун жаҳон аҳли Навоий

асарларини ўрганишдан толмайдилар. Буюк шоир яратган асарлари мўъжизаси ҳанузгача барчани лол қолдириб келмоқда. Инсоннинг барча ички кечинмаларини, ҳис-туйғуларини шундай гўзал ифодаловчи шоирлар жаҳон адабиётида кам учрайди. Шу ўринда Президентимизнинг ҳақли сўзларини эсласак: "Инсон қалбининг қувонч қайғусини, эзгулик ва ҳаёт мазмунини Навоийдек теран ифода этган шоир жаҳон адабиёти тарихида камдан-кам топилади". Албатта, буюк шоиримиз Алишер Навоийнинг ўлмас асарларини ўқир эканмиз юртга муҳаббат, садоқат туйғулари юрагимизда қайта ва қайта жўш уради. Навоий асарларининг ҳар бир мисраси бир олам маъно-мазмунга эга бўлиб барчага ибрат ҳисобланади. Шунинг учун, балки барча унинг яратган дурдона асарларини мириқиб мутоала қилар, ёд олар:

Кеча келгумдур дебон ул сарви гулру келмади,
Кўзларимга кеча тонг отқунча уйқу келмади.

юқоридаги бу мисралар сўзимнинг яққол исботи бўлиб хизмат қилади. Тарихчи Хондамирнинг ёзишича, ёш Алишер Навоийнинг истеъдодидан мамнун бўлган мавлоно Лутфий, унинг:

Оразин ёпғоч кўзимдан сочилур ҳар лаҳза ёш,
Бўйлаким пайдо бўлур юлдуз ниҳон бўлғоч қуёш....

матлаъли ғазалини тинглаб: "Агар муяссар бўлса эди, ўзимнинг ўн-ўн икки минг форсий ва туркий байтимни шу ғазалга алмашардим..." деган. 15 ёшидан бошлаб Навоий шоир сифатида кенг танилган. Хусайн Бойқаро давлат бошқарувида Навоийнинг ақл-заковати, маслаҳатларига таяниб иш тутарди. Алишер Навоийнинг қаршилигига қарамасдан, уни юқори мартабаларга тайинлайди. Навоий "амири кабир", "амирул мақарраб" унвонларига мушарраф бўлди. Унинг вазирлик чоғларида Ҳиротда ободонлик авж олган, маданият гуллаб яшнаган давр бўлди. Улуғ амир ўзи бош бўлиб, сувсиз ерларга сув чиқарди, эски ариқларни тозалаттирди, янги каналлар қаздирди. Эски биноларни таъмирлатиб, янгиларини қурдиради, кўпдан-кўп мадрасалар солдиради. Талабалар учун "Ихлосия" мадрасаси,

беморлар учун "Шифоия" шифохонаси, масжидлар қурдирди. Ҳиротда "Низомия", Марвда "Хусравия" мадрасалари барпо этилди. Улуғ амирнинг кутубхонасида 70 дан ортиқ ноёб асарлар сақланар эди. Навоий ўз вақтида 52 работ, 20 ҳовуз, 16 кўприк, 17 масжид, 9 ҳаммом, 9 кўприк, 20га яқин ҳовузларни ўз ҳисобидан барпо эттирди. Навоий Ҳусайн Бойқарони ҳам доимо инсофли, адолатли, шавқатли ва халқни тўла идора эта олишга ундар эди. Замондошлари уни "Низомиддин мир Алишер" деб аташар эди. "Низомиддин" – дин, диёнат низоми дегани бўлиб, донишманд мансаб эгаларига бериладиган сифат эди, "мир" эса – амир дегани. Унинг асосий мақсади оддий инсонларга инсонийликнинг илоҳий моҳиятини тушунтириш, уларни оғир синовлардан ўтказиб комил инсон даражасига етказиш эди. Шоир ижодининг юксак чўққиси, мавзуси Жомий томонидан таклиф этилган "Хамса" асаридир. Навоийнинг яна бир буюк асарларидан бири бу "Фусули арбаъ" ҳисобланади, бу тўрт қиссадан иборат достон бўлиб унга "Баҳор", "Саратон", "Хазон", "Дай"лар киради. Бу қиссада йилнинг тўрт фасли – баҳор, ёз, куз, қиш тасвирланган ва тўрталаси ҳам Ҳусайн Бойқарони подшоҳ ва шахс, яхши инсон ва дўст сифатида тасвирланган. Навоий томонидан яратилган ҳар бир асар "Дунё кутубхонаси"нинг ўлмас хазинаси ҳисобланади. У томонидан яратилган асарни, нафақат асарни ва балки бир мисрани ўрганишга бутун умр етмайдигандек гўё.

Алишер Навоийнинг асарлари миллат тақдири, бирлиги, эл-юрт қайғуси, юртни ободонлаштириш, илм, санъат, адабиётни ривожлантириш, Ватанга муҳаббат, меҳнатга садоқат ғоялари билан йўғрилган. Буюк бобомиз ўз асарларида илм ўрганишга интилишни инсон камолотини таъминлаш учун хизмат қилувчи энг зарур фазилатлардан бири дея таъкидлаган. Илмли инсонни, халқни нодонликдан қутқарувчи омил сифатида таърифлаган. Асарларида илгари сурилган ғоя ва мазмун ёрдамида инсонларни юксак маънавиятли ва етук шахс бўлишга ундаган. Мамлакатимиз Президенти: "Инсон олам гултожи деб улуғлаган ҳазрат Навоийнинг бутун ҳаёти, бутун

ижоди замирида эзгулик, адолат, нафосат каби юксак туйғулар дунёни обод ва мунаввар қилади, башариятни маънавий ҳалокатдан қутқаради, деган қатъий ишонч мужассам" деб бежиз таъкидламаганлар. Ҳақиқатдан ҳам, Алишер Навоий ўзбек мумтоз адабиётининг асосчисидир, шоир қолдирган маънавий мерос – унинг нодир асарлари мангуликка дахлдордир!

" КЎНГИЛ КАЪБАСИНИ ОБОД ЭТ..."

Ҳақназарова Обида – Навоий вилоят Нурота туман 3-мактаб

Навоий ижодини, унинг пурмаъно ҳикматлари мағзини қанчалик англашга уринсак шоир қаламга олган умумбашарий ва барҳаёт мавзуларнинг нақадар бизга яқин, қадрдон ва долзарб эканлигига шунчалик кўп амин бўламиз. Буюк гуманист шоир, халқпарвар аллома, миллатсевар давлат арбоби Ҳазрат Алишер Навоий башарият тарихидаги энг улуғ даҳолардар биридир. Аллома ижодида бирор мавзу йўққи, қаламга олинмаган, таҳлил қилинмаган ва ҳаётий мисоллар билан далилланмаган бўлса. У қандай асар яратмасин , қайси мавзуни қаламга олмасин бир лаҳза ҳам инсонни севиш ва ардоқлашни унутмади.

Зеро инсонга бўлган чексиз муҳаббати туфайли асрлар оша бутун дунё халқи уни эъзозлади, таъқиқ ва чекловларга қарамасдан ўқийверди. Шоир асарларининг барҳаётлиги шундаки, у зулм ва зорликни, зиёкорлигу мунофиқликни, хийнату хоинликни, беҳаёлику орсизликни аёвсиз қоралади, улар туфайли келажак офатларни рўй-рост кўрсатиб берди, аксинча, дўстлик, мардлик ва жасорат, ҳалоллик, ростгўйлик, ғурур ва ҳалимликни, сабр ва матонат каби чин инсоний фазилатларни улуғлади.

Кимки бир кўнгли бузуқнинг
Хотирин шод айлагай,
Онча борким, Каъба вайрон
Бўлса обод айлагай, -

дейди шоир.

Навоий нафақат шоир ва қомусий олим эди, у ислом дини ақида ва аҳкомларини мукаммал билар, ҳадис илмини чуқур ўрганган ҳадисшунос ҳам эди. Шоирнинг фикрича кўнгил Каъбадан ҳам муқаддасроқ. Чунки Оллоҳга бўлган муҳаббат дастлаб Каъбада эмас, инсон кўнглида пайдо бўлади. Каъба Оллоҳнинг уйи, бу шунчаки бир бино, холос. Ҳақиқий ишқнинг жойи нафсдан покланган кўнгилда. Инсон ҳаммадан пинҳон тутса ҳам Оллоҳдан яшира олмайдиган туйғулар унинг кўнглида бўлади. Яъни кўнгил Оллоҳ назаргоҳидир. Шунинг учун улуғ аллома ҳам кўнгилни шод этишни бузилган Каъбани обод этишдай олийжаноб иш деб билади.

Навоий бутун умри давомида кўрган-кечирганларини, фалсафий ва ахлоқий қарашларини таҳлил қилиб умрининг сўнгида "Маҳбуб ул-қулуб " номли гўзал асар яратди ва инсонга хос бўлган яхши ва ёмон хулқлар ҳақида сўзлар экан, бир ўринда "ўзинг оч бир очни тўқ қил" дейди. Навоий ижодида нафсни енгиш ғояси бош мавзу ҳисобланади. У Фарҳодни тасвирлар экан, унинг тимсолида барча иллатлардан холи Нафсга қул эмас подшоҳ бўлган Комил инсонни кўз олдимизда гавдалантиради.

Ҳақиқий комил инсон эса ўз манфаатини эмас, ўзгалар манфаатини ўйлайди, ўзидаги нафсни енга олади. Ўзи емаса ҳам бир муҳтожни тўқ қилади, яъни беминнат яхшилик қилади:

Мурувват барча бермоқдур демак йўқ,
Футувват барча қилмакдур, емак йўқ.

Улуғ мутафаккир инсониятни эзгулик қилишга, ёвузликни яхшилик билан енгишга чорлар экан:

Олам аҳли, билингизки, иш эмас душманлиғ,
Ёр ўлунг бир-бирингизгаки, эрур ёрлиғ иш, - дейди.

Хўш, нима учун Ҳазрат Навоий одамлар тақдирига бунчалик жонкуяр, уларнинг қисматига ўзини жавобгар сезади? Нега замондош шоирлар ҳамду сано айтиб, шоҳлардан инъомлар олиб, ҳамёнини бойитганда у халқнинг

маънавий оламини бойитишга уринади? Гап шундаки у ҳақиқий шоир эди. Авлиёмонанд ижодкор эди. Халқ маънан қашшоқ бўлса, ҳар қандай бой мамлакат ҳам таназзулга учрашини, ўзаро нифоқ-у урушлар мамлакатни ичдан емиришини олдиндан ҳис этганди. Бу ҳолат кейинчалик темурийлар сулоласининг таназзули билан ўз исботини топди. Чунки уруш ва низолар ҳеч қачон халққа манфаат келтирмаган. Ўзбек халқининг ардоқли адиби Ўткир Ҳошимов айтганидай: "Урушда ғолиб ва бахтли подшоҳ, ғолиб ва бахтли қўшин, ғолиб ва бахтли давлат, ғолиб ва бахтли тузум бўлиши мумкин. Аммо ғолиб ва бахтли одам бўлмайди. Негаки уруш одамни одам ўлдиришга мажбур қилади. Одам ўлдирган одам эса ҳеч қачон бахтли бўлмайди!" шунинг учун ҳам Навоий умр бўйи уруш ва жаҳолатга қарши курашди, одамларни бир-бирини қадрлаш ва инсон зотининг буюклигини англаб яшашга чорлаб ўтди. Нафақат асарларида балки ҳаётда ҳам мазлумларга карам кўрсатди, муҳтожларга ёрдам қўлини чўзди, бева-бечораларни қўллаб-қувватлади. Шунинг учун ҳам ҳаж сафарига отланганда халқнинг илтимоси учун йўлдан қайтди, инсон кўнглини обод этишни юзта Ҳаж зиёратидан афзал билди.

Навоий ҳикматлари ўзининг гўзал шакли, теран мазмунни ўзида мужассам этгани ва барча замонлар учун, абадий мавзуларда яратилгани учун ҳам эскирмайди, тиллардан ва диллардан тушмай барҳаёт яшайверади, ўз қадрини ҳеч қачон йўқотмайди. Чунки Навоий инсоннинг улуғ хилқат эканлигини англаган ва англатган буюк сўз санъаткоридир.

UMUMINSONIY QADRIYATLARNING ALISHER NAVOIY ASARLARIDA ULUG‘LANISHI

Umarova Feruza – Navoiy viloyat Navbahor tuman 5-maktab

“El-yurt va davlat uchun, uning taqdiri va kelajagi uchun qayg‘uradigan, odamlarning ezgu niyatlarini o‘ziga oliy maqsad qilib qo‘ygan, elim deb, yurtim deb yonib yashaydigan, har qanday vaziyatda ham xalqni birlashtirib, turli balo-qazolardan asrash uchun safarbar eta oladigan shaxslargina tarixda o‘chmas iz qoldiradi”[12] Darhaqiqat, bizning yurtimizda nomlari abadiyatga muhrlangan mana shunday ulug‘ ajdodlarimizning soni bir talay. Xususan, hazrat Mir Alisher Navoiyning yorqin xotirasi fikrimizning yaqqol dalilidir. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov “Alisher Navoiy atoqli shoirgina emas, balki teran mushohada yurituvchi donishmand hamdir. Uning insoniylik borasidagi fikrlari hali-hanuz o‘z qimmatini saqlab kelmoqda.” deganlarida to‘laqonli haq gapni aytgan edilar.

Bugun biz Navoiy ijodini o‘rganar ekanmiz, uning ilmiy salohiyat bobida juda katta mehnat talab qilinishining guvohi bo‘lamiz. Chunki Navoiy aytgan har bir so‘z mohiyati turli mazmunga ega bo‘lib, tahlil jarayoniga to‘g‘ri yondashish lozimligini talab qiladi.

“Hazrat Alisher Navoiy ijodiy merosi xalqimiz madaniyatining buyuk sarchashmasi bo‘lgani uchun unga takror va takror murojaat etaveramiz. Ular bizni mudom o‘qish va uqishga undayveradi.”13

Haqiqatan ham, Navoiy asarlarini o‘qir ekanmiz, bunga o‘zimiz amin bo‘lib boraveramiz. Ma’lumki, “Xamsa” Navoiyning shoh asarlaridan biri sanalib, uning zamirida insonga xos bo‘lgan barcha umuminsoniy qadriyatlar mujassamlashgan. Chunki Navoiy inson qadr-qimmatini barcha narsadan ustun qo‘ygan. Shuning uchun shoir inson maqomi berilgan har bir shaxsni ushbu sharafga munosib ko‘rilganiga shukronalar keltirib, faqat ezgu g‘oyalar egasi bo‘lishlarini chin dildan xohlaganlar. Bu borada, avvalo, o‘zlari har tomonlama o‘rnak bo‘lib, boy ijodiy

[12] I.A.Karimov. “Vatan va xalq mangu qoladi” Toshkent: “Alisher Navoiy nomidagi milliy kutubxona”, 2010.87-bet.
[13] A`zamov A. Majnun muhabbati. “Tafakkur” jurnali. 2002. 1-son, 36- bet.

merosi zamiriga singdirilgan g‘oyalar orqali o‘zgalarni ham ana shunday inson bo‘lishga da’vat etganlar.

“Xamsa”ning birinchi dostoni “Hayrat ul-abror” Navoiyning falsafiy qarashlari zamiriga yo‘g‘rilgan bo‘lib, unda Navoiy haqiqiy umuminsoniy qadriyatlarni to‘laqonli shakllantirib bergan. Doston muqaddima, yigirma maqolot, yigirma hikoyat va xotimadan iborat bo‘lib, asarda shoir ularda nafaqat insonni insonga, balki Olloh tomonidan tuhfa etilgan barcha yaratiqlarga bo‘lgan insoniy munosabatlari qay darajada bo‘lmog‘i lozimligi xususida so‘z yuritadi. Dostonning uchinchi maqolati “Salotin bobida ” deb nomlanib, Navoiy yurtning kelajagi, xalqning ishonchi, ezg‘u g‘oyalarning asosiy tayanchi faqat adolat orqali yuzaga chiqishini mahorat bilan aks ettirgan. Har qanday zulm o‘chog‘ini birgina adolat mezoni orqali bartaraf qilinishi Shoh G‘oziy timsolida yoritib berilgan. Shoh G‘oziyning tinchlik o‘rnatish maqsadida yo‘l qo‘ygan birgina xatosini adoalat tarozisi oydinlashtirib berdi. Shu orqali el orasida uning martabasi yanada ulug‘landi. Chunki shoh G‘oziy va jabrdiyda keksa bir kampirning o‘rtasidagi ziddiyatli vaziyatni adolatli hal etilishi umuminsoniy qadriyatlarning bir ko‘rinishi desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Bundan tashqari dostonning beshinchi bobida shoir Hotami Toy hikoyasi orqali ham ushbu fikrlarni ilgari suradi. Hotami Toy – bu shaxs nihoyatda saxiy, o‘zgalardan yordamini ayamaydigan, ko‘ngli keng inson qiyofasini shakllantirgan.U timsol orqali shoir insonlarni saxiylikka da’vat qiladi. Ammo hikoyaga boshqacha yondashadigan bo‘lsak, har bir ishning chegarasi borligini anglab olishimiz mumkin. Chunki hikoya qahramoni Hotami Toy nihoyatda saxiy kishi bo‘lib, borini xalq oldiga to‘kadi. Uning bu ishiga faqat bir kishi qarshi chiqib, o‘z fikrini ayta oladi.

Naqdni dog‘i guldek sovurmag‘il,
G‘uncha kibi dog‘i girih urmagil.

Hotami Toy bir yo‘qsil kishining mag‘rur turib aytgan ushbu so‘zlaridan so‘ng, chuqur o‘yga tolib, o‘zining himmatidan ham yuqori turuvchi himmat

egasini ko‘rib, u kishiga tasannolar aytishida ham umuminsoniy qadriyatlarni ko‘rishimiz mumkin.

Dostonning oltinchi maqoloti odob masalalariga bag‘ishlanadi. Navoiy bu maqolotda kishilar bilan munosabat va muomala odobi, o‘zini tuta bilish, bola tarbiyasi hamda ota-onaga qay darajada g‘amxo‘rlik qilish lozimligi xususida so‘z yuritadi. Masalan, birgina quyidagi mashhur bayt zamiriga singdirilgan g‘oyani tahlilga tortadigan bo‘lsak, umuminsoniy qadriyatlarning tub negizini anglab yetamiz:

Boshni fido ayla ato boshig‘a,
Jismni qil sadqa ano qoshig‘a

Dostonning o‘ninchi bobi rostlik ta'rifiga bag‘ishlangan bo‘lib, “Sher va Durroj “ hikoyati orqali shoirning asl maqsadini bilib olamiz. Hikoyada to‘g‘rilik ko‘klarga ko‘tarilib, egrilik qattiq tanqid ostiga olinadi. Chunki ularning birinchisi kishini yuqori martabalarga ko‘tarsa, ikkinchisi qaysidir ma'noda inson umriga raxna soladi. Shuning uchun Navoiy barchamizni hamisha to‘g‘rilikka qalqon bo‘lishga undaydi.

Xulosa o‘rnida aytish joizki, shoirning asarlari umuminsoniy qadriyatlarga, ezgu g‘oyalarga boyligi bilan katta ahamiyat kasb etadi. Buni har birimiz anglab yetmog‘imiz lozim. Zero, Navoiy asarlari g‘oyasi va undagi jamiki pand - nasihatlar kaliti so‘z bo‘lib, ular hamisha mangulikka daxldordir. Shoir asarlariga qayta-qayta murojaat qilishimizning boisi shunda bo‘lsa, ajab emas.

SARHADI KENG TURKIY TILNING OSHIG‘I

Bozorova Rayhon **–** Navoiy viloyat Navbahor tuman 19-maktab

O‘zbek adabiy tilining rivojlanishida ilk marotaba turkiy tilda yozilgan Alisher Navoiyning “Xamsa”si umumjahon adabiyotining yuksak cho‘qqisi bo‘lib qoldi. Navoiy turkiy tilning oshig‘i edi va unda o‘zini topmoq istadi. Navoiy arab va fors tillarini mukammal bilgan va bu tillarda ham ajoyib asarlar yozish qudratiga ega bo‘lgan. Bu ishtiyoq va muhabbat unga o‘z aqlini tanigandan to

umrining so‘nggi daqiqasigacha hamroh bo‘ldi. Bu unga ishonch va yupanch, umid va tasalli bo‘lib keldi. Turkiy tilni rivojlantirmoq va dunyo darajasiga ko‘tarmoq mushkul ish edi. Lekin Navoiy o‘z orzusiga erishdi: “Xitoydan Xurosongacha” bo‘lgan ellar va tillar “yakqalam” bo‘ldi. Chunki turkiy tilda murakkab majozlarga, sirli ishoralarga to‘la falsafiy asar bitish mumkinligi isbotlandi. Jumladan, Navoiy turkiy tilni mana shu, ya’ni dunyo taniydigan darajaga kelishi uchun “Muhokamat ul-lug‘atayn”, “Lison ut-tayr”, “Xamsa”, “Sabhatu abhur” (“Yetti dengiz”), “Xamsat ul-mutahayyirin” (“Besh hayrat”), “Mahbub ul-qulub” (“Ko‘ngillarning sevgani”) kabi qator asarlarni yozdi.

Navoiyning o‘chmas merosiga nazar tashlamoqchi bo‘lsak, u bir so‘zni bir asarda ko‘p takrorlamagan, aksincha uning sinonimlarini ishlatgan. Shoir o‘z merosida yigirma olti ming o‘ttiz beshta so‘z takrorlarsiz, bir milliondan ortiq (bir million uch yuz yetmish olti ming olti yuz oltmishta) takrorlari bilan so‘z ishlatgan.

XV asrning ikkinchi yarmidan XVII asrgacha bo‘lgan davr o‘zbek adabiyoti va madaniyatining gullab yashnagan davri bo‘lib, bu davrda turkiy til yuksak qadr va e’tibor topdi.

Navoiyning 1498-1499-yillarida yozilgan “Muhokamat ul –lug‘atayn” (“Ikki til muhokamasi”) asarida turkiy va fors tillari qiyoslab yozilgan. Unda Navoiy “Mundin so‘ngra uch nav’ tildurkim, asl va mo‘tabardur. Ammo turkiy va forsiy va hindiy asl tillarning mansha’idurki, Nuh payg‘ambarning uch o‘g‘lig‘akim, Yofas (Abu-t- turk) va Son va Homdur, yetishur”[114] deb yozgan.

Buyuk shoir “Muhokamt ul –lug‘atayn” asari bilan o‘zbek (turk) tilining buyuk bilimdoni va homiysi bo‘lib, maydonga chiqdi. Bu tilning boshqa tillardan mutlaqo qolishmasligini o‘z badiiy ijodi bilan amalda isbot qilib bergan shoir mazkur asarida bu muhim xulosasini endi ilmiy-nazariy jihatdan asoslab ko‘rsatdi. Ayni paytda turkiy tilning bugungi tushunchalarimizga juda yaqin ta’rifini berdi, badiiy adabiyot bilan uzviy aloqasiga doir teran, eskirmas mulohazalar bildirdi.

[14] Sariyev Sh., Matjon S. O‘zbek adabiyoti. Toshkent -2007.

Jomiy ta’rifi bilan aytganda, Alisher Navoiy «asl tabiati va qobiliyati tufaylidan baxtga eltuvchi hukmlar o‘qlarini so‘z sifati nishoniga qaratganda va javohirlar sadafi buzrukvorlar ismi sirlaridan so‘zlaganda o‘z vaqtini nazm badialari yoki nasriy ixtirolardan tamoman forig‘ va xoli topolmagan» shoir edi.

Mir Alisher Navoiy sarhadi keng fikrlari, o‘tkir mushohadalari bilan hayotiy haqiqatni tasvirladi. Uning barcha asarlarida qo‘llagan so‘zlar miqdori esa 26 ming 35 tani tashkil etadi. Ayni shu raqam shoir rus adabiyotining eng ko‘p so‘z qo‘llagan vakili Pushkindan 5 ming, Shekspirga qaraganda 7 mingga yaqin so‘zni ko‘p va xo‘b qo‘llaganidan dalolat beradi. Shu sabab favqulodda iste’dod sohibi Navoiy ijodiga qiziqish, asarlari mag‘zini chaqish shoir hayotligidayoq boshlab yuborilgan. Ishtiyoq shu darajada ommalashganki, shoir endigina 23-24 yoshligida uning ilk «Devon»ini muxlislari tuzgan. Bu kitob tarixda «Ilk devon» nomi bilan shuhrat qozondi. Shuningdek, XVI asrdayoq «Badoye ul-lug‘at», «Navoiy lug‘ati», «Abushqa» singari lug‘atlar tuzilishi ham ayni shu ijodkor g‘azallarining mag‘zini chaqish ilinjida tartib etildi. Shoirning ijodiy quvvati shu darajada kuchli ediki, Nizomiy Ganjaviy «Xamsa» yozish uchun naq o‘ttiz yil sarflagan bo‘lsa, Navoiy esa 54 ming misradan iborat ulkan asarni ikki yilda nihoyasiga yetkazdi. Faqat asar ustida ishlangan kunlar inobatga olinsa, mazkur fursat 6 oyga tenglashadi.

Xullas, Navoiy o‘zbek adabiy tili, ya’ni turkiy tilning qaror topishi va rivojlanishi uchun o‘zining betakror asarlari bilan katta hissa qo‘shdi.

INFORMATIKADAN DARSLARIDA NOAN’ANAVIY MASHG‘ULOTLARNI LOYIHALASHTIRISH

Murtozoyeva Nafisa Egamberdiyevna,
Nurimova Muhayyo Akmalovna
Navoiy viloyati Karmana tuman 7-maktab
informatika fani o‘qituvchilari

Annotatsiya: Maqolada umumta’lim maktablarida informatika fanidan darsdan tashqari mashg‘ulotlarni tashkil etishda uslublari mazmunidagi izchillik,

informatikani o‘qitish maqsadlari, o‘quvchilarni har tomonlama rivojlantirish va tarbiyalash orqali belgilanishi kerakligi haqidagi mulohazalar yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: innovatsiya, elektron darslik, multimedia, texnologiya.

Mustaqil yurtimizda ta'limga bo‘lgan e'tibor – buyuk kelajagimizga bo‘lgan inshonchning yaqqol misoli, albatta. Umumta'lim fanlarini chuqur o‘rganishda informatika faning komputer xizmatining ahamiyati juda katta. Informatika va axborot texnologiyalari fani dars samaradorligini oshirishda innovatsion usullardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Innovatsion ta'lim texnologiyalarning asosiy jarayoni:

-tashkil etish;

-hamkorlikda olib borish

- takomillashtirish;

- tahlil qilish;

-qiyoslash;

-umumlashtirish

- xulosa chiqarish;

boshqarish;

- nazorat etish;

baholash kabilarni o‘z ichiga oladi. Dars jarayonini samaradorligini oshirish uchun: darslarda interfaol elektron didaktik vositalar, multimedia ilovalar, audio vizual elektron darsliklar, immitatsion o‘quv vositalar, online muloqatlar va boshqalardan foydalanish katta samara beradi. XXI asrga kelib insoniyat hammaga birdek axborot olish imkoniyatini beruvchi ochiq axborot jamiyatini shakllantirish tomon jadal bormoqda. “Elektron hukumat”, “elektron uy”, “elektron tijorat”, “elektron ta'lim” kabi raqamli borliq elementlari hayotimizga kirib ulgurdi va odatiy hol bo‘lib qoldi. Endilikda insoniyat elektron resurslardan shunchaki axborot man'basi sifatida emas, balki interfaol muhitda ulardan aql bilan foydalanishni maqsad qilib qo‘ymoqda. Bu jadal yangilanib borayotgan axborot kommunikatsiya texnologiyalari imkoniyatlaridan muloqot darajasida foydalanish,

ma'lumotlarni qayta ishlash va qaysidir ma'noda odam o'rnida "o'ylash" ga majbur qilishni talab qiladi. Informatika bo'yicha darslar, darsdan tashqari mashg'ulotlar va ixtiyoriy darslarini tashkil etish shakllari va uslublari mazmunidagi izchillik informatikani o'qitish maqsadlari, o'quvchilarni har tomonlama rivojlantirish va tarbiyalash orqali belgilanishi kerak.

Informatikani o'qitishda tarixiy materialdan foydalanish prinsipilari umumta'lim maktabida yaxshi qabul qilinadi. Tarixiy material yaxshi esda qoladi;informatika rivojlanish tarixi asosiy fikr va uslublarining shakllanishiga xizmat qiladi. Fan tarixi uning harakatlanuvchi kuchini ko'rishga, insonning ilmiy ongi va amaliy faoliyatining o'zaro bog'liqligini kuzatishga imkon beradi. Bu o'quvchilarning diallektik-materialistik dunyoqarashi va ilmiy fikrlashining shakllanishiga yordam beradi. O'quvchilarda vatanparvarlik xissini shakllantirish uchun qadimgi Sharq buyuk olimlarining ilmiy natijalari bilan tanishtirish kerak. O'zbekistonda kibernetikaning rivojlanishini bolalar qiziqib eshitadilar. Informatikani o'qitish va darsdan tashqari mashg'ulotlarni tashkil etishning asosiy prinsiplaridan biri bu ijodiy vazifalarni yechish, loyihalashtirish, konstruktrlash va modellashtirish uchun EHMdan foydalanish muhim hisoblanadi. Bunday vazifalarni yechish va dasturlash tilida dastur yozish o'quvchilarda mustaqil ishlash malakasini oshiradi. Darsdan tashqari mashg'ulotlar o'qituvchilar tomonidan informatikaga qiziqqan o'quvchilar bilan o'tkaziladi. Bu ishni o'qituvchi rejalashtiradi va kerakligicha aniqlashtiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Mirziyoyev. Sh.M. Erkin faravon Demokratik O'zbekiston davlatini birga quramiz. Toshkent: "O'zbekiston" 2017. 28 bet

2. G'ulomov S.S., Begalov B.A. Informatika va axborot texnologiyalari.– T.:, Fan.

3. Umumta'lim maktablarining 5-9-sinflari uchun mo'ljallangan matematika darsliklari. So'nggi nashri

BIOLOGIYA FANINI O‘QITISHDA O‘QUVCHILARDA KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISH

Xodjiyeva Dilobar Shukurovna,
Isayeva Manzura Farxod qizi
Navoiy viloyat Karmana tuman 7-maktab biologiya fani o‘qituvchilari

Annotatsiya: Maqolada biologiya darslarida innovatsion usullar yordamida o‘quvchilarning fanga oid va tayanch kompetentsiyalarini rivojlantirish bo‘yicha metodik ishlarni amalga oshirish bo‘yicha fikr-mulohazalar bayon etilgan bo‘lib, biologiya darslarida o‘quvchilarda fanga bo‘lgan qiziqishlarini rivojlantirish haqida mulohaza yuritilgan.

Kalit so‘zlar: kompetensiya, kommunikativ, texnologiya, qo‘llanma,

Ta’lim jarayonida o‘quvchilarda tayanch kompetensiyalarni shakllantirish uchun o‘qituvchi o‘quv dasturidan sinflar kesimida belgilab berilgan tayanch kompetensiyalarni aniqlab olishi va o‘rganilishi zarur bo‘lgan mavzu va shakllantiriladigan kompetensiyalarni hisobga olgan holda ta’lim texnologiyasini tanlaydi. Barcha o‘quvchilarda kompetensiyalarni shakllantirishda ta’limga faol va interfaol yondashilishi kerak. Passiv yondashuvda o‘qituvchi mavzuni bayon etadi. O‘quvchi ularni tinglaydi va tegishli qismlarini yozib oladi. Uy vazifalarini qo‘llanma, darsliklardan o‘qib o‘rganadi. Bu jarayonda o‘quvchi bilan o‘qituvchi orasida bir tomonlama aloqa o‘rnatiladi. O‘quvchi o‘zdarajasida, ya’ni qobiliyati, qiziqishi, istagi, xohishi darajasida o‘zlashtiradi. Unda ta’lim mazmunini o‘zlashtirish kafolatlanmaydi. O‘quvchilarda kompetensiyalar o‘qituvchi tomonidan tayyor aytib berilgan ma’lumotlar bilan shakllanmaydi.

O‘qituvchi ta’lim mazmunini bayon etish uchun bor kuchini, mahoratini ishga solib dalil, ko‘rgazmali qurol, didaktik tarqatma materiallar yordamida tushuntirishga harakat qiladi. O‘qituvchi o‘quvchilar bilan mavzu yuzasidan fikr almashadi, ijodiy ishlar, amaliy topshiriqlar beradi. O‘quvchilar uy ishlarini mustaqil ishlash, takrorlash orqali bajaradilar. Bu jarayonda o‘quvchi bilan

o‘qituvchi orasida ikki tomonlama aloqa o‘rnatiladi. Ta'lim mazmunini birmuncha o‘zlashtirishga erishiladi. Bunday yondashuvda o‘quvchilarda tayanch va fanga oid kompetensiyalarning elementlari to‘liq bo‘lmasada, shakllanadi. Bunday deyilishiga sabab shuki, kommunikativ kompetensiyaning "kichik guruhlar bilan ishlash jarayonida guruh a'zolarining javoblarini tinglay olish", "hayvonlar haqidagi ma'lumotlarni o‘z o‘rtog‘iga tushuntirish" yoki ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasining "tirik organizmlarning o‘ziga

xos jihatlarini bilishi, ularning salbiy tomonlarini o‘zidankichik bo‘lgan yoshlarga o‘rgatish jarayonida faol ishtirok etishi", milliy va umumadaniy kompetensiyaning "insonlarga nisbatan mehr-muruvvat, sahiylik, o‘zgalarning dunyoqarashini hurmat qilishi" kabi elementlari shakllanishi o‘quvchilarning hamkorlikdagi faoliyati tashkil etilgandagina amalga oshadi. Ta'lim mazmunini to‘la o‘zlashtirishga erishiladi. Interfaol yondashuv o‘quvchilarda kompetensiyalarning to‘liq shakllanishiga imkon beradi. Tayanch va fanga oid kompetensiyalarni shakllantirishda qo‘llaniladigan ko‘pgina usul, metod va texnologiyalar mavjud. Ulardan yuqori samara beradigan metodlar, texnologiyalardan ayrimlarini ko‘rib chiqamiz. Loyihalash metodi o‘quvchilar uzluksiz ravishda murakkablashib boradigan amaliy topshiriqni rejalash, konstruksiyalash va bajarish jarayonida bilim, ko‘nikma va malakaga ega bo‘ladigan o‘qitish tizimidir. Ta'lim oluvchilar muammoli masalalar bilan bog‘liq loyihalarni bajaradilar.

Demak, o‘qituvchi ta'lim jarayonida o‘quvchilarda kompetensiyalarni shakllantirishda, avvalo, mavzu mazmunidan kelib chiqib, biologiya fanining o‘quv dasturi keltirilgan qaysi kompetensiyalarning elementlarini shakllantirishini belgilaydi, so‘ng shu kompetensiyalar elementlarini shakllantirishda eng samarali natija beradigan pedagogik texnologiyalardan birini maqsadli ravishda tanlaydi .

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Tolipova J.O. Biologiyani o‘qitishda innovatsion texnologiyalar. Pedagogika oliy ta'lim muassasalari talabalari uchun darslik. Toshkent, 2014.

2. Shaxmurova G.A., Azimov I.T., Raxmatov U.E. Biologiyadan masala va mashqlar yechish. O‘quv qo‘llanma. 2017.

3. Bozorov E.B., Musurmonova O.A. O‘qituvchi ijodkorligi davr talabi.-T.:O‘qituvchi.1991.

АДАБИЙ ТИЛНИНГ ШАКЛЛАНИШИДА НАВОИЙ АСАРЛАРИНИНГ ЎРНИ

Тошқулова Мухлиса – Навоий вилоят Навоий шаҳар 8-мактаб

Ўзбек адабий тили асрлар оша шаклланиб, тараққий этиб келди. Аждодларимиз заковати туфайли тилимизнинг ноёб жавоҳирларидан иборат сўз хазинасига нодир дурлар – сўзлар қўшилиб, унинг бадиий нафосати ва имкониятларини беқиёс даражада оширди. Ўзбек тилининг бой ва нафис лексик қатламини, унинг бетакрор сир ва асрорларга тўла бадиий мўжизалар яратадиган қудратли лисоний манбаларини авайлаб асраш ҳар биримизнинг бурчимиздир.

Навоий шундай сеҳрли сиймоки, асрлар оша унга интилиш тобора ошиб, замонлар ўта унинг жозибаси тобора ортиб бормоқда. Хусусан, шоир сўзга мурожаат қилиб шундай дейди:

Айтиб совумас тарона сен-сен,

Олиб қуримас хазона сен-сен.

Дарҳақиқат, Навоий нафақат туркий халқлар, балки бутун башарият учун айтиб совимас таронадир, олиб қуримас хазонадир. Чунки сўз сўзловчининг маҳорати билан кучга киради ва сеҳрли қудратга айланади. Навоий эса сўздан ўзига бадиий ҳайкал яратди. У яшаган даврда “туркий тил шеъриятдаги нафис туйғулар ва тушунчаларни ифодалашга қодир эмас, туркий тил асар ёзишга ярамайди” деган сохта тушунча ҳукмрон эди. Навоий эса шундай бир шароитда она тилида ўлмас асарлар ёзиб, ўзбек тилининг ҳам шеърият, ҳам илм тили эканлигини исботлаб берди. Ўзбек тили ва адабиёти

байроғини юксакларга кўтариб, ўзбек халқини тил жиҳатдан "якқалам" қилган Навоий ҳақли равишда:

Турк назмида чу мен тортиб алам,
Айладим ул мамлакатни якқалам

деб фахрланади. Навоийгача бўлган давр ичида, бир шаҳарда яшаб, турли шева ва лаҳжаларда ижод қилган шоирларимизни адабиётимиз тарихидан яхши биламиз. Демак, биз учун, ўзбек адабий тили учун Навоийнинг улуғлиги мана шунда - ўзбек тилини ўзбек халқи учун "якқалам" қилгани ҳамда ўзбек тилининг ҳам шеърият, ҳам илм тили эканлигини исботлаб берганидадир.

Навоий "Муҳокамат ул-луғатайн" асарида ўз халқи орасидан чиққан шоирларнинг ўз она тилларини қўйиб бошқа тилда ёзишини куйиниб, ачиниб тилга олиб: "андин сўнграким, турк тилининг жомиъияти мунча далоил била собит бўлди, керак эрдиким, бу халқ орасидан пайдо бўлғон табъ аҳли салоҳият ва табъларин ўз тиллари турғон ўзга тил била зоҳир қилмасалар эрди ва ишга буюрмасалар эрди. Ва агар иккала тил била айтур қобилиятлари бўлса, ўз тиллари била кўпроқ айтсалар эрди..." дейди.

Ўзбек адабий тилининг тараққиётида XV асрнинг иккинчи ярми ниҳоятда муҳим давр ҳисобланади. Бу даврда Алишер Навоий ўзининг муборак ижоди билан ўзбек адабиётини юксак чўққиларга кўтариш билан бирга, ўзбек тилининг тараққиётига ҳам ўзининг салмоқли ҳиссасини қўшди. Навоий яратган асарлар ҳам фикрий, ҳам адабий жиҳатдан жуда юксак савияда бўлгани сабабли дунёга тез тарқалди ва шоирнинг ўз давридаёқ, илм аҳлининг, жумладан тилшуносларнинг диққатини жалб қилди. Натижада, Навоий асарлари асосида ёзилган грамматика ва луғатлар вужудга келди.

Санъат ва мафкура нуқтаи назаридан Навоий бутун дунё маданиятига ўз ҳиссасини қўшган бўлса, тил нуқтаи назаридан туркий халқлар маданиятига улкан хазина тақдим этди. Шунинг учун ҳам Навоий тили

ҳозирги кунда ҳам жаҳон тилшуносларининг илмий тадқиқотларига мавзу бўлиб келмоқда.

Навоийнинг ўзбек тили ҳамда ўзбек халқи учун қилган хизмати унинг "кўп ва хўп" ёзгани билан хулосаланмайди. Унинг буюк ва асосий хизматларидан яна бири ўзбек тилини бутун ўзбек халқи учун умумий бўлган меъёрга солганидир. Бу эса адабий тилнинг энг муҳим хусусиятларидан ҳисобланади. Навоий ўзининг юксак бадиий қимматга эга бўлган муборак асарларини она тилида ёзиш орқали ўзбек тилининг қудратини, унинг бой тасвирий восита ва имкониятларига эга эканлигини тўлиқ маънода бадиий адабиёт тили эканлигини амалий тарзда исботлаб берди. Навоий ўз адабий-бадиий асарларини яратиш жараёнида жуда муҳим ва мураккаб икки вазифани ўз олдига қўйди. Бири ўзбек адабий тилини юксак даражада ривожлантириш ва такомиллаштириш ҳамда том маънодаги ўзбек адабиётини яратиш ва ундан ўз халқини баҳраманд қилиш бўлса, ўзбек адабий тилини ижтимоий-сиёсий жиҳатдан ҳимоя қилиш Навоийнинг она тили учун, унинг давлат тили бўлиши учун олиб борган курашининг иккинчи йўналишини ташкил қилар эди. Она тилининг бойлиги ва ифода қудратининг юксаклигини исботлаш учун олиб борган курашининг яна бир муҳим томони унинг тил ҳақидаги илмий-назарий қарашларидир. У етук тилшунос олим сифатида, ўзининг "Муҳокамат ул-луғатайн" асарини ёзди. Бу китобда ўзбек адабий тилини шакллантириш, ўзбек адабиётини яратиш, уни ривожлантириш соҳаларида олиб борган курашини, кўп йиллик меҳнатлари ва бой тажрибаларини умумлаштирди, чуқур илмий-назарий хулосалар чиқарди, ўзбек тили бадиий адабиёт яратишга ярамайди, деган фикрларни хато эканлигини исботлаб берди.

Ўзбек тили ва ўзбек адабиётини ривожлантириш соҳасида ўз олдига қўйган вазифаларни юксак даражада адо этган Навоий ўз халқи учун, унинг маданияти учун ва умуман келгуси насллар учун катта шарафли ишларни амалга оширди. У:

Мен ул менки то турк бедодидур,
Бу тил бирла то назм бунёдидур,
Фалак кўрмади мен кеби нодире,
Низомий кеби назм қодире –

деб фахрланишига том маънода ҳақлидир.

Навоий ўзининг бетакрор асарлари билан нафақат ўзбек адабий тилини бутун Хуросон ва Мовароуннаҳрда яшовчи ўзбеклар учун умумхалқ тили даражасига кўтарди, балки унинг асарлари бошқа туркий халқлар тилига ҳам ўз таъсирини ўзказмай қолмади.

ВЕЛИКИЙ НАВОИ.

Raximova Sayyora Azimovna
Buxoro viloyati PYMO'MM

Аннотация: Наследие Алишера Навои и по сей день вызывает интерес во всем мире, поклонников литературы привлекают глубокая философия его творчества, богатые метафоры, разнообразие поэтических образов. Секрет немеркнущей славы произведений. Навои заключается именно в их высоком художественном уровне.

Ключевые слова: эпоха, поэтическое мастерство интерпретировать общест-венный дух, насущные проблемы

Одним из великих людей, оказавших сильное воздействие на формированиедуховности народа, был Алишер Навои. Если назвать этого великого человека святым, то он - самый святой среди святых, если назвать мыслителем, толучший среди них, если назвать поэтом, то он - султан среди поэтов.

Ислам Каримов

Алишер Навои (1441-1501)-великий поэт и мыслитель, государственный деятель. Полное его имя Низамиддин Мир Алишер. Писал

стихи под псевдонимами Навои как в произведениях на чагатайском языке (староузбекском языке), так и на фарси (в персидских произведениях). Является самой крупной фигурой узбекской литературы, которая на Западе известна как чагатайская литература. Да и в литературе всех тюркских народов нет фигуры крупнее его.

Навои с детства дружил с будущим правителем Хорасана (Трансоксания) ХусайнБайкара (1469-1506). С 10-12 лет стал сочинять стихи. По сведениям современника Навои историка Хандамира (1473(76) -1534), известный узбекский поэт Лутфи (1369-1465) в свои пожилые годы встречается с Навои-ребенком и высоко оценивает его поэтический талант.

В течение своей жизни Навои посещает различные страны мусульманского Востока, встречается с именитыми личностями своей эпохи. Развивает свое поэтическое мастерство. В 1464-65 годах поклонники творчества Навои готовят первый его сборник стихов (диван). Данный факт показывает, что к этому времени Навои уже стал знаменитым как поэт. До 1469 года — во время внутренних междоусобиц тимуридов — Навои был вынужден жить далеко от своего родного города – Герата.

В 1469 темуридХусайнБайкара захватывает Герат и становится правителем Хорасана. С этого времени начинается новый этап в жизни Навои. Он активно участвует в политической жизни страны. В этом же году правитель Хорасана назначает Навои на должность хранителя печати государства (мухрдар), в 1472 году - вазиром. Он в своей должности оказывает большую помощь культурной и научной интеллигенции страны. Становится хозяином большого имущества.

В 1480-годы за свой счет в Герате и в других регионах страны строит несколько мадрессе, 40 рабатов (остановка для путников) 17 мечетей, 10 суфийских приютов (ханаках), 9 бань, 9 мостов. И многое другое для всеобщего пользования. Но такая деятельность Навои во благо народа не

нравится окружению правителя и путём интриг им удаётся испортить отношение Навои и ХусайнаБайкара.

Последний освобождает Навои от занимаемой должности и отправляет в 1487 году в город Астрабад в качестве его главы. Здесь он остается в течение двух лет и только после окончания данного срока Х.Байкара разрешает ему вернуться в Герат и предлагает ему занять должность в правительстве. Но Навои отказывается. Несмотря на отказ Х.Байкара дает ему должность приближенного султана-правителя («мукарраби хазрати султани»). На этой должности Навои имел право участвовать в решении всех государственных дел.

С этого времени начинается новая эпоха в жизни поэта, он больше занимается творчеством. Основная часть его произведений создана в течение этого периода. Навои жил и творил в последние годы правления тимуридов (1370-1506). Поэтому в его произведениях силен общественный дух, насущные проблемы эпохи. В 1490-1501 годы Навои создал самые лирические, общественно-философские и научные произведения.

Творчество Алишера Навои велико. Объем шести его поэм составляют около 60 000 строк (мисра). В 1483-85 годы Навои создал произведение «Хамса» («Пятерица»), состоящий из поэм: «Хайрат ал-абрар» («Смятение праведных»), «Фархад ва Ширин» («Фархад и Ширин»), «Лайли ва Мажнун», «Сабъаи сайяр» («Семь планет»), «Садди Искандари» («Стена Искандара»). Они были созданы на основе традиции хамса — создания пятерицы (пяти поэм).

«Хамса» Навои является первым произведением в данном жанре, созданное на тюркском языке. Он доказывает, что и на тюркском языке можно создать такое объемное произведение. И в действительности, Навои стремится доказать, что и на чагатайском (староузбекском) языке можно создать произведение, которое может стоять на одном уровне с

произведением из персидско-таджикской литературы. И он вполне доказывает это через свою пятерицу.

Навои пробует силы почти во всех распространенных жанрах литературы мусульманского Востока и показывает, что он имеет свой голос, стиль. В литературе Востока были созданы более 120 поэм на тему «Лайли и Мажнун». Навои тоже создает поэму на эту тему со своим подходом. В поэме описывается любовь между Лайли и Мажнун. Навои через описания этого стремится выразить и интерпретировать человеческую и суфийскую любовь. Свои суфийские взгляды Навои выражает еще в поэмах «Фархад и Ширин», «Хайрат ал-абрар». Суфийская тематика в его поэмах поднимается на общефилософский уровень.

Одновременно в данных поэмах на повестку дня ставятся злободневные мирские проблемы через гуманистические взгляды поэта. В двух других поэмах из «Хамса» Навои – «Сабъаи сайяр» и «Садди Искандари» на первое место выходит проблемы, связанные с правителем (см.:КаюмовА. Садди Искуандарий. Ташкент, 1980 на узбекском языке).

По своему общественному и художественному значению «Хамса» Навои имел большое место в Средней Азии. Её много переписывали. В настоящее время мы имеем много списков «Хамса» или отдельных поэм из неё. Только в фондах Института востоковедения им. Абу Райхана Бируни хранятся 166 рукописей, переписанных в XV-XX веках, и имеющие или все пять, или некоторые поэмы из пятерицы. Из них 84 списков имеют все пять поэм. Распространение и количество списков «Хамса» Навои показывает, что она имела особое место в интеллектуальной жизни Средней Азии. В течении всей жизни Навои создал огромное количество лирических произведений. Он в 1498 году окончил составление сборника всех его стихов, и создал четыре дивана-сборника под названием «Хазаин ал-маони» («Сокровищница мыслей»).

Как видим, наследие Навои по тематике и по жанру разнообразно. Его произведения с XV и по сей день служат развитию узбекской литературы. Веками его произведения являлись объектом подражания и воодушевления.

Произведения Навои начали изучаться учеными и мыслителями еще при его жизни, однако в настоящее время их изучение перешло на качественно новый уровень. В свое время неоценимый вклад в исследова-ния произведений поэта внесли ученые не только Азии – родины Навои, но и Европы, в частности России, среди которых можно выделить А.Боровкова, С.Малова, Е.Бертель-са, Н.Болдырева Н.Иванова. Кроме того, творческим наследием мыслителя заинтере-сованы ученые Китая, Кореи, Индии, Японии, Америки.

Использованная литература:

1.Иброҳим Ҳаққул. Навоийга қайтиш-2. – Тошкент: Фан, 2011. – 198 б.

2.Ёқубжон Исҳоқов. Навоийпоэтикаси. – Т.: Фан, 1983. – 167

великий гуманист и созидатель Культура 28 октября 2020656

3.Иванов, С. Н. Алишер Навои. Туюги, Газели, Кытъа // Звезда Востока. 1965.

4. Алишер Навоий. Хамсатул-мутаҳаййирин. Тошкент.Ғ.Ғуломномидаги НМИУ. 1983 йил

РОЛЬ АЛИШЕРА НАВАИ В ПРОЦЕССЕ ВОСПИТАНИЕ ПОДРАСТАЮЩЕГО ПОКОЛОНЕЯ

Ikromova Gulshod Akramovna
Buxoro viloyati PYMO‘MM o‘qituvchisi

Аннотация: Алишера Навои вошел в историю как основоположник узбекского литературного языка, а его деятельность и творчество - уникальный образец для подражания. По сей день он служит примером ума, чести, таланта, благородства, преданности народу, стране, человечеству.

Ключевые слова: интеллектуальной деятельности, прозаического повествования, духовного распад, живительные идеи, моральные нормы.

Значение книги в жизни человека огромно. В век компьютеров и высоких технологий человек не может обойтись без чтения. Но, едва научившись читать в начальной школе, дети чаще увлекаются компьютером и телевизором. Замедляется процесс чтения, теряется интерес к нему. Из-за этого замедляются и процессы интеллектуальной деятельности: ребята медленнее прочитывают условие задачи, упражнения, забывают его суть прежде, чем начнут выполнять. Многие термины и понятия, о которых они должны иметь представление в этом возрасте, им просто неизвестны и неинтересны.Чтение, как учебный предмет, имеет в своем распоряжении такое сильное средство воздействия на личность, как художественная литература.

Художественная литература несет в себе огромный развивающий и воспитательный потенциал: приобщает ребенка к духовному опыту человечества, развивает его ум, облагораживает чувства. В совершенстве изучить творчество Алишера Навои, стать примером, применить живительные идеи творчества великого ученого к жизни общества – актуальнейшая задача современности. На наш взгляд, в первую очередь важно получить больше информации о жизни великого мыслителя, его человеческих качествах и добрых делах, которые он совершил. Потому что трудно понять и объяснить суть произведений поэта не имея глубоких знаний о его жизни и творчестве. Исходя из этого, изучении в начальных классах «Юность Алишера», «Наш дедушка Алишер Навои» и «Мудрость Навои» даны рассказы, которые следует представлять учащимся и прививать в своем сознании, опираясь на педагогические технологии. В частности, цель популяризации эпоса Навои в рассказе «Шер и Дуррож» состоит в том, чтобы люди, узость мировоззрения, бытовые желания, неумение видеть будущее раскрываются в форме прозаического повествования, через

произведение призывается к осознанию общественность. В соответствии со своим возрастом учащиеся начальных классов имеют возможность понять суть идей и добродетелей, представленных в рассказе «Шер ваДуррож». Обеспечение полного понимания учащимися сути идеи и решения работы достигается организацией урока на основе технологического подхода к изучению повести «Шер ва Дуррож». Организация учебного процесса с технологичным подходом, носящим индивидуально-творческий характер. В соответствии со своим возрастом учащиеся этого класса имеют возможность понять суть идей и добродетелей, представленных в повести «Шер ваДуррож». Практически во всех поэтических работах воспеваются благородство, щедрость, справедливость, терпеливость, умение противостоять трудностям. Осуждаются вражда, зависть, ненависть, зло, скупость, жадность, ложь и другие отрицательные человеческие качества. Навои призывал стремиться к совершенству, жить благими поступками, отмечая: человека нужно оценивать по деяниям, а не по внешности, богатству или национальности. Поэтому в его произведениях воспеты представители разных народов, вероисповеданий. Алишер Навои описывается как «мыслитель, способный спасти мир от духовного распада». Вы не найдете другого творца, произведения которого так же распространены в мире, как Алишер Навои, экземпляры книг которого хранятся чуть ли не в каждом уголке мира и изучаются с большой любовью. Дело в том, что для языка был подготовлен словарь работ Хазрата Навои даже в последние годы его жизни показывает, что область, которую мы сейчас называем навоистикой, очень стара.

По мнению Алишера Навои ребёнок — это Божий дар каждой семье, в котором заключается смысл жизни любой семьи. Ребёнок в семье — это стимул жизни, который заставляет жить и радоваться всех — без исключения, брата, сестру и родителей. Педагогические идеи восточного лирика отличаются гуманизмом. Алишер Навои считал человека самым

высшим и благородным существом в мире, а ребёнка — светилом, которое озаряет дом и приносит в семью радость и счастье. Поэт писал, что дети не могут отличать хорошее от плохого, поэтому с ранних лет должны находиться под благотворным влиянием воспитателей. В своих стихах Алишер Навои воспевает появление ребёнка в доме как великое торжество, что с этим не сравнится ничего. Ещё в этом заключается такая мысль, что дети — это отражение нашего завтра, то есть копии прошлого, поэтому необходимо дать правильное воспитание будущему поколению. Характеризуя подростковый и юношеский возраст, Навои говорил, что, после детства наступает юношество — период формирования разума. Тогда человеком овладевает или разум, или страсть. Если победит первый, люди станут руководить благородными делами. Мыслитель призывал молодёжь к изучению наук и развитию разума. Если нам не верен дом, осененный правой верой, к иноверцам мы пойдем на другой конец вселенной.

Жизнь уходит день за днем, будь же добрым и веселым.В этих строках Алишер Навои говорит, что какова бы не была жизнь, надо ее принимать как есть, в дальнейшем как проводить, как прожить ее зависит от самого человека, во что бы то ни стало, необходимо жить с позитивом и оптимизмом. Сколько бы не продолжилась жизнь, человек должен творить только добро, чтобы потом не жалеть за бесценно прожитую жизнь. Анализируя жизнь и творчество Алишера Навои, следует заключить, что мыслитель в своих произведениях призывал родителей, учителей и общественность воспитывать у молодого поколения такие нравственные качества, как трудолюбие, гуманизм, патриотизм, милосердие, доброту, правдивость, справедливость, честность, уважение к родителям. Основную задачу воспитания и обучения он видел в нравственной подготовке человека. С его точки зрения, человека нужно воспитывать в духе гуманизма, патриотизма, бескорыстия, честности и порядочности. В основе нравственного воспитания подрастающего поколения лежат как

общечеловеческие ценности, непреходящие моральные нормы, выработанные людьми в процессе исторического развития общества, так и новые принципы и нормы, возникшие на современном этапе развития общества. Непреходящие нравственные качества — честность, справедливость, долг, порядочность, ответственность, честь, совесть, достоинство, гуманизм, бескорыстие, трудолюбие, уважение к старшим.

Сегодня в Узбекистане нет, пожалуй, ни одного дома, где на самом видном месте не стояли бы книги великого поэта и мыслителя Алишера Навои, всю жизнь посвятившего служению своему народу и культуре.

Использованная литература:

1. Алишер Навоий. Хамсатул-мутаҳаййирин. Тошкент.Ғ.Ғулом номидаги НМИУ. 1983 йил

2. Ан-на'им. Арабча-ўзбек чалуғат. Тошкент. А.Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти. 2003, йил.

3.Постановление Президента Республики Узбекистан «О широком праздновании 580-летия со дня рождения великого поэта, мыслителя Алишера Навои». - Правда Востока, 20 октября 2020 года.

4.Послание Президента Республики Узбекистан Ш.Мирзиёева Олий Мажлису.- Правда Востока, 30 декабря 2020 года

5. Арагон Л. Навоий. – Ж.: Шарк Юлдузи. - Ташкент, 1987.-№ 4.

ALISHER NAVOIY ASARLARIDA VAQTNING QADRI

Abdullayeva Feruza Karomatovna
Navoiy viloyati Nurota 19-maktab
ona tili va adabiyot fani o'qitruvchisi

Navoiyning har biri ajib his tuyg'u ifoda qiluvchi baytlarini takror-takror o'qib ko'nglimiz hayajon bilan to'ladi, har safar olmos satrlarning yangi qirralarini kashf etamiz, yangi ma'no tovlanishlarini ko'rib hayratlanamiz. O'zbek xalqining ilm-fani, madaniyati, adabiyoti va san'atiga salmoqli xissa qo'shgan buyuk

shaxslardan biri g‘azal mulkining sultoni, o‘zbek adabiy tilining asoschisi Nizomiddin Mir Alisher Navoiydek buyuk dahosi bor.

Navoiy xazinasidan so‘z gavharlarni terib, kelajagimiz vorislari yosh avlodga yetkashishga harakat qilishimiz, yoshlarimizni har tomonlama yetuk, Alisher Navoiy ta'biri bilan aytganda komil inson bo‘lib yetishishiga zamin yaratadi. Chunki Navoiy ijodida insoniy fazilatlar ulug‘lanadi. Jamiyatimizdagi biror-bir masala, insonga xos qadriyat va tuyg‘ular, fazilatlar va illatlar yo‘qki, Navoiy ijodida qalamga olmagan bo‘lsin. Navoiy bobomizdan meros bo‘lib qolgan dur-u javohirlarni hayrat bilan o‘rganar ekanmiz, ulug‘ allomaning umr qadri haqidagi baytlarini takror-takror o‘qib hayotimizda dasturulamal qilamiz. Alisher Navoiy ijodini o‘rganmoqqa intilmoq murakkab, ammo muborak ishdir. Alisher Navoiy g‘azallarida hamisha “kosa, kosaning tagida nimkosa”, balki nimkosalar mavjud bo‘ladi. Biz baholi qudrat, imkon yetganicha ilg‘aymiz, xolos.

Havoyu adab birla tuzgil maosh,

Yana ayla ta'zimu hurmatni fosh.

Ne el eri bo‘lgang, alar rangi bo‘l,

Nechuk borsang, tutqil ul sori yo‘l.

Albatta, umrning har lahzasini g‘animat sezib o‘tkazish, bu donolik va donishmandlik asosiy xususiyatlaridandir. Haqiqatdan ham, insonning boshi omon, tani sog‘, ko‘ngli xotirjam ekan, bunda hikmat va ibrat ko‘pdir. Shuning uchun ham Navoiy she'rlarida bu haqiqatga qayta – qayta to‘xtaladi va uni goh ahloqiy, goh ishqiy, goh falsafiy ohanglarda talqin etadi. Mutafakkirning “Hazoyin ul-maoniy” (Ma'nolar xazinasi) lirik kulliyotining birinchi devoni “G‘aroyib us-sig‘ar” dagi g‘azallaridan biridagi mana bu misralarda nafas olinayotgan har bir damdan g‘ofil qolmaslik oriflikning ta'labi o‘laroq ta'kidlangan.

Chu moziy o‘tti-yu mustaqbal o‘rtada ermas,

Sengaki hol emas mug‘tanam hol o‘lg‘ay.

Bu damni orif esang yaxshi tutki, johil ishi,

Yetishmagangavu o‘tganga qiylu qol o‘lg‘ay.

Ya'ni, moziy o‘tdi, kelajak hali ilgarida, ayni fursatdagi holingni g‘animat bilmasang, bu qanday hol bo‘ladi. Agar orif ersang har lahza va nafasingni yaxshi qadrla, mazmunli o‘tkaz, deydi mazkur baytlarda ulug‘ bobokalonimiz. Navoiyning bosib o‘tgan hayot yo‘li, nasriy va nazmiy asarlarining ko‘lami va tarorlanmasligining o‘zida ham bir olam ibrat bordir.

Alisher Navoiy "Mahbub ul qulub" (Ko‘ngillarning sevgani) pandnoma asarida inson ko‘ngliga yo‘lni chiroyli muomala bilan, muloyim tabiatlilik bilan topish mumkinligini to‘g‘risida: "Hilm inson vujudining favoqilig‘ bog‘idur, odamiylig‘ olamining javohirlig‘ tog‘i. Hilmni havodis daryosida kishilik kemasining langari desa bo‘lur va insoniyat mezoni toshig‘a nisbat qilsa bo‘lur. Axloq shaxsining og‘ir baholig‘ libosidur va ul libos jinsining sangin debosi",- deya nasihat qiladilar.

Navoiy ijodinining yana hayratlanarli tomoni shundaki, unda zohiriy va botiniy ma'nolar, ilohiy va ishqi majoziy ifodalari bir-biriga halaqit bermaydi, balki bir-birini to‘ldirib turadi. Har bir baytdagi yangi ma'nolarni o‘qib ko‘nglimiz yanada kuchliroq hayratlar tomon shoshib boraveradi.

Yaxshi-yomonni tangridin anglag‘il,

Yamonni yamon, yaxshini yaxshi bil.

Yamonni agar yaxshi qilsang gumon

Erur yaxshini degandek yamon.

Shoir ijodida yetakchilik qilgan mavzulardan biri Sabr va Qanoat mavzulari hisoblanadi. Kishini hayot sinovlarida sabrli va qanoatli bo‘lish, shukronalik hissi bilan yashashga undaydi. Sabr bilan ko‘p mushkullar yechilishi, besabrlikdan esa inson xatoliklarga yo‘l qo‘yishi haqida shunday, ya'ni "Ishda oshuqmoq yosh o‘g‘lon ishidur, sabr bila ish qilguvchi tajribalig‘ ulug‘ yoshlig‘ kishi ishidur". Bugunning dolzarb muammosi bo‘lgan bizdagi qanoatsizlik illatini qoralaydi, ya'ni moddiy boyliknini ma'naviy boylikdan ustun qo‘yilishini, va buning

oqibatida inson o‘zligini unutib va atrofga qarab ibrat, o‘rnak olishga chorlaydi. Ya’ni, “Kafshizlikdin malul bolmag‘il, ayog‘sizlarga boqib shukr qil”, yoki “Dastor yirtug‘lig‘idin g‘am yema, boshi yoruglarg‘a boqib hamdidin o‘zgani dema”.

Buyuk bobokalonimizning ulug‘ligini ko‘rsatuvchi qo‘shimcha dalil izlashga hojat yoq. Uning buyukligini anglamaslik millatimizning madaniyati, milliy-ma’naviy kuch-quvvati, tarixi va badiiy tafakkuriga qo‘shgan ulkan hissasini anglamaslik bilan barobar. Navoiyning biz yashayotgan shu zamonda, yangi XXI asdrda ham zamonaviy shoir sifatida yodga olinayotganida hikmat bor, albatta. Biz Alisher Navoiyning ijodiy merosini boshqa xalqlarga ko‘z-ko‘z qilish uchun emas, balki o‘zimiz bilishimiz va har soniyada buyuk dahoning ibratli hikmatlariga amal qilib yashamog‘imiz uchun o‘rganmog‘imiz lozim.

Усманова Р.М	Идеи гуманизма, мира и просветительства В творчестве алишера навои	6
G'ulomova Nargiza Sa'dullayevna	Navoiy g'azallarini tahlil qilishda izohli lug'atlardan foydalanish	9
Суванова Мавжуда	Ўзбек шеваларида миллий кийим ва таом номларини ифодаловчи этнографизмларнинг ареали	13
Машарипова Ш.Р	Поэзия, живущая в веках	20
Раимкулова И.А.	Творческое наследие Алишера Навои	23
Аннаева Л.	Алишер Навои - выдающий представитель узбекской литературы	25
Хамидова Г.Ю.	Перечитывая гениальные творения Алишера Навои	27
G'oibova Dilnavoz Jamilovna, G'oibova Nafisa Dilmurodovna.	Navoiy asarlarining farzandlar tarbiyasidagi betakror o'rni	31
Sevara Tursunova Alimovna.	Alisher Navoiyning o'zbek adabiy tilini rivojlanishidagi o'rni	33
Tilavov Otabek Norpo'latovich	"Navoiy hirotda, kobulda bobur…"	36
Radjabova Komila Bahodirovna	Bo'lsun adab birla bori xidmating…	39
Muqimova Dilfuza Shokirovna	Alisher Navoiy g'azallari uning lingvistik tahlili va badiiy xususiyatlari	43
Sa'dullayeva Shahrizoda Muhiddin qizi	Navoiyning ma'rifatli ayollar haqidagi qarashlari	46
To'rayeva Dilso'z Ixtiyorovna	Mumtoz adabiyotga xos she'riy janrlarni o'rganish	49
Qo'ldosheva Mahriniso	Navoiy asarlarida tasavvufiy g'oyalar talqini	51
Rahima Qiyomova Jahonovna	Maktabda mumtoz adabiyot vakillarining ijodini o'rganishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish	55

Қаҳҳорова Дилафрўз.	Адабий тилнинг шаклланишида навоий асарларининг ўрни	57
Ravshanova Sohiba	Shogird tarbiyasida navoiy hikmatlarining o'rni	60
Мирсолиҳова Саноба	Алишер Навоийнинг "Ҳайрат ул-аброр" достонидаги илмий-лингвистик мотивлар хусусида баъзи мулоҳазалар	65
Қурбонова Холбиби Тўрақуловна, Асланова Санобар Сулаймановна	Навоий маънавий мероси – эзгу фазилатлар тимсоли	68
Искандарова Мавлуда	Баркамол авлод тарбиясида навоий ижодининг бебаҳо ўрни	71
Tolibova Marjona Mehriddin qizi	Alisher Navoiyning yoshlar tarbiyasi sohasidagi qarashlari	73
Suvonova Sohiba.	Navoiy ijodida mavzu xilma-xilligi	76
Sa'dullayeva Nigina Shukrullo qizi	Navoiy asarlarida insoniylik tushunchalarining ifodasi	79
Narzullayev Nuriddin	Umuminsoniy qadriyatlarning ulug'lanishida mumtoz adabiyotning o'rni	81
Xamdamova Nigora	Barkamol avlod tarbiyasida Alisher Navoiyning "Mahbub ul-qulub" asari	83
Суванова Мавжуда	Никоҳ тўйини ўтказиш билан боғлиқ маросимлар	86
Nodirqulova Marjona Bahodir qizi.	Navoiy dahosiga ehtirom – millatimiz uchun sharaf	91
Жураева Гүлмира	Әбдірахман Жәми мен Әлішер Науаи шығармашылығының өзектіліг	94
Жураев Маратжан, Рақметова Алия.	Әлішер Науаи – ірі ғұлама әрі ғалым	97
Абдусалимова Маҳфуза	Навоий асарларида комил инсон ғояси	103
Hayitova Aziza Ibragimovna.	"Hayrat ul-abror" dostonida navoiyning falsafiy qarashlari	106

Rahmonqulova Sadoqat.	"Hayrat ul-abror" dostonidagi obrazlar va hikoyatlarning badiiy xususiyatlari	109
Маҳмудова Нигора	Навоий асарлари – маънавий меросимиз гултожи	113
Ҳақназарова Обида.	"Кўнгил каъбасини обод эт..."	116
Umarova Feruza.	Umuminsoniy qadriyatlarning alisher navoiy asarlarida ulug'lanishi	119
Bozorova Rayhon.	Sarhadi keng turkiy tilning oshig'i	121
Murtozoyeva Nafisa Egamberdiyevna, Nurimova Muhayyo Akmalovna.	Informatikadan darslarida noan'anaviy mashg'ulotlarni loyihalashtirish	123
Xodjiyeva Dilobar Shukurovna, Isayeva Manzura Farxod qizi	Biologiya fanini o'qitishda o'quvchilarda kompetensiyalarni shakllantirish	126
Тошқулова Мухлиса	Адабий тилнинг шаклланишида навоий асарларининг ўрни	128
Raximova Sayyora Azimovna	Великий Навои	131
Ikromova Gulshod Akramovna.	Роль алишера наваи в процессе воспитание подрастающего поколонея	135
Abdullayeva Feruza Karomatovna.	Alisher Navoiy asarlarida vaqtning qadri	139